Shoira „sovuq kunlar” deb yori va o'zi o'rtasidagi sovuq munosabatlarni nazarda tutar ekan, bu kunlar abadiy davom etmasligi, qachondir barham topishidan umid qilari ekan yorga murojaat qilib bu sovuq kunlar meni (ya'ni tuyg'ularni nazarda tutmoqda) o'ldirmasidan asrab qol, o'sha tuyg'ular qalbingga qaytganida kech bo'lmasin deya xitob qiladi.

O'zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning „shunchaki” she'rida ta'kidlanganidek

Shunchaki yozmoqqa, ko'ngil to'lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.
Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi.
Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim.

Shunchaki yozmoqlik shoirga o'lim qabilida yozadi. She'rlarini yozishda eng avvalo o'z tuyg'ularini ochiq -oshkora yoritadi. Guljamol Asqarova yana bir she'riga nazar tashlaydigan bo'lsak, Shavkat Rahmonning mashhur so'zlarini epigraf qilib olgan „taskin” she'rida

Taskin

Qo'y yig'lama, og'riydi boshing...
Shavkat Rahmon

Qo'y yig'lama, og'riydi boshing...
Yuraklaring ursin men bilan.
Bu dunyoda neki bor mushkul,

Bog'layverma qaro tun bilan.
Ko'p yozg'irma, bu taqdir,nasib
Ayblama, tonma ranjima.
Qaro tunlar yaralgan asli,
Oppoq tuyg'ularning mavjidan

Har nega yig'layverma og'riydi boshing deya boshlanuvchi bu she'rida har narsaga siqilavermaslik kerakligini aslida har qanday qaro tundan keyin yorug' kunlar kelishinimuqtirar ekan, Har kim o'z nasibasidan ortiqni ololmasligini, ya'ni kimnidir,nimanidir ayblama, ranjima tonma deya xitob qiladi.Haqiqatdan bu kitobxon bu she'rni o'qir ekan o'z-o'ziga taskin beradi.Shoir qalbi shu qadar nozik. Shoir qalbi shunday beg'ubor.ShoirLAR bor ekan bu she'rlarda hayot bor.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Adabiy turlar va janrlar [3 j.li], 2-j., Lirika, T., 1992.
Bahodir Karimov.[1]
- 2.<https://www.samdu.uz/uz/news/32736>
- 3.Manba <https://tafakkur.net/guljamol-asqarova.haqida>
- 4.Manba: «Yoshlik» jurnali,9/2015 & «Saodat» jurnali veb-sahifasi
- 5.Normatov U. Ijod sexri. -T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007, 352 b.
- 6.<https://samxorfil.uz/jurnal1>
- 7.Xudoyberdiyeva X. Yillar nafasi. -Toshkent: “Sharq” nashri – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, -T., 2016.-

JINOYAT ISHLARINI TERGOV QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PROTSESSUAL JIHLATLARI

*O‘zbekiston respublikasi adliya vazirligi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Toshkent davlat yuridik universiteti*

Yurtimizda “Fuqarolar emas hujjatlar harakatlanadi”¹ nomli tamoyil kundan kunga rivojlanib davlat organlari va boshqa tashkilotlarda inson omilini keskin kamaytirib elektron hujjatlar bilan ishlash doirasini jadallik bilan kengaytirmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 14-mayda “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-sonli qarorida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjud bo‘lgan bir qator kamchiliklarga to‘xtalib o‘tilgan, xususan, “Elektron jinoyat ishi” loyihasini takomillashtirish orqali jinoyat ishlari bo‘yicha ish yurituvni elektron shaklda yuritish va protsessual harakatlarni amalga oshirish vaqtida surishtiruv organlarining prokuratura organlari, sudlar va jazoni ijro etish organlari, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan ma‘lumotlar almashinuvi imkoniyatini beruvchi himoyalangan tizimni, jumladan axborot tizimlari va ma‘lumotlar bazalarini integratsiya qilish, jinoyat ishlari bo‘yicha statistika yuritishni avtomatlashtirish orqali joriy qilish, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv amaliyotida jinoyat-protsessual hujjatlarining yagona elektron shaklini ishlab chiqish, protsessual harakatlarni amalga oshirish tartiblarini, jumladan elektron shaklda sanksiyalar olish orqali soddalashtirish bo‘yicha alohida topshiriqlar berib o‘tilgan. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash bo‘yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda va jinoyat protsessual kodeksiga bir qancha o‘zgartirishlar kiritilgan. Masalan: sud qarorining jarima solishga va boshqa mulkiy undirishlarga taalluqli qismini ijro etish uchun ijro varaqalari yoki ularning dublikatlari sud qarorining nusxasi bilan birga davlat ijrochilariga elektron hujjat tarzida yuboriladi, videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilgan tergov harakati jarayoni va natijalari elektron ma‘lumotlarni tashuvchi tegishli vositalarga bayonnoma tuzilgan holda yoziladi va qayd etiladi, zarur hollarda, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari qo‘llanilishi mumkin va boshqalar². Albatta bu kabi o‘zgarishlar bir qancha, ammo hozirgi jadal rivojlanib

¹ Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.

² O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: “Adolat”, 2023. – 672-b. <https://lex.uz/acts/-111460>

borayotgan zamonaviy texnologiyalar zamonida yashar ekanmiz qonunchiligimiz ham ushbu zamon talablariga mos bo'lishi, ayniqsa isbot qilish bosqichida mukammal olib borilgan tergov harakatlari jinoyat ishining keyingi bosqich va yo'nalishini belgilab, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning usul va vositalarini aniqlab jinoyatlarning tez va to'g'ri ochilishiga yordam beradi.

Dunyo bo'ylab qonun ustuvorligi (WJP-world justice project) tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va tashkilotlarining o'zaro axborot almashish darajasi va faoliyatining shaffofligi bo'yicha 102 ta davlat ichida 2015 yilda 0.44 ko'rsatgichni qayd etgan bo'lsa, 2022 yilda 0.46 ko'rsatgich bilan 144 ta davlat ichida 65 o'rinni egallagan³. Albatta qisqa fursatlarda natijalarimiz ijobiy tomonga o'zgargan, ammo hozirgi global jadallashuv jarayonida ushbu natijalarning tez fursatlarda salbiy tomonga o'zgarib qolish ehtimoli yo'q emas.

“Cybersecurity Ventures”⁴ nashrining ma'lumotlariga ko'ra, axborot texnologiya vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlar natijasida fuqarolar 2023 yilda 8 trillion AQSH dollari, ya'ni soniyasiga 250 ming dollar zarar ko'rgan, ushbu ko'rsatkichlar 2025 yilga kelib esa 10,5 trillion AQSH dollarga ko'tarilishi mumkinligi haqida mutaxassislar tomonida fikr bildirilmoqda. IPSOS⁵ raqamli platformasining ma'lumotlariga ko'ra, AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda ham axborot texnologiya vositalari orqali sodir etilgan jinoyatlar natijasida har uchinchi amerikalik ular orasida 35-54 yoshgacha bo'lganlar 36%, 18-34yoshgacha bo'lganlarning atigi 22 %i onlayn moliyaviy firibgarlik qurboni bo'lganligi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bergan. Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki, axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan jinoyatlarni tez va to'g'ri ochish uchun jinoyat ishlarini tergov qilish ham mos ravishda o'zgarib borishi lozim.

Bundan tashqari fuqarolarda ham axborot texnologiya vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishimiz lozim. Banklar, davlat organlari va fuqarolar o'rtasida shaxsiy ma'lumotlarni saqlash, ularni qachon va kimlarga taqdim etish mumkinligi masalalari, xozirgi kunda axborot vositalaridan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olish bo'yicha suhbatlar o'tkazilishi lozim. Chunki ko'pgina xolatlarda fuqarolar osongina o'z shaxsiy ma'lumotlarini firibgarlarning

³ <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2022/Uzbekistan/Criminal%20Justice/ranking>

⁴ <https://www.usatoday.com/money/blueprint/business/vpn/cybersecurity-statistics/#:~:text=A%20report%20on%20cybersecurity%20predicted,exceed%20%2410.5%20trillion%20in%202025.&text=In%20the%20United%20States%20alone,over%20%2410.2%20billion%20in%202022.>

⁵ [https://www.ipsos.com/en-us/nearly-1-3-americans-report-being-victim-online-financial-fraud-or-cybercrime#:~:text=Nearly%201%20in%203%20Americans%20\(31%25\)%20report%20being%20a,18%2D34%20\(22%25\)](https://www.ipsos.com/en-us/nearly-1-3-americans-report-being-victim-online-financial-fraud-or-cybercrime#:~:text=Nearly%201%20in%203%20Americans%20(31%25)%20report%20being%20a,18%2D34%20(22%25))

yolgʻonlariga uchib berib qoʻymoqda natijada millionlab pul mablagʻlar oʻgʻirlanmoqda. Endi esa quyidagi amaldagi misollarga oʻtsak:

1) 2020 yil sentyabr oyida noma'lum shaxslarning ayrim banklar (“Ravnaq bank” va “Oʻzsanoatqurilishbank”) tomonidan fuqarolarga ochilgan VISA toʻlov tizimlariga qilgan kiberhujumi natijasida 466 ming AQSh dollari pul mablagʻlari talon-toroj qilingan;

2) fuqaro B unga tegishli boʻlgan ATB “Infinbank” Qoʻqon filialidan ochilgan “HUMO” plastik kartasi orqali oʻzining “Uzsard” plastik kartasiga “Infinbank” mobil ilovasidan pul oʻtkazish jarayonida ilovaning texnik nosozligini bilib, axborot tizimidan foydalangan holda 530 marta pul koʻchirishni amalga oshirib, 265 mln soʻm pul mablagʻlarini yashirin ravishda oʻgʻirlagan;

3) aka-ukalar “Turonbank” ATB Fargʻona filialidan oʻz nomlariga ochilgan “Uzcard” plastik kartochnasidan “Humo” plastik kartochnasiga “My Turon” mobil ilovasi orqali pul koʻchirish davomida mobil ilovasidagi texnik nosozlikni bilib, bank hisobidan 617.432.383 soʻm mablagʻlarini yashirin ravishda oʻgʻirlashgan;

4) noma'lum shaxs fuqaro K.ga qoʻngʻiroq qilib, oʻzini Payme toʻlov tizimi xodimi sifatida tanishtirib, unga tegishli plastik kartaning himoya kodini qoʻlga kiritib, PayMe toʻlov tizimi yordamida, karta hisobidan 40 mln. soʻm miqdoridagi pul mablagʻlarini oʻgʻirlagan⁶;

Oʻzbekistonda 2020 yilda axborot texnologiyalari sohasida 106 ta jinoyat qayd etilgan boʻlsa, soʻngi 2 yil ichida ushbu turdagi jinoyatlar 40 baravarga oshib, 4332 tani tashkil etadi. 2020 yilda axborot texnologiyalari sohasida roʻyhatga olingan jinoyatlarning 2747 tasi kiberoʻgʻrilik boʻlsa, 625 tasi kiberfiribgarlik hisoblanadi va jinoyatlarning 82%i bank plastik kartalardan pul mablagʻlarini talon-taroj qilish orqali sodir etilgan. Ushbu raqamlar orqali shuni bilishimiz mumkinki, endilikda zamonaviy axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan jinoyatlar bilan ishlashning yangicha mexanizmlarini jorjiy etishimiz, tergov harakatlarida elektron dalillarni olish, saqlash, ularni koʻzdan kechirish, jinoyat ishiga qachon va qay tartibda qoʻshish boʻyicha protsessual tartib hamda normalarni ishlab chiqishimiz, jinoyat ishlarini tergov qilish davomida zamonaviy jahon talablariga mos keluvchi tergov harakatlaridan foydalanishimiz lozim.

⁶ <https://hsti.uz/wp-content/uploads/2022/07/IPP-06.07.2022-LAST.pdf>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**I. Rahbariy adabiyotlar:**

1.1 Mirziyoyev Sh.M. Konsitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. T.O‘zbekiston, 2019. 48-b.

1.2. Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasidan.

1.3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 48.b.

1.4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018-yil.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

2.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 40-b.

2.2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: “Adolat”, 2020. – 672-b.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va jinoyatprotsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-sonli Qarori.

2.4. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi “Surishtiruv institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-442-sonli Qonuni. 2.5.O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-675-sonli Qonuni.

JINOYAT ISHLARINI TERGOV QILISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI ORQALI ELEKTRON DALILLARNI EKSPETIZADAN O'TKAZISH

Do'smurodova Dildora Vali qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

"Advokatlik faoliyati" yo'nalishi talabasi

Yurtimizda yaqin yillarda tashkil etilgan hamda jinoyatlarni tez va to'g'ri ochishda o'zining samaradorligi bilan ajralib turadigan ekspertiza turlaridan biri bu raqamli ekspertiza desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki dunyo aholisining deyarli 90%i bugungi kunda telefon, kompyuter, planshet va boshqa axborot vositalari orqali o'z ish faoliyatini olib boradi va muhim ma'lumotlarini turli hil tashuvchi vositalarda elektron shaklda saqlaydi. Jinoyatlarni tez va to'g'ri ochishda esa elyoktron ma'lumotlarni topa olish, tiklay olish, saqlash, ulardan nusxa ko'chirish va ulardan isbot qilish jarayonida foydalana olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqshunos olim S.Otaxo'jaevning aytishicha sud ekspertizasi ikki xil xususiyatga ega, ya'ni u bir tomondan ilmiy (texnik yoki boshqa turdagi) tadqiqot, ikkinchi tomondan esa daliliy faktlarni aniqlashga qaratilgan prosessual harakat. Sud ekspertizasining prosessual prinsplari barcha turdagi prosesslarda amal qilib ularga qonuniylik, ekspert tadqiqotining holisligi, to'liqligi, ekspertning o'z kasbiga loyiqligi, prosessual mustaqillik, o'z xulosalariga shaxsan javobgarligi, tashabbuskorligi va boshqalar kiradi. Sh.Shoraxmetov ekspertizani bilimdon yoki hunarmand shaxslar yordamida dalillarni tekshirish usuli sifatida e'tirof etadi¹.

Raqamli sud ekspertiza sud ishlariga taalluqli dalillarni to'plash, saqlash va tahlil qilish bo'yicha ilmiy metodlarni qo'llashdir. Yana boshqa adabiyotlarda raqamli ekspertizaga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan. Raqamli operatsiyalarga zarar yetkazadigan noqonuniy hatti-harakatlarning oldini olish maqsadida raqamli manbalardan olingan raqamli dalillarni olish, yig'ish, saqlash, tasdiqlash, identifikasiyalash, tahlil qilish, talqin qilish, hujjatlashtirish va taqdim etish bo'yicha ilmiy asoslangan va tasdiqdangan usullar jamlanmasidir.

Londonda joylashgan "Forensic control" kiberjinoyatlarni aniqlash va oldini olish bo'yicha ekspertiza markazining www.forensiccontrol.com saytida kompyuter ekspertizasi raqamli ma'lumotlarni to'plash, tekshirish, tahlil qilish va raqamli ekspertiza hisobotlarini qonuniy yo'l bilan qabul qilish amaliyoti ekanligi aytib

¹ O.Sh.Pirmatov. Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirishda elektron dalillarni blokcheyn dasturiga solishning zarurati.

"Huquqiy tadqiqotlar" jurnali. – 2020.10.10.

o'tilgan. U jinoyatni aniqlash, oldini olishda va dalillarni raqamli tarzda saqlab turadigan har qanday nizoda qo'llanilishi mumkin. Umumiy qilib shuni ayta olamizki, raqamli xotira va raqamli muhitda nima, qachon va qanday sodir bo'lganligini o'rganuvchi soha raqamli ekspertiza hisoblanadi².

Raqamli ekspertiza sudda bo'ladigan nizolarga qarab quyidagi holatlar yuzasidan tayinlanishi mumkin:

- intellektual mulk bo'yicha nizoli holatlarda;
- hodimlar faoliyati bilan bog'liq muammoli holatlarda;
- firibgarlik;
- korxonada kamomadi yuzasidan sodir bo'lgan holatlarda;
- korxonada yozishmalari va elektron hujjatlari yuzasidan nizoli holatlarda;
- o'chirilgan yoki yashirin ma'lumotlarni tiklash;
- yo'q qilingan elektron pochta xabarlarini tiklash;
- qattaq diskdan ma'lumotlarni qayta tiklash;
- o'tkazilgan yoki nusxalangan fayllarni topish;
- SMS xabarlar, aloqalar, kontaktlar va noqonuniy suhbatlar mazmunini topish;
- Xakkerlik, keyloggerlik kabi noqonuniy faoliyat turlari bo'yicha.

Ekspert xulosasidagi ma'lumotlar dalil hisoblanadi, chunki ekspert bu ma'lumotlarni ekspertizaga yuborilgan ob'ektlarni bevosita tekshirishi natijasida oladi. Ekspert xulosasi bu shaxsiy dalil, sababi u maxsus bilimga ega bo'lgan shaxsdan kelib chiqadi. Ekspert xulosasiga baho berish boshqa dalillarga baho berish kabi amalga oshiriladi, biroq u o'ziga xos ayrim xususiyatga ham ega.

Qonunda belgilangan tartiblarga rioya etilmagan holda tayinlanish va o'tkazish natijasida olingan xulosa nomaqbul hisoblanadi, ya'ni: agar ekspertiza jinoyat prosessining qonunda belgilanmagan bosqichida masalan, jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash vaqtida o'tkazilgan bo'lsa; agar u rad qilinishi lozim bo'lgan shaxs tomonidan o'tkazilgan bo'lsa; agar ekspert bilaturib yolg'on xulosa bergan bo'lsa; agar ekspertiza tayinlash vaqtida gumon qiluvchi, ayblanuvchi va prosessning boshqa ishtirokchilarining huquqlari buzilgan bo'lsa va b.h. Ashyoviy dalil ekspertga yuborilganda, uni ehtiyotkorlik bilan saqlashga oid maxsus qoidalar, jumladan, tik holda, quruq joyda, muayyan haroratda saqlanishi haqida ogohlantiruvchi yozuvlar ashoviy dalil o'ramining ustida yaqqol joylashtirilishi lozim. Tez buziladigan mahsulotlar kimyoviy o'zgarishining oldi olinmasa, ularni tekshirish, identifikatsiyalash imkoniyatlari yo'qolishini ham e'tiborga olish kerak.

² <https://proacademy.uz/postfiles/sets/f9/sd/index.html>

Ashyoviy dalillar ekspert tekshiruvida to'la sarflanmasligi, ulardan namuna olish uslubidan foydalanilishi lozim. Amaliyotda ayrim hollarda sud tergovida, ko'plab hollarda dastlabki tergovda ekspertiza xulosasiga alohida daliliy ahamiyat beriladi.

Ekspert xulosasiga nisbatan tanqidiy yondashuvning yo'qligi keng tarqalgan tergov va sud xatolaridan biri hisoblanadi³.

JPKning 172-moddasiga ko'ra, ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlanadi. Ekspert oldiga qo'yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas⁴.

Raqamli ekspertiza yuzasidan berilgan xulosada qo'yidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lishi lozim:

- Qurilma bilan qanday aloqaga kirishilgan? Qurilma qanday holatda (o'chirilgan, yoki yoniq, qulflangan yoki ochiq);
- Agar qurilma yoqilgan yoki undan keyin yoqilgan bo'lsa, signal yoki boshqa kontaminasiya shakillaridan qanday qilib ajratilgan?
- Qurilmani topish uchun qanday qonuniy usul ishlatilgan?
- Saqlangan ma'lumotlarni chiqarish uchun qanday vositalar, yordamchi dasturlar va usullar ishlatilgan?
- Qo'llanilgan vositalarning versiyalari qanday edi?
- Qanday ma'lumotlar olingan?
- Hisobotning har qanday muammolari va mavhumliklarini tushuntirib berish.
- Olingan natijalar qanday tasdiqlangan?

Ekspertning taxminlarga asoslangan xulosasi sud hal qiluv qarorini qabul qilishda asos bo'lolmasligini inobatga olsak, elektron dalillar yuzasiddan o'tkazilgan ekspertiza bo'yicha ekspert faqat qat'iy yoki shartli xulosa beraolishi mumkin.

Biologik dalillarni ekspertizadan o'tkazgan vaqtimizda ularga tashqi muhit ta'sir etishi mumkin, ammo elektron dalillarda muhit ta'siri deyarli sezilmaydi. Elektron dalillar raqamlangan yoki ma'lum bir algoritim ketma-ketligida yaratilganligi bois ularga nisbatan tahminiy xulosalar berilmaydi. Bu ham elektron dalillarning boshqa an'anaviy dalillardan ustun jihati bo'laoladi desak adashmagan bo'lamiz.

³ **Жиноят ишлари юритувида далиллар назарияси.** Ўқув қўлланма. ю.ф.н. доцент М.Х.Кадирова, ўқитувчи А.А.Хакбердиев – Тошкент: ТДЮУ, 2020. - 212 бет

⁴ О'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –

Toshkent: "Adolat", 2020. – 672-b. <https://lex.uz/docs/111460#253743>

Ekspertlar tomonidan raqamli ekspertiza o'tkazish jarayoni 4ta bosqichdan iborat bo'ladi. **Birinchi**, dalillarni to'plash bosqisi va bunda axborot kompyuter vositalarida to'planadi. To'plangan ma'lumotlarning manbasi va atributlari (kelib chiqishini ko'rsatuvchi belgisi) ham bo'lishi lozim. To'plangan ma'lumotlarning xavfsizligi, yaxlitligi va maxfiyligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ma'lumotlarni yig'ish vaqtida ba'zan o'zgaruvchan ma'lumotlarga duch kelishimiz mumkin bunday hollarda tarmoq ulanishlari yoki kompyuterning asosiy xotirasini tuzatish uchun kerakli choralar ko'rilishi lozim. **Ikkinchi** bosqichda esa to'plangan ma'lumotlar tadqiq qilinadi ya'ni ekspertizadan o'tkaziladi. Bu jarayonda ishga aloqador bo'lgan ma'lumotlar olinadi, kodlanadi yoki koddan yechiladi, ayrim ishlar esa to'liq avtomatlashtiriladi. **Keyingi bosichda** esa ekspertizadan o'tkazilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ilmiy metodlardan foydalangan holda ekspertga berilgan savollarga javob beriladi. **So'nggi bosqichda** esa olingan natijalar konun bilan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi va sudga taqdim etiladi. Zarur hollarda ekspertiza natijalarini bo'yicha ekspert sudda izohlar berib o'tadi. Bunda ekspert (mutaxassis) o'zining harakatlarini bosqichma bosqich hujjatlashtirishi, dalillarni olish va tekshirish usullari hamda vositalarini ko'rsatishi, baholash mezonlarini va qiymatlash masalalarini batafsil aytib berishi lozim. Shu bilan birga, ekspert (mutaxassis) tadqiqot natijalarini sud muhokamasida qayta ko'rsatib berilishi maqsadga muvofiq. Sababi, ekspertiza tadqiqoti natijalari sudya, prokuror, advokat tomonidan tekshirilganda bir xil qiymatni berishi kerak.

Amaliyotda ekspertlar hamda tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud'yalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va ularning harakatlarini yagona tizimga solish maqsadida ekspertlarga elektron tarzda ekspertiza tayinlash va natijasi bo'lgan xulosani olish tartibini joriy qilish lozim. Ushbu tizim «E-expert» deb nomlanib, u orqali ekspertiza tayinlanishi hamda tadqiqot natijasi bo'lgan xulosa elektron tarzda tayinlagan organga

yuborilishi mumkin bo'ladi. Shunda hujjat bilan tanishish imkoniyati tezlashadi va oxirida elektron xulosa olib, ularni tezda baholash imkoniyatini beradi. Bu holat ekspertiza tayinlash jarayoni sifatini va tezligini ta'minlashga yordam beradi. Bu portaldagi yana ekspertiza tayinlash vakolatiga ega bo'lgan shaxslar o'z savollarini, ya'ni ma'lum bir obyektning tashkilotda tadqiq etish mumkinmi, kimlar shu sohada ekspert ekanligi (ekspertlar ro'yxati), qanday usullar yordamida tadqiqot o'tkazilishi hamda asosan ushbu holatda qanday savollar berish yuzasidan maslahat olish imkoniyati paydo bo'ladi⁵.

Raqamli sud ekspertizasi ham o'z ichida bir qancha tarmoqlarga bo'linadi:

–Mobil qurilma ekspertizasi;

⁵ <https://sudyalari.uz/uploads/abstracts/d5ba29197eca47d2122cd6a2c6b6f008f.pdf>

- Komp'yuter ekspertizasi;
- NET-tarmoq ekspertizasi;
- Axborot ombori ekspertizasi;
- Jonli (live) ekspertiza;

Mobil qurilma ekspertizasi mobil telefon va boshqa mobil aloqa vositalariga nisbatan o'tkaziladi. Mobil telefonlar nafaqat aloqa uchun, balki tasvir, suhbat, kontakt ma'lumotlari va hujjatlarni o'zida saqlaydi va bugungi kunda eng ko'p tarqalgan elektron dalillarni saqlovchi vosita hisoblanadi.

Kompyuter ekspertizasi kompyuterda saqlanyotgan elektron dalillar bilan bog'liq holatlarda qo'llaniladi.

NET-tarmoq ekspertizasi tarmoq trafigi bilan bog'liq holatlar yuzasidan o'tkaziladi. Tarmoq trafigi asosan Internet hisoblanadi. Tarmoq trafigini ekspertizadan o'tkazishdan asosiy maqsad ma'lumot to'plash, dalil yig'ish yoki tarmoqqa qilingan kiber hujumlarni aniqlash bo'lishi mumkin. Tarmoq ekspertizasi atamasi Network Flight Recorder dasturining asoschisi Markus Ranum bilan bog'liq. U xavfsizlik manbasining xurujini aniqlash uchun maxsus dastur yaratadi va u dastur orqali tarmoqda sodir bo'layotgan barcha amallarni kuzatish, yozib olish va tahlil qilish mumkin. Internet yoki World Wide Web (WWW) butun dunyo kompyuterlari Internet protocol suite (TCP/IP) manzilidagi birlashmasi bo'lib hujjatlar va ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot resursi. Amerikalik huquqshunos Jozef Gregoriy Internetdagi dalillarni veb-sayt yohud ijtimoiy tarmoq saxifasi egasining qo'ygan postlari, uning boshqa shaxslar bilan olib borgan yozishmalari va veb-sayt yohud ijtimoiy tarmoq saxifasiga uchinchi shaxslarning yozgan yozishmalari (xakkerlarga) shakllariga ajratadi.

Amerikalik huquqshunos Paul Grimm Internetdagi postlarni dalil sifatida baholashda ular quyidagi talablarga javob berishi lozim deb hisoblaydi:

- Ijtimoiy tarmoq egasi va post bir-biriga aloqador bo'lishi;
- Ijtimoiy tarmoq egasi o'z veb sahifasida post yaratgan bo'lishi;
- Ijtimoiy tarmoqda qoldirilgan post da'vogarga aloqador bo'lishi;
- Ekspertiza xulosasida post ijtimoiy tarmoq egasining qattaq diskida saqlanganligi aniqlangan bo'lishi;
- Qoldirilgan postni boshqa shaxslar ko'rishi va o'qishi imkoniyati borligi;
- Qoldirilgan post ijtimoiy tarmoq egasining fikri bo'lishi.

Bizning fikrimizcha ham raqamli dalillar bilan ishlovchi ekspert o'z xulosasida post yoki ma'lumotlar ijtimoiy tarmoq egasining qattiq diskida saqlanganmi saqlangan bo'lsa qaysi sanada saqlanganligiga alohida e'tibor berishi lozim. Bu bizga postning haqiqiy egasini aniqlashda qo'l keladi.

Axborot ombori ekspertizasi asosan ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydi. Asosan axborot ombori va uning meta ma'lumotlarini tahlil qiladi. Ko'pchilik ekspertlar va tergovchilarning axborot manbasi qattiq disklar, optik disklar va tashqi media hisoblanadi. Kompyuter tizimida ma'lumotning shakllanishi ketma-ket joylashgan abstrakt qatlamlarda amalga oshiriladi. Har bir dasturiy qatlam asta-sekin o'zining ostidagi qatlam tomonidan taqdim etilgan interfeysga bog'liq ma'lumotlarni yaratadi. Shunga ko'ra axborot omborlarida amalga oshiriladigan raqamli ekspertialar bir necha darajada bajariladi. Eng quyi darajadagi saqlash qurilmasi birni kodlaydi va prinsipal ravishda xar bir ma'lumotni diskdan ajratish uchun alohida amal bajarishni talab qiladi. Ushbu jarayon ko'p vaqt va mablaol talab qilgani uchun ham ushbu jarayon amaliyotda kamdan kam hollarda qo'llaniladi.

Jonli (live) ekspertiza raqamli sud ekspertiza tarmog'i bilan bog'liq bo'lib amalda sodir bo'lyotgan holatlarni tekshirilishi va tahlili bilan shug'ullanadi. Ya'ni biror o'zgarishsiz tizimning o'zida ma'lumotlarni tahlil qiladi. Bu hech qanday o'zgarishlarsiz va yo'qotishlarsiz dalillarning o'ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi.

Elektron dalillarga nisbatan ham xuddi an'anaviy dalillar kabi sud-ekspert ixtisosligidagi bir qancha ekspertiza turlari o'kazilishi mumkin. Masalan: *kompleks sud ekspeptizasi* o'tkazilganda har bir ekspert o'z faoliyati doirasida tekshirishlar olib boradi. Xulosada esa har bir ekspert alohida o'zining tekshirishlari natijasini kiritadi, qancha hajmda ish olib borganligini va qaysi holatda qanday fikrga kelganligini kiritadi. Qonunchiligimizga ko'ra, agar ekspert xulosasi yetarlicha asoslantirilmagan yoki asos qilib olingan dalillar ishonchli bo'lmasa va prosessual tartiblarga rioya etilgan holda olinmagan bo'lsa *qayta ekspertiza* tayinlanishi mumkin. Elektron dalillar qayta ekspertizaga topshirilganda dalillar boshqa ekspertga yoki ekspertlar komissiyasiga topshiriladi. Ekspert xulosasida elektron dalillar bilan bo'yicha tekshiruvlar o'tkazilgan vaqtda bo'shliqlar mavjud bo'lsa qo'shimcha ekspertiza ham o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasiining "*Sud ekspertizasi to'g'risida*"gi qonunining 9-moddasida tekshirish obektlari sifatida ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek sud ekspertizasi o'tkazilayotgan ish materiallari bo'lishi va tekshirishlar tirik odamga nisbatan ham o'tkazilishi mumkinligi keltirib o'tilgan⁶. Hozirgi kunda elektron dalillardan deyarli barcha jinoyatlarni fosh etishda qo'llaniladi va ularning ashyoviy dalillar, hujjatlardan farqli jihatlarini yuqoridagi paragraflarda tahlil qildik. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasiining "*Sud ekspertizasi to'g'risida*"gi qonunining 9-moddasiga qo'yidagicha qo'shimcha kiritishni taklif etamiz. *Ashyoviy dalillar,*

⁶ O'zbekiston Respublikasi "*Sud ekspertizasi to'g'risida*"gi qonuni <https://lex.uz/acts/1633102>

tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, ishga aloqador bo'lgan barcha elektron dalillar sud ekspertizasi o'tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo'lishi mumkin.

Har qanday prosessda ish tegrov harakatlarida dalillarni to'plash bilan boshlanadi. Agar dalillar noto'g'ri olingan yoki to'plangan bo'lsa, prosessni boshidan boshlashga to'g'ri kelishi mumkin. Hozirgi kunda ekspertlar raqamli dalillarni tahlil qilish uchun ulardan nusxa olyotganda EnCase dasturidan foydalanishadi va bu dastur qattaq diskdagi eng kichik elementlarni ham to'g'ri ko'chirishda samarali usul hisoblanadi. Ushbu jarayoni "aks ettirish" yoki "kriminalistik nusxalash" deb yuritiladi. Ushbu metoddan birinchi marta AQShning Ogayo shtatida foydalanilgan. Nusxa ko'chirishning hozirgi kunda boshqa usullari ham mavjud, ammo ular qattiq disklardan ma'lumotlarni to'liq nusxalamaydi va bu keyinchalik dalillarni baholashda va ularni qabul qilishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Raqamli axborot va dalillarning yuqori darajadagi nusxalarini olish kundan kunga rivojlanib bormoqda, ayniqsa sud tomonidan olingan elektron dalillarning nusxalari o'zgartirilmaganligini isbotlash uchun ularning xesh qiymatlari juda muhim hisobladi. Ulardagi qiymat orqali biz ma'lumotning to'laligini va uning manbaini autentifikatsiya qilaolamiz. Ma'lumotni uzatishda yoki saqlashda uning to'laligini nazorat qilish uchun har bir ma'lumotning xesh qiymati (bu xesh qiymat ma'lumotni autentifikatsiya qilish kodi yoki "imitovstavka"-ma'lumot bloklari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha kiritilgan belgi deyiladi) hisoblaniladi va bu qiymat ma'lumot bilan birga saqlaniladi yoki uzatiladi. Ma'lumotni qabul qilgan foydalanuvchi ma'lumotning xesh qiymatini hisoblaydi va uning nazorat qiymati bilan solishtiradi. Agar taqqoslashda bu qiymatlar mos kelmasa, ma'lumot o'zgarganligini bildiradi.

XULOSA

Elektron dalillar tushunchasiga yuridik fanda va qonunchilikda nazariyhuquqiy jihatdan yetarlicha ta'rif berilmaganligi hamda elektron dalilning mohiyati va mazmuni yuzasidan olimlar o'rtasida yagona yondashuv shakllanmaganligini ta'kidlash lozim. Bitiruv malakaviy ish davomida elektron dalillarning yuridik tabiatini tahlil qilib quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. *"Elektron dalil – bu axborot texnologiyalari orqali yaratilgan, uzatilgan, qayta ishlanadigan, saqlanadigan va hamda uni identifikatsiya qilishimkoniyatini beradigan raqamli ma'lumot"*.

Elektron dalil tushunchasini alohida tekshirish obyektlari qatoriga kiritish lozim, chunki ular boshqa obyekt turlaridan mutlaqo o'zining shakli va moddiy xossasiga ko'ra farq qiladi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasiining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunining 9-moddasiga va JPKning 175-moddasiga qo'yidagicha qo'shimcha kiritishni taklif etamiz: *"Ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek*

ekspertiza o'tkazilayotgan ish materiallari, ishga aloqador bo'lgan barcha elektron dalillar tekshirish obyektlari bo'lishi mumkin".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Rahbariy adabiyotlar:

1.1 Mirziyoyev Sh.M. Konsitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. T.O'zbekiston, 2019. 48-b.

1.2 Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasidan.

1.3 Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. –T.: O'zbekiston, 2017. – 48.b.

1.4 Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018-yil.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

2.1 O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 40-b.

2.2 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: "Adolat", 2020. – 672-b.

2.3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi "Jinoyat va jinoyatprotsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-sonli Qarori.

2.4 O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi "Surishtiruv institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-442-sonli Qonuni.

2.5 O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-675-sonli Qonuni.

III. Миллий адабиётлар, илмий мақола ва тезислар.

3.1 A.I.Rustamovich, B.Z.Karimov. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda raqamli ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanish: milliy va xorijiy tajriba. T.: Bosh prokratura akademiyasi. 2019. 74 b.

3.2 Jinoyat ishlari yurituvida dalillar nazariyasi. O'quv qo'llanma. yu.f.n. dosent M.X.Kadirova, o'qituvchi A.A.Xakberdiev – Toshkent: TDYU, 2020. - 212 b.

3.3 Jinoyat prosessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi //-T.: TDYU nashriyoti, 2021. -248 bet

3.4 Kadirova M.X. Dalillar nazariyasi. Darslik. – Toshkent: TDYU , 2022. - 303 b.

3.5 XamidovB.X., KarimovB.Z. Some issues in the development of the national cyber security strategy: problem and analysis. Europe, science and we | Evropa, veda my | Yevropa, nauka i mi Education and Science, Czech Republic. 2020. –P.63.

3.6 O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Toshkent. Adolat. 2010. 234 b.

3.7 O.Sh.Pirmatov. Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirishda elektron dalillarni blokcheyn dasturiga solishning zarurati. “Huquqiy tadqiqotlar” jurnali. – 2020.10.10.

3.8 B.X.Xamidov. Kiberjinoyatlarni tergov qilishda ekspert ko‘rsatuv-larini tekshirish va baholash.

IV. Хорижий манбалар.

4.1 Ranum, M. J.Landfield. Implememnting a generalized tool for network monitoring. Information security technical report 3, 4, 1998 pp 53-64.

4.2 Ranum,M. Network forensics: Network traffic monitoring, 1997, 70.

4.3 Antwi-Boasiako and Venter, 2017; US National Institute of Justice, 2004 International conference science and education/uluslararası konferans bilim ve eğitim. 2021. http://doi.org/10.37057/T_1 (155–158).

V. Интернетдан манбалари.

5.1 <http://www.lex.uz>

5.2 <http://www.regulation.gov.uz>

5.3 <http://www.norma.uz>

5.4 <https://proacademy.uz/postfiles/sets/f9/sd/index.html>

5.5 <https://www.cyberleninka.ru>

5.6 <https://hsti.uz/wp-content/uploads/2022/07/IPP-06.07.2022-LAST.pdf>

5.7 <https://www.duo.uio.no/bitstream/handle/10852/39023/THESISxDUO.pdf?sequence=1>

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЧЕЛОВЕЧЕСТВО

Алимова Нозима Раҳимҷонова

*Учитель профессионально-технического училища №1
Торакорганского района*

Аннотация: Искусственный интеллект позволяет компьютеру или роботу, управляемому компьютером, думать и принимать рациональные решения аналогично тому, как думают и действуют люди. Он заключается в анализе рукописных лиц с помощью искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, вес, нейронная сеть, база данных MNIST, база данных NIST.

ВВЕДЕНИЕ

Искусственный интеллект играет решающую роль в современном мире, обеспечивая автоматизацию, улучшая процесс принятия решений, повышая эффективность и производительность, а также создавая новые возможности для инноваций и роста в различных отраслях, включая здравоохранение, финансы, производство, транспорт, электронную коммерцию, образование и многие другие.

Искусственный интеллект (СИ; англ. Artificial Intelligence, AI) — область науки и техники, направленная на создание машин, способных имитировать человеческий интеллект.

Технологии искусственного интеллекта, широко используемые сегодня, включают интеллектуальные поисковые системы в Интернете (например, Google Search), системы рекомендаций (YouTube, Amazon и Netflix), понимание естественного языка (Google Assistant, Siri и Alexa), беспилотные автомобили (например, Waymo) и другие. Примеры.

ГЛАВНАЯ ЧАСТЬ

Алан Тьюринг был автором первых исследований, проведенных в области искусственного интеллекта. Искусственный интеллект как самостоятельная область науки был основан в 1956 году[3]. На конференции, состоявшейся этим летом в Дартмутском колледже, Джон Маккарти впервые использовал термин «искусственный интеллект» и вошел в историю как автор этого термина. Хотя исследования искусственного интеллекта проводятся с середины 20 века, общественный интерес к нему резко возрос в 2012 году, когда глубокое обучение продемонстрировало свое превосходство над другими методами искусственного интеллекта, а также в 2017 году, после достижений в области архитектуры преобразователей[4][5]. В начале 2020-х годов эта область стремительно

развивается, и многие компании, университеты и лаборатории добиваются значительных успехов в области искусственного интеллекта.

ЧТО ТАКОЕ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ? Искусственный интеллект — это особая отрасль информатики, которая занимается созданием компьютерных систем с возможностями, обычно связанными с человеческим разумом: понимание языка, обучение, обсуждение, решение проблем, перевод и подобные возможности. В настоящее время СИ состоит из алгоритмов и программные комплексы, предназначенные для выполнения различных операций и способные решать ряд задач, которые под силу человеческому разуму. В 1990-е годы открылась новая страница в развитии СИ. В 1997 году компьютер IBM под названием Deep Blue стал первым компьютером в истории, победившим чемпиона мира по шахматам Гарри Каспарова.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Его используют при создании и моделировании интеллектуальных информационных систем, нейронных сетей. К таким системам относятся системы управления, системы компьютерной лингвистики, системы распознавания, игровые системы и другие.

Ожидается, что в будущем нейронные сети и интеллектуальные информационные системы добьются многих успехов. Ожидается, что эти системы будут использоваться в различных областях, таких как робототехника, автоматизация, анализ данных и других. Такие системы будут очень важны при создании новых проектов и сервисов, выполнении различных задач и помощи или автоматизации борьбы с человеком.

Использованная литература

1. Башмаков А.И., Башмаков И.А. Интеллектуальные информационные технологии: Учеб. Разрешение. - М.: Изд-во МГТУ им. Н.Е. Баумана, 2005. 304 с. - (Информатико-технический университет). ISBN 5-7038-2544-X.
2. Бекмуратов К.А., Мамарауфов О.А., Бекмуратов Д.К. Искусственный интеллект. Методическое пособие для высших учебных заведений. Ташкент. Издательство «Наврӯз» ДУК. 2015. 366 стр. (UDK 004.8. ISBN: 978-9943-381-'08-
3. Бекмуратов К.А., Мамарауфов О.А., Бекмуратов Д.Г. Искусственный интеллект. :Текст лекций. Самарканд: Самаркандский филиал ТАТУ. Он был издан в типографии СамДУ. 2018. — 655 с. ISBN: 978-9943-997-51-
4. Бессмертный И.А. Художественный интеллект – СПб: СПбГУИТМОЮ, 2010. -132с.
5. Артикович, К.Р. Дильмурод, сын А. С. ТЕНДЕНЦИИ ПРИМЕНЕНИЯ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРАКТИЧЕСКИХ ОБЛАСТИ МОЛОДЕЖЬ, НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ 2022 Прага, Чехия, 85-91.

PEDAGOGIK KONFLIKTLAR VA ULARNI BOSHQARISH

Isaliyeva Iqboloy Maxsudovna

Toshkent viloyati Chinoz tumani 2-son kasb-hunar maktabi psixologi

Inson o'z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo'ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo'lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham bir tekis davom etavermaydi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz. Konfliktlar har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon hisoblanadi. Hech bir inson o'zini aniq ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muxofaza qilinganman deb aytolmaydi.

Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi.

Bolalik davrida o'yinchoqlarni talashish, birovlariga hasad qilish yoki o'g'il bolalarning janjallashganini ko'p kuzatgansiz. Mana shunday konfliktlar keyinchalik oilada, er-xotin, aka-uka, qaynona-kelin, yaqinlar, do'stlar, ijtimoiy guruhlar, turli kompaniyalar o'rtasida, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida shuningdek mehnat faoliyatida ham vujudga kelishi mumkin. Konfliktlar odatda, ko'p vaqt odamlar birga bo'ladigan hollarda, ular ma'lum muddat o'zaro birga bo'lishga majbur bo'lgan paytlarda ko'proq sodir bo'ladi.

Konfliktlarni o'z vaqtida aniqlash imkoniyati qator sharoitlar bilan izohlanishi mumkin. Masalan atrofdagi hodisalarni payqash, sezish xohishi. Ko'pincha konfliktni, konfliktli vaziyatning aniq elementlarini ko'pchilik payqab yetadi, biroq hech kim birinchilardan bo'lib e'tibor qaratishni hohlamaydi.

Konfliktlar kelib chiqishidan oldin konflikt signallari yuzaga keledi. Ayniqsa ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida bo'ladigan konfliktni o'qituvchilar, otanonalar va psixolog birgalikda uning signallari orqali aniqlab uni bartaraf etish mumkin.

Konflikt signallari: konflikt boshlanishidam avval tomonlar o'rtasidagi odatdagi to'g'ri munosabatlar o'rtasida kelishmovchilik, inqiroz, o'zaro tushunmaslik, g'ayirlik, ayirmakashlik vujudga kelayotganini namoyon etadi. Konflikt signallariga bee'tiborlik uning kelgusida rivojlanib keyishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar o'rtasidagi konflikt signallarini seza olgan maxoratli o'qituvchi uni boshqarib yechish usullarini ham bilishi kerak. Konfliktni yechishning uch hil usuli mavjud bular.

G'olib-Mag'lub

Mag'lub-Mag'lub

G'olib-G'olib

Shulardan eng muhim va maquli – G‘olib-G‘olib usulidir. Ammo ko‘pchilik konfliktida har ikki tomon ham g‘olib bo‘la olishiga umuman ishonmaydi. Chunki bizning ongimiz albatta bir tomon g‘olib bo‘lishi shart degan holatni qabul qilishga o‘rgangan. Konfliktning yechimini topish o‘z opponentiga qarshi kurash emas, balki uning maqsadlari va manfaatlarini tushunishga harakat qilishdir va shundan kelib chiqqan holda uning xohishlari bilan o‘z xohishlarini solishtirgan holda ikkala tomonga ham foydasi tegadigan y o‘lni topish aynan g‘olib-g‘olib usulidir.

Konfliktlarni boshqarishning bir necha usullari mavjud.

1. Moslashish va ko‘nikish usuli – “Qo‘y” Siz nima desangiz ham, men siz bilan hamfikrman. Bunday insonlar boshqalar bilan tinch va do‘stona munosabatni saqlab qolishadi. Ulardan hamma foydalanadi.

2. Bu mening ishim emas usuli – “Straus” Meni tinch qo‘yinglar meni hech narsa qiziqitirmaydi. Bunday insonlar konfliktning yechimini topish o‘rniga undan qochadi, ammo qo‘y usulidan farqli konflikt borligini tan olishmaydi.

3. Agressiv usuli – “Akula” Qani kim nima deydi? Kim menga qarshi chiqa oladi? Bu usulni qo‘llovchilar konfliktning yechimini topishdan ko‘ra har qanday vaziyatda g‘olib chiqishni avzal ko‘rishadi. Konfliktni kelib chiqqanda, rivoj topib, ildiz otgan paytdagina emas, balki uning ilk kelib chiqish davridanoq oldini olish samaraliroqdir.

SIFATLI TA'LIM O'ZBEKISTONNING POYDEVORI

*Muxammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali "KI" fakulteti tyutori
Qurbonov Feruz Yaxshimurodovich
Kasbi tumani 47-maktab Rus tili oqituvchisi
Mirzaqobilova Gulgina Abdusamad qizi
Muxammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali "KI" fakulteti
KI-11-23 guruh talabasi
Norboboyev Alibek Shuxrat o'g'li
Muxammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali "KI" fakulteti
KI-12-23 guruh talabasi
Islomov Tolib Orif o'g'li*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim tizimidagi o'rganilayotgan tahliliy vazifalar, ta'lim jarayonida amaliyotga tadbiiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim tizimini barqaror rivojlantirishda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, innovatsion, jarayon, vazifa, islohat, takomillashtirish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится обсуждаются реформы, реализуемые в системе образования, изучаемые аналитические задачи в системе образования, инновации, внедряемые в образовательный процесс, значение инновационных технологий, используемых в устойчивом развитии системы образования.

Ключевые слова: образование, обучение, инновационный, процесс, задача, реформа, совершенствование.

ABSTRACT

In this article, the reforms implemented in the education system, the analytical tasks being studied in the education system, the innovations implemented in the educational process, the importance of innovative technologies used in the sustainable development of the education system are discussed in this article. is spoken.

Keywords: education, training, innovative, process, task, reform, improvement.

Ta'lim sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi mavjud. Shu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z Murojaatnomasida ta'limni "Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya" deb ta'kidlagani chuqur strategik ega. Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida kelgusi yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni olti yo'nalish misolida aniq ko'rsatib o'tdi.

Ayniqsa, ta'lim sohasini yanada isloh qilish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash bo'yicha bildirilgan konstruktiv fikrlar e'tirofqa molik. Zero, rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayerda ta'limga, ilm-fanga yaxshi sharoit yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda har tomonlama yetuk va vatanparvar kadrlar yetishib chiqqan.

Vaholanki, ta'lim sifati kasbiy anglashning kompleks tavsifi, zamonaviy rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy taraqqiyot talablariga mos faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanadi.

O'qituvchining qo'lida kelajak taqdiri turadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqimizga qilgan murojaatida asosiy e'tibor Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilishi ta'kidlandi. "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi.

O'qituvchilarning maqomini, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash zarur" ligi qayd etildi.

Ha, yurt rahbari tomonidan kelayotgan yangi yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb belgilanishi bejizga emas. Yangi O'zbekistonimizda ilm-fanga e'tibor yuqori cho'qqiga chiqqan hozirgi davrda zamonaviy hayotni sifatli ta'limsiz va ilm-ma'rifat taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Jahonning yetakchi davlatlarida ham taraqqiyot ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilangandan keyin yuz berganligi sir emas. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liq.

Ta'limning sifatini oshirish uchun, avvalambor, bu sohadagi muammolarni o'rganish zarur. Ushbu muammolarni bartaraf etish esa ularni aniqlash va borligini tan olishdan boshlanadi. Hadisda aytilganidek: "Bilimlarga intilish har bir muslim va muslima uchun vojib" ekan, ilmga intilgan har bir insonga sifatli ta'lim berish ham juda-juda zarurdir.

Ta'lim sifatini oshirish, fan va texnologiyaning eng so'ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish asosida ijodiy tafakkurli, kasb-xunarli, tadbirli va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor, o'z javobgarligini his etadigan yoshlarni tayyorlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu o'z navbatida ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Ularni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Zero, uni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan natijani bermaydi, bugungi kunda o'qitishning an'anaviy ko'rinishidan farq qiladigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, o'qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Shu bois ham ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda o'qitishning an'anaviy texnologiyalari ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilgan ilg'or texnologiyalar bilan almashtirilmoqda.

Ta'lim sifatini oshirish hukumatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi soha mutaxassislari, mutasaddilari zimmasiga yuksak vazifalarni yuklamoqda. O'qituvchi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi va chuqur bilimlarga ega bo'lishi, balki ta'lim oluvchining hayotiy ehtiyojlarini tushunishi, barcha sohada namuna bo'lishi, najot nafaqat o'qitishda, balki yuksak sifatli ta'limda ekanligini chuqur anglamog'i lozim.

Bugungi shiddatkor zamonda sifatli ta'lim kelajak poydevori bo'lib xizmat qiladi. Asrlar osha dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan ilm-fanimiz kelajagiga bugun biz loqayd qarashimiz buyuk xatoyimiz hisoblanadi. Chunki bizga ota-bobolarimizdan me'ros bo'lib qolgan ilm-ma'rifatni, ta'lim rivojini shunchaki tashlab qo'ya olmaymiz va bunga haqqimiz ham yo'q.

Nega sifatli ta'lim kelajak poydevori deymiz? Bu ta'lim beruvchi maskanlarining muhimi vazifasi hisoblanib, bunda o'qituvchilarning roli beqiyos, chunki o'sib kelayotgan avlodga ta'lim-tarbiyani maktabdagi, kollej va litsey, shuningdek oliygoh o'qituvchilari beradi.

Bugungi kunda har bir o'qituvchi o'z ustida muntazam ravishda ishlamas, salohiyatli kadrlarni tayyorlash qiyin bo'ladi. Bilamizki, jamiyat hayotining katta qismini yoshlar tashkil etadi, bu yoshlarga ko'proq e'tiborni qaratish lozimligini anglatadi.

O'qituvchi nafaqat o'z kasbining ustasi, balki jamiyat hayotining barcha sohalaridan xabardor, keng doirada fikr-mulohaza yuritadigan mukammal shaxs bo'lishi, bugungi kunning qahramoni sifatida o'zini shakllantirishi shartdir.

Avvalo, har bir o'qituvchi dars o'tish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars tashkil etishi, turli xil qiziqarli va foydali metodik qo'llanmalardan foydalanishi kerak bo'ladi.

Har bir o'qituvchida o'quvchini psixologik tomondan tushunish layoqati shakllangan bo'lishi, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun o'z fanini, kasbini

sevishi joizdir. Bundan tashqari o'qituvchilarning bilim darajasini belgilovchi toifa hujjatlari bo'lishi kerak.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni qiziqтира olishi uchun zamonaviy texnologiyalar asosida dars tashkil qilish, o'quvchilarning qiziqishini inobatga olish, iloji boricha hayotiy misollar keltirish orqali, o'quvchilarni rag'batlantirish metodini ko'proq qo'llashi lozim.

Qachonki, o'quvchilarning qiziqishini inobatga olib dars tashkillashtirishga, faqat an'anaviy tarzda dars o'tishdan cheklanib, no'an'anaviy metodlar qo'llanilsa, ko'zlagan marralarimizga yetishga yaqin qolgan bo'lamiz.

Zotan, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashni eng muhim vazifaga aylantirish masalasi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunimizda ham aks etgan. Chunki yurtimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish, barcha kuch-g'ayratni birlashtirish va fidokorona mehnat qilish orqali Yangi O'zbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish mumkin.

Bu jarayonda qator omillarni hisobga olishimiz darkor. Avvalo, hozirgi o'ziga xos tub yangilanishlar davrini e'tiborga olish, jumladan, muttasil olg'a intilish, hayotni va tafakkurni isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish zarur. Bu yo'lda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun vatandoshlarimizning xilma-xil g'oyalari orasidan munosiblarini tanlab, ular asosida xalqimiz mentalitetiga har tomonlama mos keladigan, ommabop, nazariy, umumtarbiyaviy ahamiyatga ega nazariyani ishlab chiqish vazifasi turibdi.

Maqsadlarimiz ro'yobi uchun yurtdoshlarimizning o'zini anglashiga xizmat qiluvchi, milliy va umumbashariy tamoyillarni targ'ib etuvchi, ibtidosidan intihosigacha falsafiy mazmunga boy ta'limotga ega bo'lish istagini hisobga olish kerak. Bu ishlarni amaliyotga tadbiiq etishda islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etishi kerak, degan g'oyaga doim amal qilish ehtiyojini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, xalqimiz ma'naviy merosiga daxldor, ming yillardan beri amaliyotda o'z isbotini topib kelayotgan maqollar, hikmat va rivoyatlarda ulug'lanayotgan eng katta boylik aql-zakovat va ilm ekani behuda emasligini farzandlarimizga misollar orqali tushuntirish mas'uliyati zimmamizda turibdi. Zero, tarbiyasizlik ma'naviy qashshoqlikni keltirib chiqaruvchi omil ekani, bilimsizlik o'zbek xalqi va qadriyatlariga mutlaqo zid keluvchi axloqsizlik fenomeniga aylanayotganiga kunda-kunora guvoh bo'lyapmiz.

Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya mutanosibligini ta'minlashda qator omillarni nazarda tutish lozim. Fuqarolik mas'uliyati va zamonaviy dunyoqarashga ega barkamol avlodni tarbiyalash birinchi o'rinda turadi. Mana shu maqsad bizni

taraqqiyotning navbatdagi bosqichiga eltadi. Zotan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi ham tasodifiy emas, balki tub tarixiy qiyofamizni dunyoga namoyon qiluvchi omil ekanini unutmashlik darkor.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01. PF-60-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. Abdullayeva, G. A. (2020). THE IMPORTANCE OF MORAL NEEDS IN THE UPBRINGING OF THE INDIVIDUAL. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 463-469.
4. Абдуллаева, Ш. А. (2019). Педагогик диагностика. Тошкент: Университет, 310.
5. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26.
6. Бабашев, Ф. А. (2018). Реформы, нацеленные на дальнюю перспективу. Вопросы науки и образования, (1 (13)), 118-119.

ERTA YOSHDAGI BOLALARNI PARVARISH QILISH VA TA'LIMNING MUQOBIL HAMDA INNAVATSION MODELLARI

Joniyeva Tursunoy Boboxon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchi

joniyevatursunoy@gmail.uz

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, maktabgacha yosh, innovatsiya, ta'limning muqobil shakllari.

Mamlakatimizda ta'lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarni parvarishlash va maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim-tarbiyasi uchun muqobil o'qitish shakllarini joriy etish masalalari ham bir necha yillardan buyon ko'tarilmoqda. Dastlab maktabgacha yoshdagi bolalarni parvarishlash nima va qay tarzda amalga oshiriladi? kabi savollarga javob berish o'rinlidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tug'ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga (maktabga) tayyorlashdan iborat. Shundan kelib chiqib aytilish mumkinki, parvarishlash ham jismoniy jihatdan ham aqliy-psixologik jihatdan amalga oshirilishi lozim. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarning tarbiyaga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim.

Temperament – lotincha “temperamentum”, ya’ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davrlarining o’ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo’linadi: Go’daklik (1 yoshgacha); Ilk yosh (1-2 yosh); Ilk yosh guruhi (2-3 yosh); Kichik yosh (3-4 yosh); O’rta yosh (4-5 yosh); Katta yosh (5-6 yosh); Maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh).

Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to’qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o’taydi. Bu davrda ham bola ma’lum darajada tashqi muhit ta’sirida bo’ladi. Shuning uchun ham bu ta’sirning ijobiy bo’lishini ta’minlash lozim. Go’dakning vazni tug’ilgan paytda o’rtacha 3,5 kg, bo’yi 50 sm bo’lgan bo’lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo’yi 60 sm, 6 oylik bo’lganda esa taxminan 7 kg, bo’yi 64 sm bo’ladi. Bir yoshgacha bo’lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta’sirida bo’lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo’lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a’zolarini tanish qobiliyatiga ega bo’ladi. Shuning uchun ham go’daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo’lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo’lgan davrda dastlabki so’zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a’zolari go’dakni to’g’ri parvarish qilishni yo’lga qo’yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo’lmasliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to’g’ri talaffuz qilib, ularning nutqini to’g’ri rivojlantirish uchun keng yo’l ochishlari kerak. Oilada bolani tarbiyalashda ota-ona bilan bola o’rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hech qachon tarbiyani o’z holiga tashlab qo’ymasligi, ya’ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o’rganadi, kuzatadi va o’zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o’rganadi. Biz bolani nimaga o’rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz zarur, ya’ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta’minlaydi.

Ta’lim va tarbiyaning muqobil shakli bu — maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modelidir. Maktabgacha ta’lim muqobil shakllarini tashkil etishning maqsad va vazifalari quyidagilardir:

- bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish,
- maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalar ilg’or horijiy tajribani xisobga olgan holda davlat talablariga muvofiq xar tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart sharoitlar yaratish,
- bolalarni boshlang’ich ta’limga sifatli tayyorlash,
- uzoq hududlarda va qishloq joylarda yashovchi maktabgacha yoshdagi bolalarni teng huquqli sifatli maktabgacha ta’limga ega bo’lishini ta’minlash,

-davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktabgacha ta'lim soxasida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning moddiy –texnik bazasini mustahkamlash,

-Bola shaxsining asoslarini shakllantirish, unda bilimga qiziqishni rivojlantirish,

-MTT qurilishi imkoniyati bo'lgan uzoq qishloq joylari, tog'li tumanlar va borish qiyin bo'lgan aholi punktlarida kamxarj bo'lgan, bepul sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanshini ta'minlash,

-Maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish. Maktabgacha ta'limga ehtiyoji mavjud mahallalarda, shu jumladan qishloq joylarida maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini tashkil qilish va ularni zarur moddiytexnika vositalari bilan ta'minlash choralari ko'rish nazarda tutiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida rivojlanishining yoshiga bog'liq xususiyatlar juda ko'p va ahamiyatli. Bolaning rivojlanishida qanday rivojlanayotganligi yoshiga yarasha vazni, bo'yi, psixologik xarakteri, qobiliyati, tashqaridagi ma'lumotlari qay darajada qabul qilishi, nutqining o'sishi, so'z boyli bularning hammasi juda katta ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ilganidan to maktabgacha ta'lim yoshiga yetguniga qadar har tomonlama me'yor jihatidan rivojlanishi kuzatuv ostida bo'lishi lozim. Chunki, har tomonlama sog'lom bola davlatimiz kelajagi demakdir.

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi tendentsiyalariga eng mos keladigan ta'lim faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni qandaydir yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi.

Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular bolalarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Odamlar har doim noma'lum va yangi narsalardan qo'rqib ketishgan, ular har qanday o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lishadi. Ommaviy ongda mavjud bo'lgan, odatiy turmush tarziga ta'sir qiluvchi stereotiplar og'riqli hodisalarga olib keladi, ta'limning barcha turlarini yangilashga to'sqinlik qiladi. Odamlarning zamonaviy ta'limdagi yangiliklarni qabul qilishni istamasligining sababi qulaylik, xavfsizlik va o'zini o'zi tasdiqlash uchun hayotiy ehtiyojlarni blokirovka qilishdadir. Hamma ham nazariyani qayta o'rganish, imtihon topshirish, fikrini o'zgartirish, shaxsiy vaqt va pul sarflashga tayyor emas. Lekin

ta'limda innovatsiyalarni joriy etish va amaliy samradorlikka erishishdan also qo'rqmaslik va dadillik bilan faoliyat olib borish lozim. Maktabgacha ta'lim sohasida ham jadallik bilan innovatsiyalarni joriy etish lozim deb hisoblayman. Va o'zim amalda foydalanib ko'rgan Kyuer (QR) kodli manbalar (maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'llaniladigan qo'llanmalar va maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda samara beruvchi xalq og'zaki ijodi na'munalari joylangan resurslar)ni respublikamizdagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-onalar o'rtasida ommalashtirishni tasviya qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

qizi Joniyeva TB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //Jahon ilmiy qarashlari tahlili International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 6. – 25-34-betlar.

qizi Joniyeva TB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI //Jahon ilmiy qarashlari tahlili International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 6. – 14-19-betlar.

qizi Joniyeva TB XALQ PEDAGOGIKASINING AXLOQIY TARBIYALASH ISHLARIDAGI AHAMIYATI //OLTIN MIYA. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 28. – 121-125-betlar.

qizi Joniyeva TB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH TAJRIBA SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI //OLTIN MIYA. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 3. – 315-317-betlar.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Joniyeva Tursunoy Boboxon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

joniyevatursunoy@gmail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy sifatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalarning o'rni va ta'siri haqida bayon etilgan bo'lib, xalq pedagogikasi namunalarning aynan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan janrlarini tanlab olib, axloqiy sifatlarni shakllantirishda foydalanish mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Axloq, xalq og'zaki ijodi, maktabgacha yosh, tarbiya.

Axloq so'zi - lotincha «myeros», ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan axloq normalaridan norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan boladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvoriga rag'batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlariga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobining «Haqqoniyat» deb atalgan bobida rostlik va to'g'riso'zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb hisoblaydi. U bola tarbiyasida o'sayotgan shart-sharoit va tarbiyaning roliga alohida e'tibor beriladi. A.Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan. «Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir» - deydi mutafakkir A.Navoiy. A.Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarida odob, axloqqa oid g'oyalari ilgari surilgan. Insonparvarlik g'oyalari ulug'langan.

MTT (maktabgacha ta'lim tizimi)da xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda MTT pedagog-tarbiyachilar tomonidan bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo'nalishiga ko'ra rejalashtirish va tashkil qilish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

maqsadi, vazifasi va shakliga ko‘ra turli mashg‘ulot va uchrashuv, suhbat jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish; modellashtirish, ya’ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta’minlash bo‘yicha vazifalarni oldindan belgilash; yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud vaziyatlarga ko‘ra tarbiyalanuvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini nazorat qilish, ibrat, namuna ko‘rsatish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash asosida rag‘batlantirish.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda falsafiy, milliy-ma’naviy, psixologik, pedagogik yondashuvning mazmun va mohiyatini anglashga erishiladi, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ijtimoiy omillarning ta’sirini hisobga olish hamda ma’naviy - axloqiy tarbiyani o‘zida mujassamlashtirgan xalq og‘zaki ijodi namunalariga tayanish zarur.

Dunyo miqyosida ta’lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi mintaqaviy, submintaqaviy hamkorlikni yuksaltirish masalalarning yuzaga kelishi tufayli jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu, o‘z navbatida, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayanib, xalq og‘zaki ijodi namunalari rivojini fan va texnologiya yutuqlari bilan hamohang tarzda ilmiy tahlil qilish, bolalarni ijodkorligini rivojlantirish, strategik rejalashtirish bilan bog‘liq ko‘nikma-malakalarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xalq og‘zaki ijodi vositalaridan foydalanishning pedagogik mazmunini ishlab chiqish orqali badiiy adabiyot va tarbiya integratsiyasi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Respublikamizda har bir hududning badiiy adabiyot va madaniyati, xususan, milliy madaniyati, urf-odat va marosimlari, badiiy an’analarni tarkib qilish sirlarini bolalar ongiga singdirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

Yuqoridagi g‘oyalarga tayanib, fikrimcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xalq og‘zaki ijodi vositalaridan foydalanishning pedagogik mazmunini ishlab chiqish, o‘zbek xalqining madaniy merosini o‘rganishda va rivojlantirishda milliy o‘ziga xosligi, ma’naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogika an’analariga suyangan holda ish ko‘rilishi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Aytish o‘rinliki bugungi texnogen sivilizatsiya bolalar tarbiyasiga bevosita ta’sir etib, tajriba va kuzatuvlarmiz jarayonida guvohi bo‘lganimizdek, hatto yosh onalarimiz “mobil aloqa vositalari orqali murg‘akkina go‘daklarga milliy qadriyatlarimizdan biri sanalgan alla tinglatishayapti”. Bu esa, xalq pedagogikasining bola tarbiyasidagi boy tajribalari hayotga to‘la tadbiiq etilmaganligi, buyuk allomalarning pedagogik qarashlari, sharqona urf-odatlar, boy an’analari hayotga joriy etilmaganligi tarbiya borasida bir qancha qusurlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shundan kelib

chiqib aytishim mumkinki, Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, engilmas sarkarda va arboblarning jasoratini bolalik davridan boshlab yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir ¹" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

qizi Joniyeva TB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //Jahon ilmiy qarashlari tahlili International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 6. – 25-34-betlar.

qizi Joniyeva TB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI //Jahon ilmiy qarashlari tahlili International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 6. – 14-19-betlar.

qizi Joniyeva TB XALQ PEDAGOGIKASINING AXLOQIY TARBIYALASH ISHLARIDAGI AHAMIYATI //OLTIN MIYA. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 28. – 121-125-betlar.

qizi Joniyeva TB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH TAJRIBA SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI //OLTIN MIYA. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 3. – 315-317-betlar.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA BOLALARNI AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Joniyeva Tursunoy Boboxon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

joniyevatursunoy@gmail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy sifatlarini shakllantirishda xalq pedagogikasining o'rni va ushbu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, axloq, xalq pedagogikasi, innovatsion texnologiya

Ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, aqliy, ijtimoiy hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog'ligini muhofaza qilish, bolalarni erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ahloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol qilib maktab ta'limiga tayyorlash – maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining mahorati, bilimi va tajribasiga bog'liq. Buning uchun har bir pedagog xodim tinimsiz izlanishi va o'rganishi lozim. Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va tarbiyachi o'rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlar o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, bolalarning maqsadlari bilan to'qnash kelib qoladi. Axir bolaning ham o'z maqsadlari (hatto, strategik maqsadlari) bor. Bolaning rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish bo'lmaydi. O'qituvchi bilan o'quvchining maqsadlari bir-biriga mos kelsa, navbatdagi —to'siqlar|ni yengish uchun birgalikda vositalar izlansa, chinakam tarbiyaviy jarayon sodir bo'ladi. CHinakam mahorat turli-tuman vositalardan foydalana bilishdan ifodalanadi. Agar bunday mahorat yo'q bo'lsa, o'qituvchi bir vositaning boshqalaridan ustun bo'lishiga yordam berishi juda qiyin bo'ladi. Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tahlil qilib borish zarur. Har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar bilan bog'liq bo'ladi, ular pedagogik jarayonning muayyan bosqichida ta'sir ko'rsatish natijasini belgilab beradi desak mublag'a bo'lmaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish tarbiyachidan tegishli tayyorgarlikni talab etadigan ancha murakkab ishdir, tarbiyachi bolalarning psixologik-fiziologik rivojlanish darajasini, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ni, hamda

u asosida yaratilgan “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturini yaxshi bilishi kerak.

Pedagogik adabiyotlar tahlilidan bilamizki, xalqimizning ko'p asrli qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Maktabgacha ta'lim davridan boshlab bolalarimizga o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan katta madaniy meros, boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ismoil-al Buxoriy, al-Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Sa'diy Sheroziy, Axmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali bolalar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, do'stlik, ota-onaga sadoqatlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go'zal fazilatlarni qaror toptirishga ahamiyat berganlar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni hohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonida tarbiyalashi lozimligi bilishi kerak. Shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmashligi lozim. Bolalar yaqin kishilarining (ota-onasi, yaqin qarindoshlari, tarbiyachilarining) munosabatlarini yaxshi bilsa bu unga ishda yordam bersa, shundagina bola pedagogik ta'sir o'tkazishga ochiq va moyil bo'ladi. O'qituvchi-do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina bolalarlar o'zlarining ichki olamlarini ochib ko'rsatadilar. Yuqorida aytganimizdek, tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar - bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar - bilim va tajriba o'rganuvchi yosh avloddir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilim o'rgana olmaydilar. Demak, tarbiya usuli - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullarini tarbiya metodlari deb ham ishlatiladi. “Metod” so'zi grekchadan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).

2. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

3. Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).

4. Qoralash va jazo. (ta'hqirlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar.)²

Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayondan foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lib olamiz:

Suhbat va hikoya. Bolalar shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda tarbiyachining jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur guruh uchun dolzarbligi, bolalarda ahloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.

Hikoya. Bolalar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to'liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Suhbat ham, hikoya ham tarbiyalanuvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini bolalarning o'zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqi – shundan ta'minlanadi, bolalar mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. Bolalar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir.

Tarbiyachining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota – bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: "qush uyasida ko'rganini qiladi". Juda oddiy jo'ngina xulosa.

Topshiriq. Bolalarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. Bolalar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar. Mehnat qilish bolani xarakterini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Yuqorida bildirilgan fikrlaringa tayanib aytishim mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanishning pedagogik mazmunini nutq o'stirish, badiiy adabiyot mashg'ulotlarida ilk yoshdan boshlab buyuk ma'rifatparvar allomalarimizning o'chmas xazinasini namunalardan tanishtirib borish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ma'rifatparvarlarning maktabgacha ta'lim islohoti sohasida ilgari surgan g'oyalari, asosan, quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun savodga o'rgatish usulini o'zgartirish;
- o'qitishda ko'rgazmalilikka e'tibor berish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muayyan didaktik qurilishga ega bo'lgan, ta'lim amaliyotiga yaroqli, badiiy adabiyot va nutq o'stirish mashg'ulotlaridagi o'qitish metodikasi bilan ta'minlash;

- ta'lim islohoti g'oyalarini tarkib qilishda matbuotdan unumli foydalanish;

- ta'lim tizimida o'zgarishlarni amalga oshirishda jahondagi ilg'or tajribalardan foydalanish. Masalan, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida maxsus ravishda bag'rikenglik tamoyillariga, ayniqsa, jamiyatda uning a'zolari o'rtasidagi tenglik va o'zaro hamjihatlilik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Forobiy fikriga ko'ra, "Ma'lum xalq va butun insoniyat to'plab kelgan ma'naviy-milliy merosi, "ruhlari", ya'ni shaxslarning ma'naviyati, ongi milliylashib, bir-biri bilan qo'shilib boradi". Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ta'kidlanishicha, boshqa xalq, millatlar qadrini bilmagan odam o'z xalqi, millatining ham qadriga etmaydi. Olimning mazkur fikri bugun ham o'z dolzarbligi yo'qotmagan bo'lib, tolerantlik tarkibida millatlararo, xalqlararo munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniyat sifatida amal qiladi. Bugungi kunda islom dini qadriyatlaridan manfaatli foydalangan holda demokratik davlat qurishni tanlagan jamiyatlarda ilk yoshdan boshlab bolalarda tolerantlik tafakkurini shakllantirishdagi tarbiya tamoyillari va omillarini quyidagilardan iborat qilib belgilash mumkin:

– dunyoviy davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni sivilizatsiya talablari asosida tushuntirish;

–din zamonaviy fuqarolik jamiyatining to'la huquqli tarkibiy qismi ekanligini anglatish;

–sof diniy, xususan, islomiy bilimlar, ularni tarixiylik, qiyosiylik va tanqidiylik asosida sharhlashga o'rgatish;

–dinlar tarixini to'g'ri va ilmiy rivojlantirish;

– islom dini tarkibidagi tolerantlik tafakkurining evolyutsion taraqqiyotini amaliy va nazariy bilimlar majmui sifatida singdirish;

– ma'naviy bilimlar majmui sirasida diniy-axloqiy bilim, ko'nikma va normalarning o'rnini to'g'ri baholashga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanishning pedagogik mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mashg'ulot mavzusi va bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib foydalanishni taqozo etadi. Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi. She'riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va o'zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o'z tas'ir kuchiga ko'ra turlicha bo'ladi: hikoyalarda bolalar so'zlarning lo'ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she'rlarda o'zbekcha nutqning musiqiylikini, ohangdorligini ilg'aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko'rsatadi.

Bolalar badiiy ertaklar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg'ulari - bironing dardiga sherik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati uyg'ona boshlaydi. Bu printsiptallik, halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir. Hikoyalar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning hayolot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni ximoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar. Va albatta bolalar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarni o'qib chiqilgan ertaklar bo'yicha nasihatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy ertaklardan olishlari lozim. O'qib chiqilgan ertak bo'yicha haddan tashqari ko'p nasihat qilish katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmas ziyon yetkazadi: maydachuyda savollar bilan «sochib tashlangan» ertak bolalar ko'z o'ngida o'zining barcha jozibadorligini yo'qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'liq tayanish zarur.

Pedagog vaziyat yordamida bolalar bilan xalq hikoya va dostonlarini qahramonlarining qo'shiqlarini, qahramonlar ismlarini takrorlash, obrazli so'zlarni bolalar ongida mustahkamlashni amalga oshiradi, va ular buni o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar. Shuningdek, obrazga kutilmagan va qarama-qarshi yo'nalish beruvchi alohida so'zlar va jaranglashlar bilan o'tkaziladigan o'yinlar ham muhimdir. Pedagog bolalarning qofiya bilan o'yinlari, so'z ijodkorligi, she'ni davom ettirish va she'r to'qish, tashbehtar va taqqoslashlar o'ylab topishlariga asoslangan o'yinli hamda kulgili vaziyatlarini rag'batlantiradi. Masalan, adabiy ertaklar personajlarining xarakterini aks ettiruvchi yangi ifodali ismlarni, yoki ertakda obrazli tasvirlangan narsalar va hodisalar uchun yangi nomlarni o'ylab topish. Tarbiyachi bolalarning nisbatan yirik hajmdagi adabiy hikoyalar syujetlari asosida o'yinli «hayolotdagi olamni» yaratishlariga ko'maklashishi lozim. Masalan, yirik hajmdagi adabiy hikoya (mualliflik hikoyasi) bilan tanishtirishda u guruhga ushbu hikoyaning «hayolotdagi olamini» olib kirishi va bir necha kun mobaynida (sayrda, o'yinlarda) bolalar bilan birgalikda uning ichida «yashashi» mumkin. Estetik qabul qilish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun hikoyalarni mavzusiga qarab guruhlashdan foydalanish samaralidir. Bu bolalarga turli hikoyalarda tasvirlangan obrazning variativligini va uning bir hikoya doirasida rivojlanishini; aynan bir xil mavzu yo'nalishlarini ko'rib chiqishda kontekstlarni o'zgartirish, obrazli ifodalar turli shakllarining o'zaro bog'liqligini (so'z, harakat, tovush, tasvir) namoyish qilish imkonini beradi. Tarbiyachi bolalarning eng qiziq fikrlarini, ularning shaxsiy tajribasiga oid hikoyalarini, bolalar tomonidan o'ylab topilgan she'rlar va ertaklarni to'plashi lozim. Ushbu materiallar asosida bolalarning o'zlari tomonidan «kitob» yaratish ishlarini uyushtirish zarur. Bu

bolalar tomonidan to'qilgan ertaklar, shaxsiy tajribaga oid hikoyalar, qo'shiqlar, sanoq she'rlarning bolalar rasmlari bilan bezatilgan to'plami, qo'lyozma jurnali va komikslari bo'lishi mumkin. Guruhda o'qib chiqilgan, bolalar sur'atlari, variantiv syujetlar, improvizatsiyalar va to'qib, oxiriga yetkazishdan iborat bo'lgan u yoki bu adabiy ertaklar motivlariga oid «kitoblar» ham aynan shunday tarzda yaratilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bola san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san'at obrazlarini yaxlit va emotsional qabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab etishi bilan ajralib turadi. Chunonchi, yorqin va ritmik marsh musiqasini tinglar ekan, bola eng avvalo, uning ko'tarinki kayfiyatini qabul qiladi va uning muayyan xarakter xususiyati bilan aloqasini ilg'ab oladi. Badiiy qobiliyatlar tizimida emotsional munosabat bildirish va sensorlik qobiliyatlari bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi. U badiiy obrazlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularni tegishli hayot hodisalari bilan qiyoslaydi va o'zining birinchi umumlashtirmalariga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim: Turli janr va mavzulardagi adabiy ertaklarni – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni, she'riy folklorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emotsional munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini ko'zatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;

Bolalarni ayrim ertaklar va ularning aynan bir xil qahramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish;

Tarbiyachi bilan birgalikda tanish ertaklarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman sahnalashtirishga jalb qilish;

Bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik variatsiyalari uchun qulay sharoit yaratish;

Bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;

Yetti yoshga kelib bola:

O'ziga yoqqan nechta ertaklar nomlarini aytishi; senga qaysi kitob yoqadiq U nima haqidaq Bu ertakda kimlar haqida hikoya qilinadi. Bu ertakda yana kimlar bor. Ular nima qildilar. Bularning barchasi qanday tugadiq kabi savollarga javob bera olishi mumkin;

Sur'atlarni o'ziga tanish bo'lgan ertakdagi voqealar rivojiga qarab terib chiqishi mumkin. Agarda sur'atlar ichidan ortiqcha personajning sur'ati chiqsa, bola uni chetga olib qo'yadi, biroq pedagog iltimosiga ko'ra, agar ushbu qahramon ham ertakda ishtirok etsa nima ro'y bergan bo'lishi mumkinligini o'ylab topadi; O'zi xohlagan kichik she'r (ovunmoq) yoki ritmik tashkil etilgan matnni (bo'g'irsoq qo'shig'i, ertakning ayrim leytmotivlari) emotsional tarzda aytib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

qizi Joniyeva TB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //Jahon ilmiy qarashlari tahlili International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – Yo‘q. 6. – 25-34-betlar.

qizi Joniyeva TB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI //Jahon ilmiy qarashlari tahlili International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – Yo‘q. 6. – 14-19-betlar.

qizi Joniyeva TB XALQ PEDAGOGIKASINING AXLOQIY TARBIYALASH ISHLARIDAGI AHAMIYATI //OLTIN MIYA. – 2023. – T. 1. – Yo‘q. 28. – 121-125-betlar.

qizi Joniyeva TB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH TAJRIBA SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI //OLTIN MIYA. – 2023. – T. 1. – Yo‘q. 3. – 315-317-betlar.

PEDAGOGLARGA PSIXOLOGIK TAVSIYALAR BERISHNING DOLZARB VAZIFALARI

Rahimova Shoxsanam Dilmurodjon qizi
Andijon viloyati Shahrixon tumani Cho'ja qishlog'i
39-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmashligi xususida atroflicha mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, akademik, aniq davr, o'rta asrlar, pedagogik mahorat, kasbiy bilim, malaka oshirish, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, ma'naviyat, axloqiy madaniyat, nutq, jamiyat, ta'lim taraqqiyoti.

KIRISH

Pedagoglik kasbi, uning paydo bo'lishi va ravnaq topishining tarixiy jihatlariga nazar solar ekanmiz, pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liqligini anglaymiz. Terib-termalab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o'zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizini kavlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila va urug'ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar orqali ma'lumotlar berib, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o'zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo'lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralarda asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo'lishi, shuningdek, urug' jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg'or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

O'z davrining mashhur pedagog-gumanisti, chechlik yozuvchi Yan Amos Komenskiy o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o'qituvchilik "yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini yozib qoldiradi. Muallifning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Yan Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalardek muomala qiluvchi, ularda bilimga

havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqod fazilatlarining namoyon bo'lishi maqsadga muvofiq ekanligiga urg'u beradi. Taniqli rus pedagogi va adabiyotshunosi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligi to'g'risida o'z g'oyalarini fikrlarida ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi jarayon – o'qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi. Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi-bakalavr qiyofasida ijobiy fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak. So'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarni o'zida umumlashtiradi. Demak, o'qituvchi-bakalavr jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi, zamonaviy o'qituvchi sifatida ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan doimo xabardor bo'lishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega, o'z ustida tinimsiz izlanishi, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi, ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga hamda ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi, yuksak darajadagi pedagogik mahorat, jumladan, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika – nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest kabi jarayon qoidalarini chuqur o'zlashtirib olgan bo'lishi, nutq madaniyatiga amal qilishi, ya'ni uning nutqida jozibadorlik, aniqlik, to'g'rilik, ravonlik va turli dialektal so'zlardan holilik aks etgan bo'lishi, shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatning tarkib topishiga erishishi zarur. U eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi darkor. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yana-da boyishiga ishonch bildirishi u bilan ijobiy munosabat o'rnatishga

imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi kasb etikasi nuqtayi nazaridan talab va qoidalarga kiradi. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishni o'zining kasbiy burchi, deb bilishi kerak. Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida rivojlanib boradi. Yosh, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta'minlanadi. Jumladan, mustaqil o'qib-o'rganish, ya'ni pedagogika olamida ro'y berayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi ilmiy adabiyotlar, Internet materiallari, bosma ommaviy axborot vositalarida chop etilayotgan xabarlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni o'qib tahlil qilish va umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash bo'yicha o'z ustida doimiy izlanish olib borishi kerak. Respublikamiz misolida oladigan bo'lsak, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi Bosh ilmiy-metodik markaz qoshida tashkil etilgan Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq hamda mintaqaviy markazlarida kasbiy malakalarini oshirish, xalq ta'limi tizimi bo'yicha esa Xalq ta'limi vazirligi tasarrufida bo'lgan Abdulla Avloniy nomidagi malaka oshirish instituti hamda Respublika ta'lim markazlarida o'z malaka va ko'nikmalarini oshirib borish, doimiy ravishda ilmiy anjumanlar – nazariy va amaliy konferensiya va seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglarda faol ishtirok etish, O'zbekiston va rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o'rganish yoki stajirovka o'tash orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagi kabi talablar asosida pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchining jamoadagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat hissi shakllanib boradi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish – pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

О'z davrlarida Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o'zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'limtarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari zamirida bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarning hayotda mavjudligini ta'minlash yo'lida qudratli vosita ekanligiga ishonch hosil qildira olishda o'z aksini topadi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini o'zida aks ettirgan yangi va o'z o'rnida xalqchil muhim yuridik hujjat bo'lib, mamlakatimiz ta'lim sohasining istiqboli uchun yo'llanmadir. Mazkur Qonun g'oyalarini amalga oshirish jarayonida pedagog kadrlar muhim rol o'ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'la olishi maqsadga muvofiq sanaladi. Qolaversa, bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan jamiyatda o'qituvchi va murabbiylarning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilmoqda. Mamlakatimizda xususiy ta'lim muassasalariga keng sharoit yaratilayotgani bois eksperiment tariqasida kam quvvatda ishlayotgan maktablarni tanlov asosida salohiyatli talabgorlarga ishonchli boshqaruvga berish takliflarining bildirilayotganligi, shuningdek, ta'limning ushbu jarayoniga Davlat rahbari darajasida qaratilayotgan e'tibor – biz kabi bo'lajak pedagoglarga ham pedagog shaxsi va unga qo'yilayotgan talablarga mos tarzda sifatli ta'lim olib, o'z ustimizda tinim bilmay ishlashimiz uchun mas'uliyatli davlat hisoblanadi. Zotan, yurtimizning kelajak avlod vakillarini ayni vaqtda biz kabi oliy ta'limda tahsil olayotgan yosh pedagoglar tarbiyalaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 30-oktabrdagi “Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi;
3. Azimova T. Pedagogik-psixologik tashxis va uning o‘quv jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent. 2017.
4. Ziyamuhammedov B. Pedagogika. – Toshkent. 2014.
5. Omonov, A. O. O., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O‘RGANISHDA FRIGIYA PODSHOLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
6. Turg‘Unboyeva, M., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O‘QITISHDA “O‘TTIZ YILLIK URUSH” NING AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).

О`QUVCHILAR DIQQATINI JALB QILADIGAN METODLARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Botirova Munavvar Mahmudjonovna

Farg'ona shahar 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonida mavzu yuzasidan dars samaradorligini oshirish uchun faol bo'lgan metodlar haqida fikr yuritiladi. O'quvchilar diqqatini jalb qila olish o'qituvchi mahorati bilan o'lchanadi.

Kalit so'zlar: dars, "gugurt qutichasi", barqarorlik, hissiy, idrok, fikr, o'qituvchi, o'quvchi ta'lim.

KIRISH

Dars - ta'limni tashkil etishning muhim shakli. Unda sinf-dars tizimining barcha imkoniyatlari namoyon bo'ladi, unda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini anglashi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars bevosita o'qituvchi boshchiligida aniq belgilangan vaqt mobaynida muayyan o'quvchilar guruhi bilan tashkil etiladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli hisoblanadi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning dars jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish, dars mavzusiga diqqat-e'tiborini jalb qila olish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi.

O'quvchilar uchun mavzu kengligini oshirish, yodda chuqur eslab qolish psixologik jihatdan diqqat bilan bog'lanadi. Belgilangan vaqt davomida o'quvchi butun diqqatini mavzuga dars jarayoniga qaratishi, birinchi o'rinda, o'qituvchi mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Psixologik jihatdan diqqat tushunchasi juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'quvchilar bilimi kengayishi uchun muhim tushunchasidir. Diqqatning barqarorlik, ko'chuvchanlik, bo'linuvchilik kabi xususiyatlari, ko'lami kabi omillari uning doirasini kengaytiradi. Diqqatning barqarorligi uning yagona, umumiy (masalan, kitob o'qish, masala yechish kabi) ishga xizmat qiluvchi narsa yoki hodisaga uzoq muddat jalb bo'la olishidan iborat. Ko'chuvchan diqqat bir faoliyatdan yoki narsadan boshqa faoliyat yoki narsaga tez jalb bo'ladi. Bu xususiyat diqqatning avvalgi narsaga qay darajada qaratilganligiga va yangi faoliyatning xususiyatiga bog'liq. O'quvchilar dars mavzusi yuzasidan butun e'tiborlarini mavzuga qaratishi uchun bugun fan tizimlarida interfaol metodlar shakllanmoqda. Bu metodlar dars va bilim nazariyasining amaliy jihatlarni

rivojlantiradi. Jalb qila oladigan metodlar sirasiga bir qancha metodlarni kiritishimiz mumkin.

“Qarorlar shajarasi” metodi. “Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari haqidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirib, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Bu metod yuzasidan diqqat ko‘lami uning eng qisqa vaqt ichida (go‘yo birdaniga) o‘z doirasiga sig‘dira olishi mumkin bo‘lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Kuzatishlar mobaynida o‘quvchilarning dars davomidagi aqliy faolligini ta‘minlash va diqqatini mavzu materiallariga qay tarzda jalb qilish tadqiq qilindi. Olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar oqibatida o‘quvchilar diqqatini o‘qish materiallariga qaratishning quyidagi usullari aniqlandi:

1. Darsni o‘quvchi qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish.
2. Darsni qiziqarli o‘yinlar bilan bog‘lash.
3. Rang-baranglikka intilish.
4. Rag‘batlantirish.

Bu kabi usullar dars jarayonini ,o‘quvchilar diqqatini murakkabroq qaratishga yordam beradi. Bilamizki, o‘quvchi o‘zi uchun qiziq bo‘lmagan ma’lumotlarga diqqat qaratmaydi. O‘qituvchi mavzuni yuksak mahorat bilan, ustalik bilan o‘quvchilarga tushuntirsa, o‘quvchining butun diqqatini jalb qila oladi. Bu ayni haqiqat. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchilar qiziqishlaridan xabardor bo‘lishi lozim. Bu bilan o‘quvchining diqqatini jalb qilgan holda mavzu materiallari o‘rgatiladi.

Dars davomida darsni qiziqarli o‘yinlar bilan bog‘lash ham diqqat imkoniyatini yuksaltiradi. “ Ixtiyoriy diqqat, ayniqsa, o‘qitishda katta ahamiyatga ega, dars o‘zlashtirish ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Chunki o‘qish nafaqat jiddiy mehnat, balki ko‘p mashaqqatli ishdir. Shuning uchun u irodaga suyanadi. Ammo o‘qishni faqat ixtiyoriy diqqat asosidagina o‘tkazish o‘quvchilarni tez charchatib qo‘yadi. Shu sababli o‘qishga qiziqtirish, darsni qiziqarli qilib o‘tish kerak”. Mohir pedagogga qo‘yilgan talablardan biri bu - dars ma’lumotlarini qiziqarli o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirish. Shuning uchun o‘qituvchi bisotida qiziqarli o‘yinlar va metodlar ko‘p bo‘lishi zarur. Masalan, oddiygina bor bilan ham qiziqarli o‘yin o‘tkazish mumkin. O‘quvchilardan oddiy tarzda o‘tilgan mavzular bo‘yicha ma’lumotlarni so‘rash ancha zerikarli. Buni qiziqarli tarzda o‘tkazish mumkin. **Izlanish metodi.** Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o‘quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo‘llaniladigan usuldir. O‘qish darslarida reproduktiv metod keng qo‘llaniladi. Masalan, o‘qituvchi dastlabki darslarda o‘zi asar matnini qismlarga

bo'ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko'rsatadi, o'quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni ochib, o'quvchilarga ko'maklashadi. Shundan so'ng o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmalari yordamida yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni o'zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, o'quvchilar diqqatini kengroq jalb qilish uchun zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan "Aqliy hujum", "Tarmoqlash", "Guruhlar bilan ishlash", "Blis texnologiyasi" kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qollash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak. Yozuv taxtasiga katta qilib aylana chizamiz va buni qora oyna deb tasavvur qilamiz. Bu oynaning narigi tomonida barcha bilimlar jamlangan. Oynani sindirish va bilimlarni chiqarib olish zarur va buni bajarish uchun o'quvchilardan yordam so'raladi. Har bir o'quvchi bitta ma'lumot aytadi va oynaga "X" belgisini chizadi. Aylana "X"larga to'lgandan keyin oyna parchalanadi va bilimlar chiqarib olinadi. Bu jarayonda nafaqat o'quvchining diqqati darsga jamlanadi, balki bilimlari mustahkamlanadi. Yana diqqat jalb qilish imkoniga ega metodlardan bir qanchasini aytishimiz mumkin.

1. Dars jarayonida rangli materiallardan foydalanish.
2. Darsda bir xillikdan uzoqlashib, turfa xil metodlardan foydalanish, darsni turli xil usullarda o'quvchilarga tushuntirish.

Ranglar inson miyasiga juda katta ta'sir qiladi. Agar o'qituvchi mavzu ma'lumotlarini rangli qog'ozlarga yozib, o'quvchilarga tushuntirsa, ranglar o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qiladi. O'quvchilar avval rangga e'tibor bergan holda, keyin qog'ozdagi ma'lumotlarga e'tiborini qaratadi, o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida shunisi aniq bo'ldiki, ushbu rangli qog'ozlarga yozilgan ma'lumotlar oq qog'ozga yozilgan ma'lumotlardan ko'ra ko'proq o'quvchi diqqatini jalb qiladi hamda xotirasida tez va oson saqlanib qoladi.

Rag'batlantirish metodi orqali o'qituvchi dars davomida juda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. O'quvchilarning diqqatini mashq qildirishga doir mashqlar:

1. Gugurt qutichasi biografiyasini esga tushirish.
2. 5 sekundlik qisqa e'tibor bilan stol ustida yotgan barcha buyumlarni ichki nazar bilan "suratga" olishni buyurish.
3. Buyumlarni "suratga oling". Ko'zni yumishga komanda beriladi. Pedagog buyumlarni aralashtirib yuboradi va sinaluvchidan buyumlar oldin qanday yotgan bo'lsa, ularni shunday qo'yib chiqishini so'raydi.

O'qituvchi o'quvchilardan birini tanlab oladi va stol ustidagi o'zgarishlar haqida so'raydi. O'quvchi og'zaki aytganidan so'ng boshqa o'quvchilar uning xatosini to'g'irlashadi. O'qituvchi stol ustidagi buyumlarni o'z o'rniga qo'yishini o'quvchidan so'raydi, agar, o'quvchi bu safar ham xatoga yo'l qo'ysa, u buyumlarga e'tibor bermaganligi aniq bo'ladi, yana shunday jarayonda o'quvchi bu xatoni takrorlamasligi uchun pedagog unga qo'shimcha vazifa berishi yoki "jarima"ga tortishi kerak. Vaziyat bo'yicha o'quvchini jazolash yoki rag'batlantirish: diqqatni tortishga, yanada e'tiborli bo'lishga, bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishga va ta'lim sifatining oshishiga yordam beradi. Faqatgina diqqat bilan emas, balkim, xotira bilan ham ishlashimiz kerak. Diqqatning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishdagi alohida rolini, ayniqsa K.S.Stanislavskiy aniqlab bergan. "Diqqat sovuq, mulohazakor diqqat emas, balki hissiy, faol diqqat- barqaror diqqat holatini uyg'otishga yordam beradi". Diqqat ko'p tomonlama bo'lmog'i kerak. Ijodiy pedagogik diqqatning quyidagi xususiyatlari mavjud: ko'p obyektivlik, jo'shqinlik, amaliy barqarorlik; U aqlli, hissiy va irodaviy xususiyatlarga ham egadir.

Katta yoshdagi kishida diqqatning hajmi 4-6 obyektga yetadi. Shuning uchun obyektlar soni ko'paygan sharoitda mashq qilmagan kishining nazorati yo'qolishi mumkin, sarosimaga tushish holati boshlanadi. Tabiiyki, bolalarda ham nazoratni yo'qotib qo'yish holatlari uchraydi. Yosh bolalarda diqqatning hajmi 3-4 yoki 5 obyektga yetadi. Bolalarning diqqati hajmining ortib borishi ularni parixonxotirlikka, jizzakilik, sabiylashish kabi holatga, darslarni bo'sh o'zlashtirishga yoki umuman darsga e'tibor bermaslikka olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarning diqqatini torta olmagan o'qituvchi darsning sifatini maksimal darajaga yetqaza olmaydi. Diqqat nafaqat psixik jarayon, balkim, o'qish sifatini oshiradigan, talim olish va tarbiyalanish jarayonining mustahkamligini ta'minlab beradigan muhim omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev.Sh.M: ta'lim-tarbiyaga jarayoniga investitsiya kiritishga oid g'oyaviy so'zlaridan.2020
2. Xaydarov.I.F, Xalilova.I.N: Umumiy psixologiya darsligidan.2009
3. Toxirova.G:"Yosh va pedagogik psixologiya"2016
4. Abdullayeva Q. va boshqalar "O'qish ktobim" 2- sinf,T. 2006 yil
5. Abdullayeva Q., va boshqalar "Savod o'rgatish darslari" T,
6. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
7. Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili" T., "O'qituvchi "1999 yil.
8. Bo'ri Ziyamammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya- zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
9. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti, 2008 yil.

AL-BIDOYA VA-N-NIHOYA ASARINING DUNYO KUTUBXONALARIDAGI QO'LYOZMA NUSXALARI

Maxamadaliyev Musoxon

O'zbekiston Xalqaro islom Akademiyasi 2-kurs magistranti:

musohonmahamadaliyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Al-Bidoya va-n-Nihoya” asarining tarkibiy tuzilishi va yozilgan tarixi haqida ma’lumot berilgan. Bunga qo’shimcha ravishda ushbu asarning qo’lyozma nusxalari saqlanayotgan kutubxonalar haqida ham ma’lumot berib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Ibtido, Intixo, Arsh, Payg’ambarlar tarixi, Oddiy nusxa, Qadimiy nusxa, Qiyomat alomatlari, Dar Ibn Kasiyr Nashriyoti

“Al-Bidoya va-n-Nihoya” arabcha البداية والنهاية („Ibtido va Intiho“) yoki „Tarixi Ibn Kasiyr“ („Ibn Kasiyr tarixi“)- ahli sunna olimi Ibn Kasiyrning islom tarixiga oid yirik hajmli asardir. Ibn Kasiyrning mazkur asari islom tarixiga oid eng mo’tabar manbalardan biri hisoblanadi. Kitobning o’ziga xos jihati shundaki, unda nafaqat o’tmish hodisalari, balki Payg’ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam zikr qilgan kelajakdagi voqealar haqida ham ma’lumot berilgan. Kitobning turli jildlarida islom ta’limotiga ko’ra, inson yaratilishining va uning yer yuziga yuborilishi, payg’ambarlar hayoti, sahobalar davri va hijriy VIII asrgacha bo’lgan voqealar haqida so’z yuritiladi. Oxirgi jildda musulmonlar e’tiqodiga ko’ra, odamlar jannatga yoki jahannamga kiradigan vaqt, ya’ni qiyomat kunining alomatlari kabi kelajak voqealari haqida aytib o’tilgan. Ushbu kitob islom tarixi bo’yicha muhim qo’llanma vazifasini o’taydi. Ibn Kasiyr ishonchli va birlamchi manbalar asosida ko’plab ma’lumotlarni to’plashga muvaffaq bo’lgan. Asar ingliz va yana ko’plab tillarga tarjima qilingan. Ushbu asar Mamlukiylar davrida yozilgan asar hisoblanib, o’n to’rt jilddan iborat arab tilida yozilgan yirik tarixiy asarlardan biridir. Asar hijriy 768-yilda ilk bora yozib tugatilgan bo’lib, sahifalar soni 10125ni tashkil etgan. “Ibtido va intiho” keng qamrovli asar bo’lib, bir necha qismdan iborat; unda hamma narsaning (jumladan, jinlar, farishtalar, Arsh va Odam alayhissalom) yaratilishidan tortib, «qiyomat kuni»gacha bo’lgan «muqaddas voqealar» bayon etilgan. Al-bidoya v-n-nihoya kitobi Ibn Kasiyrning o’z kuzatishlariga asoslangan. U salibchilar va musulmonlar o’rtasidagi kurash davrida yashab, ko’rganlarini tasvirlab bergan. Tabiiyki, u asarida musulmonlar pozitsiyasini himoya qilgan. "Al bidoya va-n-nihoya" asari islom tarixi bo’yicha eng mashhurlaridan biridir. [Tarixiy yozuvlar](#) bilan islom dunyosini yoritib berilgan asardir. Unda tarixdagi eng muhim voqealar tasvirlangan. Ibn Kasiyr o’z kitobida tarixiy voqeliklarni tasvirlab beruvchi Qur’ondan parchalarni tez-tez keltiradi.

Asarning qo'lyozma nusxalari haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, birinchi qo'lyozma nusxasi Ahmadiya nusxasi hisoblanib, Halabda 1217-raqam ostida "A" harfi bilan belgilangan holda turibdi. hozirda Damashq Al-Fayhadagi Al-Assad Milliy kutubxonasida (Al-bidoya) nomi bilan saqlanmoqda. Hofiz Ibn Kasiyr tomonidan yozilgan va u o'n qismga bo'lingan:

Birinchi qism: (292) sahifa - o'lchami 21.5 x 30 sm, har bir sahifa (29) qator, shifr raqam: 14508

Ikkinchi qism: (250) sahifa - 21,5 x 31 sm o'lchamda har bir sahifa (25) qator shifr raqam: 14508

Uchinchi va to'rtinchi qism: (556) sahifa - 24,5 x 15 sm o'lchamda har bir sahifa (23) qator, shifr raqam: 14510.

Beshinchi qism: (178) sahifa - 27 x 18 sm o'lchamda har bir sahifa (29) qator, shifr raqam: 14511

Oltinchi qism: (239) sahifa - o'lchami 27 x 18 sm, har bir sahifada (25) qator bor, raqam: 14512

Ettinchi qism: (224) sahifa - o'lchami 27 x 18 sm, har bir sahifada (23) qator bor, soni:

Sakkizinchi qism: (283) sahifa - o'lchami 27 x 18 sm, har bir sahifada (25) qator, raqam: 14514

To'qqizinchi qism: (356) sahifa - har bir sahifada 27 x 18 sm o'lchamdagi (27) satr, raqam: 14515

O'ninchi qism: (283) sahifa - har bir sahifada (27) satr 29 x 19,5 sm o'lchamda, shifrt raqami: 14516

Al-bidoyai Ahmadiya rivoyatida hijriy 738 yilda vafot etganlar bilan tugaydi. 738-hijriy yilga to'g'ri kelgan Ahmadiya nusxasi to'liq bo'lib, sarlavhalar va bandlar sarlavhalari to'g'rilangan va qizil rangda, nusxasi: oddiy nusxa. Biz nusxa ko'chiruvchining ismini yoki nusxa ko'chirish sanasini topmadik. Muqovasi – bezatilgan.

Ikkinchi nusxa – Berlin nusxasi:

U (B) harfi bilan ifodalanadi va u Berlin Milliy kutubxonasida saqlanadigan nusxa bo'lib, u mulklar ko'rsatilgan sahifadan boshlanadi va ikkinchi sahifada kitobning nomi quyidagicha bo'ladi: Buyuk olim Imodaddin, Abu al-Fido, Ismoil Ibn Kasiyr - rahimahullohning "Al bidoya va-n-nihoya" asari.

Sahifaning o'ng tomonida tarixni madh etuvchi uchta bayt bo'lib, ko'chiruvchi olim Shamsiddin as-Saxoviy Ibn al-Javziyning "Vaqt ko'zgusi" asaridagi Qozi al-Ardaliyning gapidan iqtibos keltirgan. U birinchi qismning boshidan boshlanib, hijriy 738-yilda o'lim bilan tugaydigan nusxa bo'lib, uning hoshiyalarida sharhlar bo'lib, unvon va band boshlari boshqa rangda yozilgan. Nusxasi qadimiy nusxa, (780)sahifa

- o'lchami 20 x 13 sm, har bir sahifada (30) satr Muhammad bin Sulton Al-Baali Al-Hanbaliy tomonidan yozilgan. Biz nusxa ko'chirish sanasini topa olmadik.

Uchinchi nusxa – Zohiriyya nusxasi:

Damashqdagi Al-Asad Al-Vataniyya kutubxonasida, shirf raqami: 6797 va (Z) harfi bilan ko'rsatilgan.

Bu to'liq bo'lmagan nusxa bo'lib, 31 x 20 sm o'lchamdagi (154) sahifadan iborat bo'lib, har bir sahifada (31) dan (33) gacha satrlar qizil, sariq va qora rangda hoshiyalangan, varaqlari qizil siyoh bilan yozilgan. Habibulloh ibn Qamariddin tomonidan yozilgan. Ko'chirilgan sanasi hijriy 1181 yil bo'lib, yozuvi yaxshi. yolg'iz Allohga hamdlar bo'lsin. Oltin suvi bilan bezatilgan egadori esa: Ahma ibn ibrohim ibn Nasr hijriy 1227.

To'rtinchi nusxa: Robot nusxasi.

Bu kitob professor doktor Bashar Avad Maruf tomonidan Rabotdagi qirollik xazinasidan topilgan. Hasanning halifaligi bilan boshlanib, ummaviylar halifaligi tugashi bilan tugaydi. . nu manba tarixiy manba deb hisob qilinadi. Doktor Bashar bu kitobni ko'rib chiqayotganda ko'plab foydalarni topgan.

Xulosa qilib aytganda, Dar Ibn Kasiyr nashriyoti Qatar Davlatining Vaqflar va islom ishlari vazirligiga va Taftish va Tekshirish Qo'mitasiga ko'rsatgan qimmatli sa'y-harakatlari uchun samimiy minnatdorchilik bildiradi. ushbu nashrni ko'rib chiqishda, kamchiliklarni tuzatib va etishmayotgan qismlarni to'ldirishdi The Dar nashriyotdagi ilmiy qo'mita kitobxon uchun kitobni tushunishda ko'mak beradigan ba'zi foydali ma'lumotlarni xoshiyasiga qo'shib, bu o'lchamdagi (20 x 28 sm) birinchi nashrni taqdim etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Dar Ibn Kasiyr nashriyotining 2021-yilda chiqargan "Al-Bidoya va-n-Nihoya" Asarining 7-nusxasidagi 86-87-88-betlardan tarjima.

О‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR TEJAMKORLIKNI BOSHQARISHNING IQTISODIY YO‘LLARI

O‘rinova Umida Qodirjonovna

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi
“Biznes va tadbirkorlik oliy maktab” magistratura talabasi*

Annotatsiya: Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari jadal ravishda rivojlanib kelmoqda. Butun dunyoda qayta tiklanadigan energiyaning rivojlanishi notekis taqsimlangan. Qayta tiklanadigan energiyaning eng tez rivojlanishi energiya importiga qaram bo‘lgan va energiya tariflari yuqori bo‘lgan mamlakatlarda sodir bo‘lmoqda. Shu bilan birga, qayta tiklanadigan energetika yaqin kelajakda barcha mamlakatlarning, shu jumladan qazib olinadigan yoqilg‘i zahiralari hali ham boy bo‘lgan mamlakatlarning energetika sohasida muhim o‘rin egallashi haqiqatdir. Ushbu maqolada O‘zbekiston quyosh energiyasidan foydalanish uchun iqlimiy jihatdan qulay bo‘lgan mintaqada joylashgan. Shuning uchun u milliy elektr energiya balansida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish darajasini belgilovchi asosiy omillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: elektr energiya, yoqilg‘i, qayta tiklanadigan energetika, iqlim, investitsiya, innovatsiya, moliyaviy qo‘llab -quvvatlash.

O‘zbekiston Respublikasi energetika siyosatining asosiy maqsadi IEM sohalarining optimal ishlashi va rivojlanishining mexanizmini shakllantirish va yo‘llarini qidirishdan iborat hamda atrof – muhit ekologik xavfsizligini saqlagan holda, rivojlangan Yevropa davlatlari yuqori hayot darajasi va sifati standartlariga yetishish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan, aholi va iqtisodiyotning barcha sohalarini ishonchli va samarali energiya bilan ta‘minlashni texnik amalga oshirishdan iborat.

Yoqilg‘i energetika majmuasi (YoEM) aholi hayot darajasini ko‘tarish va iqtisodiyot ishlashini ta‘minlaydigan O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligining eng muhim strukturasi tashkil etuvchisidir. YoEM o‘z ichiga energiya tashuvchilarning barcha turlari: gaz, neft va uni qayta ishlash mahsulotlari, qattiq yoqilg‘i, elektr va issiqlik energiyalarini qazib olish, uzatish, saqlash, ishlab chiqarish va taqsimlashni oladi. Majmua sohalari respublika xalq xo‘jaligida muhim o‘rin egallaydi.

Elektr energetika – strategik soha bo‘lib, uning holati butun davlatning rivojlanish darajasida aks etadi. Hozirda elektr energetika O‘zbekiston iqtisodiyotida bir tekis ishlayotgan majmuadir.

Bizning davlatimiz energetika siyosatining yuqori ustunligi jamiyatning energiya ta‘minotiga bo‘lgan xarajatini pasaytirish uchun vosita sifatida, energiyadan

foydalanish samaradorligini oshirish, mamlakatning ustuvor rivojlanishini ta'minlash va ishlab chiqarish kuchlarining raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Shuning uchun elektr energetika sohasi doimo Respublika hukumati va prezidentimizning nazoratidadir.

O'zbekiston elektr energiyasining asosiy iste'molchisi sanoat bo'lib uning ulushiga mamlakat bo'yicha elektr energiya iste'moli umumiy darajasining 50% i to'g'ri keladi.

O'zbekiston issiqlik energiyasining asosiy iste'molchisi uy-joy – kommunal xo'jaligidir. Uning ulushiga iste'mol qilinayotgan issiqlik energiyasining 57% to'g'ri keladi.

O'zbekiston energetika tizimida elektr energiyani ishlab chiqarishda asosiy yoqilg'i turi tabiiy gaz bo'lib, uning ulushi 80% ni tashkil etadi.

O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuasining holatini xarakterlaydigan asosiy holatni tahlil qilib, bizning respublikamizda energiya tejamlash siyosatini o'tkazish zarurligini belgilaydigan quyidagi sabablarni ajratish mumkin:

- mahsulotning energiya sig'impliligini pasaytirish;
- yoqilg'ining foydali ishlatish koeffitsientini oshirish;
- respublika yoqilg'i balansida noan'anaviy tiklanuvchan manbalarning ulushini oshirish.

Jahon iqtisodiyotidagi global o'zgarishlar, hamon davom etayotgan moliyaviy inqiroz bilan bog'liq bugungi murakkab vaziyat o'z ertasini, taraqqiyotini o'ylagan har bir mamlakat oldiga tez va uzoqni ko'zlab, puxta qarorlar qabul qilishni dolzarb vazifa etib qo'yimoqda. Dunyo moliyaviy va iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, uning tarmoqlarini yangilash va modernizatsiya qilishni ko'zda tutuvchi muhim hujjatlar qabul qilinmoqda va ular amaliyotga izchil joriy etilmoqda.

Ma'lumki, so'nggi yillarda respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslaridan samarali va tejimli foydalanish masalalariga ustuvor vazifalardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Boisi, bir tomondan, respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga energiya sarfini kamaytirishda hali foydalanilmagan zaxiralar ko'p bo'lib, ulardan unumli foydalanish imkoniyatlari mavjud. Ikkinchidan, yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqarilishiga sarflanadigan energiya miqdori boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan yuqoriligicha qolmoqda. Shu ma'noda, yoqilg'i-energetika resurslarining tejamkorlik bilan sarflanishini ta'minlash, ishlab chiqarishda mahsulot birligiga sarflanadigan shartli yoqilg'i miqdorini kamaytirish bilan bog'liq masalalarni keng miqyosda joriy etish taqozo qilinmoqda.

Muhimi, respublikamizda yetarli darajada tabiiy gaz, suyuq uglevodorodlar, ko'mir va boshqa turdagi yoqilg'i-energetika resurslari zaxiralari mavjud. Shunday ekan, yaqin kelajakda iqtisodiyotni yanada isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va

diversifikatsiyalash dasturiga muvofiq amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar yangi bosqichining mazmun va mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha joylarda tegishli targ'ibot ishlarini keng yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, o'zining ahamiyatiga ko'ra, 2015-2025 yillarda iqtisodiyotni yanada isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish Dasturida ko'zda tutilgan mazkur yo'nalish mamlakatimizda bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga, iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Energiya va energiya resurslari har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasi va aholisi farovonligini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi. Soha mutaxassislari va olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda aniqlangan mavjud tabiiy yoqilg'i-energiya resurslari (tabiiy gaz, neft) 60-150-yil ishlatishga yetadi. Shu sababli, ko'plab davlatlarda energiya xavfsizligini ta'minlash va energiya samaradorligini oshirish siyosati qo'llanmoqda.

Bugun yangi O'zbekiston energetika tizimida ham mamlakat energiya xavfsizligini ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror energiya bilan ta'minlash borasida ulkan loyihalar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va "yashil energetika" siyosatini amalga oshirish, ya'ni qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, jumladan, quyosh, shamol va suv energiyasidan foydalanishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda ikkita vazifani hal etish orqali iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash nazarda tutilmoqda. Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan keng foydalanish orqali yoqilg'i muvozanatini diversifikatsiya qilish, ya'ni an'anaviy yoqilg'i turlarini qayta tiklanadigan energiya turlariga almashtirish hisobiga tabiiy yoqilg'ilar (tabiiy gaz, ko'mir) ning elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishdagi hissasini kamaytirish e'tiborga olingan.

Ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishning energiya sig'imini qisqartirish hamda sanoat hududlarining ekologik holatini yaxshilash vazifalari belgilab berilgan. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan biri bo'lgan quyosh energiyasi amaliyotda yaxshi o'zlashtirilgan.

Sababi, quyosh energiyasi biologik va ekologik xavfsiz, qayta tiklanadigan energiya bo'lib, uni fanda ma'lum bo'lgan usullar asosida issiqlik va elektr energiyasiga oson aylantirish hamda undan turli maqsadlarda samarali foydalanish mumkin.

Quyosh energiyasidan foydalanishga oid ba'zi ma'lumotlarga to'xtalamiz. U juda katta energiya manbaiga ega bo'lib, nuri Yerga 8 daqiqada yetib keladi. Quyosh

nurlanish energiyasining Yer sirtidagi zichligi 150 dan 250 kilovatt/m² yoki yiliga 1300-2200 kilovatt soat/m² ni tashkil qiladi. Quyosh energiyasi ta'sirida insoniyat, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun qulay iqlim yaratiladi. Bundan tashqari, sayyoramizdagi barcha turdagi energiya resurslari quyosh energiyasining hosilasi hisoblanadi va insoniyat uchun xizmat qiladi.

So'nggi yillarda fanda erishilgan yutuqlar, olimlar va konstruktorlar tomonidan yaratilgan ko'plab yangiliklar natijasida quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha zamonaviy texnologiya va qurilmalar hayotga faol tatbiq etila boshladi. Dunyoda keyingi yillarda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha Germaniya, Ispaniya, Yaponiya yetakchilik qilmoqda.

O'zbekiston iqlim sharoitida yozgi davrda 1 megavatt elektr quvvati olish uchun 6000 kvadrat metr quyosh panellarini o'rnatish talab qilinsa, Yekaterinburg shahri sharoitida esa 12000 kvadrat metr yuzali quyosh panellari kerak bo'ladi. Demak, bundan anglash mumkinki, yurtimizning janubiy hududida quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi uchun xarajat ham ikki barobargacha kam bo'ladi. Umuman, barcha turdagi quyosh qurilmalari mamlakatimiz hududida yuqori samara bilan ishlaydi.

Mamlakatimizda mavjud qayta tiklanadigan energiya manbalari salohiyatini hisobga olgan holda, "yashil iqtisodiyot" mexanizmlarini joriy etish orqali hududlarda tabiiy yoqilg'i-energiya resurslaridan oqilona foydalanish jarayoni va ekologik vaziyat nazorat qilinmoqda. Iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda "yashil energetika"ni rivojlantirishga qaratilgan qator davlat dasturlari amalga oshirildi. Jumladan, Navoiy viloyatida ishga tushirilgan, quvvati 100 megavatt bo'lgan zamonaviy quyosh fotoelektr stansiyasini olaylik. Nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan ushbu stansiya yiliga 252 million kilovatt soat toza elektr energiyasi ishlab chiqarishga qodir bo'lib, natijada 80 million kub metr tabiiy gazni tejash, atrof-muhitga 160 ming tonna zararli issiqxona gazi tarqalishining oldini olish imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikricha, yurtimizda ana shunday noyob quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish hisobiga jami 600 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Bu mamlakatimizda jami energiyaga bo'lgan talabdan 8 barobar ko'p degani.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham yaqin istiqbolda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bilan bir qatorda "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foiz oshirish va havoga chiqariladigan zararli gaz miqdorini 20 foiz kamaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Shu maqsadda yirik quvvatli quyosh fotoelektr va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari amalga oshirilmogda va gidroenergetikani yanada rivojlantirish davom etmogda. Bu boradagi islohotlar mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imini, ishlab chiqarish tannarxini yanada kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish kabi muhim vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Prezidentimiz bu yil 24-fevral kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida ekologik toza, quvvati 100 megavatt bo'lgan shamol elektr stansiyasi qurilishiga tamal toshi qo'ydi. 108 million dollarlik xorijiy investitsiya hisobiga barpo etiladigan ushbu energetik inshootning yillik quvvati 360 million kilovatt soat bo'lib, loyiha natijasida 110 mingta xonadonni qo'shimcha elektr energiyasi bilan ta'minlash bilan birga, yiliga 106 million kub metr tabiiy gaz tejalishiga erishiladi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 2026-yilga borib, mamlakatimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kilovatt soatga oshirib, jami 100 milliard kilovatt soatga yetkazish, elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatini jadal rivojlantirish uchun zamonaviy "yashil" va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash belgilangan.

Shuningdek, taraqqiyot strategiyasida kamida 8 ta shamol elektr stansiyasini qurish hisobiga 4 gigavatt qo'shimcha quvvat manbai yaratish, quyosh fotoelektr stansiyalar quvvatini 4 gigavattga yetkazish maqsadida kamida 10 ta fotoelektr quyosh stansiyasini ishga tushirish, 15 ta yangi gidroelektr stansiyasini qurish va 5 ta mavjud gidroelektr stansiyasini modernizatsiya qilish hisobiga yiliga qo'shimcha 868 megavatt elektr energiyasini ishlab chiqarish ko'zda tutilgan.

Yaqin yillarda Samarqand viloyatida 100 megavatt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi, Buxoro, Jizzax, Namangan, Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryoda umumiy quvvati 2100 megavatt bo'lgan 9 ta quyosh elektr stansiyasi ishga tushiriladi.

Mamlakatimizning "yashil energetika" sohasida rivojlanish istiqbollari inobatga olgan holda, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida soha bo'yicha yuqori malakali, zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlash bosh vazifa etib belgilangan. Bu bo'yicha institutimizda muayyan ishlar bajarildi.

Jumladan, muqobil energiya manbalari ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar va gidroelektr stansiyalar mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha doktorantura faoliyat boshladi. 2020-yilda muqobil energiya manbalari tayanch kafedrasini, 2021-yilda "Energiya tejamkorlik va muqobil energiya manbalari" ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.

Markaz tarkibidagi “Muqobil energiya manbalari” o‘quv-ilmiy poligonida 100 kvadrat metr foydali maydonga ega bo‘lgan quyosh issiqxonasi, quyosh havo qizdirish qurilmalari, eksperimental quyosh uyi, biomassadan muqobil yoqilg‘i olish uchun piroliz va biogaz qurilmalari, mini shamol va quyosh elektr stansiyasi, quyosh suv qizdirish qurilmalari hamda quvvati uch kilovatt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi o‘rnatilgan. Ushbu qurilmalarda talabalar va yosh olimlar uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev O. Mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyoti. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2009.
2. Айдарханов М. Основы экономической теории. Учебник. М.: Фолиант. 2017. 432 с.
3. АКИМОВ, В.В. Экономика отрасли: Учебник / В.В. АКИМОВ, А.Г. Герасимова, Т.Н. Макарова [и др.]. — М.: ITS РИОР, 2018. — 286 с.
4. Барзаева М. А. Экономическое развитие и рост / М.А. Барзаева // Экономика, управление, финанси: материалы ИВ Междунар. науч. конф. (г. Перм, апрел 2015 г.). — Перм: Зебра, 2015. — С. 16-19.
5. Vahobov A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi muhim omillar. – O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №5, 2000, 5-9-b.
6. Mahkamov I., G‘aniev M. Inqiroz oqibatlarini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. // Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning geografik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Namangan, 2010. 177-179 b.
7. Mahkamov I., Ergashev J. Kasanachilik-aholi bandligi va daromadlarni oshirishning muhim omili. // Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning geografik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Namangan, 2010. 215-216 b.
8. Иванов С.И. Основы экономической теории / ред. С.И. Иванов. — М.: Вита-Пресс, 2017. — 650 с.
9. Киуашенко Е.А. Современное состояние экономики и приоритеты развития России // Экономика и управление: актуальные вопросы теории и практики: материалы ИВ международной научно-практической конференции. – Краснодар: ТШТИ, 2016. С. 172-176.
10. Копанев М.Ю. Экономический рост и развитие / М.Ю. Копанев // Мировая наука. — 2019. — № 4 (25). — С. 333-335. Логвина А.И. Экономический рост и перспективы инновационного развития России / А.И. Логвина // Экономика и бизнес: теория и практика. — 2019. — № 3-2. — С. 9-12.
11. Марченкова Л.М. Структурные изменения экономики России как источник экономического роста / Л.М. Марченкова // Бюллетен науки и практики. — 2018. — Т. 4. — № 3. — С. 175-181.
12. Ромах В. В. Экономическое развитие России в пореформенный период / В.В. Ромах // Молодой ученый. — 2020. — №2. — С. 165-168.

13. Салийчук В.Ф. Экономический рост как категория политической экономии социализма / В.Ф. Салийчук // Вестник КГУ.- М. — 2005. — №10. - С. 28-35.

14. Сидоров В.А. Феномен рыночного хозяйства: проблема трансформации, историко-экономический анализ бизнеса инноваций: монография / под ред. В.А. Сидорова, У.С. Уадгарова, В.В. Аплау. – Майкоп: ЭЛИТ, 2018. – 554 с.

15. Сухарев О.С. Информационная экономика: знание, конкуренция и рост / О.С. Сухарев. — Москва: Гостехиздат, 2015. — 803 с.

16. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti (darslik). – T.: TDIU. 2004.

17. Саидова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке // Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi taqdimot materiallari. – T., TDIU, 2009 yil 5 may.

18. Soliev A., Qurbonov P. Hozirgi zamon urbanizatsiya jarayonlari va ularning O‘zbekiston Respublikasidagi yangi bosqichi// O‘zbekiston geografiya Jamiyati Axboroti. - T., 36-jild, 2010.65 -71b.

19. Позднуаков, В.У. Экономика отрасли: Учебное пособие / В.У. Позднуаков, С.В. Казаков. — М.: НИТС ИНФРА-М, 2012. — 309 с.

20. То‘хлиев Н. ва бoshq. O‘zbekiston iqtisodiyot asoslari. – T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” DIN, 2006. -280 b.

21. Коробкин, А.З. Экономика организации отрасли: учебное пособие / А.З. Коробкин. — Минск: Изд-во Гревцова, 2018\ . — 288 с.

22. Кузовкова, Т.А. Экономика отрасли инфокоммуникаций. Учебное пособие для вузов / Т.А. Кузовкова, Е.Э. Володина, Е.Г. Кухаренко. — М.: РиС, 2017. — 190 с.

23. Курнишев, В.В. Региональная экономика. основы теории и методы исследования (бакалавриат и магистратура) / В.В. Курнишев, В.Г. Глушкова. - М.: КноРус, 2017. - 184 с.

24. Бекнозов Н.У. Иқтисодиёт назариyasi. Дарслик.Т.:ТДЮИ, 2005.225-бет.

25. Глобализация: от центра к периферии. Проблемы новых государств. ТСентр экономических исследований. Tashkent, 2002. – 36 с.

26. Фуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. - Т.: SHarq, 2002. 324 б.

27. Дўстжонов Т.Д., Салаев С.К. Иқтисодиёт ва тадбиркорлик асослари. Ўқув қўлланма. – Toshkent.: Иқтисодиёт-молиуа, 2006. - 320 б.

- <http://www.uza.uz>

- <http://www.stat.uz>

- <http://www.mf.uz>

- <http://www.mfer.uz>

- <http://www.lex.uz>

MAMLAKATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Karimov Ulug‘bek Usmonovich

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi
“Biznes va tadbirkorlik oliy maktab” magistratura talabasi*

Annotatsiya: O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishi import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta‘minlashga erishilmoqda. Ushbu maqolada Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va bu islohotlarning ijobiy natijasida mamlakatimiz asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatgichlari, doimiy ravishda oshishi ta‘minlanmoqda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatuvchi muhim omillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mulk va ijara huquqi, doimiy foydalanish huquqi, oilalar, **talabgor**, elektron onlayn-auksion, investitsiya, innovatsiya, moliyaviy qo‘llab -quvvatlash.

Jahon iqtisodiyoti tez sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizning bu rivojlanish jarayoniga qo‘shilib, u bilan birga rivojlanib, o‘zgarishlarni boshdan kechirishda mamlakatimiz katta kuch va yuksak rivojlanishga ega bo‘lish uchun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi yutuq va kamchiliklar, imkoniyat va shart-sharoitlarni e‘tibordan qoldirmagan holda rivojlanishning ko‘zlangan daraja va samaralarga erishish yo‘llarini topish, ulardan maksimal darajada foydalanish, buning uchun zarur bo‘lgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish, eng muhim vazifa hisoblanadi. Shular jumlasida ushbu maqsad yo‘lida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muhimdir. Zero, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish qator ijobiy samaraga erishishdir. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishi import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta‘minlashga erishilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz har sohada ko‘plab yutuqlarga erishmoqda. Hukumatimiz amalga oshirayotgan islohotlar va bu islohotlarning ijobiy natijasida mamlakatimiz asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatgichlari doimiy ravishda oshishi ta‘minlanmoqda. Makroiqtisodiy ko‘rsatgichlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatuvchi muhim omildir.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 352,1 trln. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 122,1 % ni tashkil etdi.¹

¹ O‘zbekiston Statistika Qo‘mitasi www.stat.uz

Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 44,8 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 307,3 trln. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 66,4 % yoki 233,8 trln. so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 33,6 % yoki 118,3 trln. so‘m moliyalashtirildi.²

Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini ta‘minlandi. Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan oshmadi va 5,7 foizni tashkil etdi.

2023 yilda barqaror yuqori iqtisodiy o‘shishning asosiy omillari bo‘lib quyidagilar xizmat qildi:



- makroiqtisodiy muvozanatni saqlab turish. Xo‘jalik sub‘ektlari uchun soliq yukining kamayishi, tashqi savdo aylanmasining ijobiy qoldig‘i va 5,7%ni tashkil etgan past darajadagi inflyatsiya bilan bir qatorda davlat budjetining YaIMga nisbatan 0,1% darajadagi profitsitini ta‘minlandi;

- qishloq xo‘jaligini isloh qilish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining 6,6 foizga o‘shirishini ta‘minladi;


- iqtisodiy o‘shishning barqaror yuqori sur‘atlari hamda aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha dasturlarning amalga oshirilishi, shuningdek budjet tashkilotlari xodimlari oylik ish haqining 15%ga, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning 12,1%ga o‘shirish tufayli aholining farovonligi va yalpi real daromadlari 11% ga ortdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 84,9 trln. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 24,1 % ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,5 % i yoki 33,3 trln. so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 84,3 trln. so‘mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan 9,1 % punktga ko‘payib, 24,0 % ni tashkil etdi

² O‘zbekiston Statistika Qo‘mitasi www.stat.uz

Asosiy kapitalga investitsiyalar– yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.



Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 22,3 trln. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,3 % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 21,2 trln. so'm (6,0 % va 0,3 % punktiga ko'paydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 82,4 trln. so'm (23,4 % va 1,2 % punktga ko'paydi), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 1,6 trln. so'm (0,4 % va 0,5 % punktga kamaydi), Respublika budjeti 20,4 trln. so'm (5,8 % va 2,2 % punktga kamaydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 1,6 trln. so'm (0,5 % va 0,6 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, mazkur islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash borasida hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar hamda dasturlar mamlakatimiz iqtisodiyotini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatgichlarni doimiy ravishda oshishini, shu bilan birga, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.


Mamlakatimiz asosiy makroiqtisodiy ko'rsatgichlari nafaqat miqdoriy jihatdan balki sifat jihatdan ham oshib kelmoqda. Ya'ni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot tarkibi ham sifat jihatdan o'zgarib, yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat va xizmat ko'rsatish ulushi yildan-yilga oshib kelmoqda. Buning yaqqol isbotini yuqoridagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

2022- yilning O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 121,8 trln. so'm o'zlashtirildi. Dollar ekvivalentida 11,0 mlrd. AQSH doll. o'zlashtirilgan bo'lib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi.

2022- yilning asosiy kapitalga investitsiyalarning 56,8 % i yoki 69,1 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va

aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 43,2 % yoki 52,7 trln. so‘m moliyalashtirildi. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021- yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 6,1 % punktga kamayib, 12,0 % ni yoki 14,6 trln. so‘mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 107,2 trln. so‘m yoki jami investitsiyalarning 88,0 % investitsiyalari o‘zlashtirilib, 2021- yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 6,1 % punktga ko‘paydi. 2022- yilning yanvariyun oylarida korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 41,5 trln. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 34,1 % ini tashkil etdi.



2.1-rasm Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar 2021-yilga nisbatan trln so‘mda³

Asalarichilik klasterlari a'zolari o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni rivojlantirish orqali ijtimoiy birdamlik va jamoaviy harakatlarni rivojlantiradi. Asalarichilar ko'pincha o'zlarini tashkil qilishadi uyushmalar yoki o'z-o'ziga yordam guruhlari resurslarni to'plash, xatarlarni bo'lishish va bozorlarga yanada samarali kirish. Ushbu jamoaviy tuzilmalar asalarichilarga narxlarni yaxshiroq muhokama qilish, kredit olish va mahalliy, mintaqaviy va milliy darajada o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, asalarichilik faoliyati ko'pincha bunday asal va asal mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, sotish va marketing kabi hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu jamoaviy harakatlar nafaqat samaradorlik va samaradorlikni oshiradi, balki ishtirokchilar o'rtasida ishonch va o'zaro munosabatlarni rivojlantiradi. Asalarichilar umumiy maqsadlar yo'lida birgalikda harakat qilib, asalarichilikdan tashqari jamiyat hayotining boshqa jihatlariga ham taalluqli ijtimoiy aloqalar va tarmoqlarni rivojlantiradilar.

4. Gender imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy inklyuziya

Asalarichilik klasterlari ichida gender tengligi va ijtimoiy rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida ayollar asalarichilik faoliyatida ajralmas qismi hisoblanadi, masalan, asalari oilalarini parvarishlash, asal va asal mahsulotlarini yetishtirish va mahsulotni qayta ishlash. Ayollarni asalarichilik klasterlariga jalb qilish orqali jamoalar an'anaviy gender me'yorlariga qarshi chiqishlari, ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishlari va ayollarning yetakchiligi va qaror qabul qilish vakolatlarini targ'ib qilishlari mumkin. Bundan tashqari, asalarichilik cheklangan guruhlar, shu jumladan nogironlar va etnik ozchiliklar uchun inklyuziv joylarni yaratishi mumkin. Maqsadli aralashuvlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali asalarichilik dasturlari jamiyatning barcha a'zolari o'qitish, resurslar va imkoniyatlardan teng foydalanishni ta'minlashi mumkin.

Asalarichilik xilma-xillik va inklyuzivlikni targ'ib qilish orqali ijtimoiy birdamlik va barqarorlikni mustahkamlaydi, asalarichilik sohasi tarkibini boyitadi.

Qishloq xo'jaligi rivojlanishida asalarichilik klasterlarining ekologik o'lchamlari

Asalarichilik tabiiy dunyoda chuqur ildiz otgan amaliyot sifatida qishloq xo'jaligi rivojlanishi uchun muhim ekologik ta'sir ko'rsatadi. Asalarichilik iqtisodiy va ijtimoiy o'lchovlaridan tashqari ekotizim salomatligi, bioxilma-xillikni saqlash va yerni barqaror boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

1. Qishloq xo'jaligi ekinlarini changlatish orqali

Asalarichilikning eng taniqli ekologik foydasi uning changlatishdagi roli. Asalarilar changlatuvchi sifatida gulli o'simliklarni, shu jumladan ko'plab ekinlarni ko'paytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi bu qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining asosini tashkil etadi. Parvarishlanadigan asalarilar oilalari, shuningdek yovvoyi asalarilar populyatsiyasi bog'lar, poliz ekinlari, paxta, beda, makkajo'xori va dukkakli o'simliklarning changlanishiga hissa qo'shadi, qishloq xo'jaligi mahsuldorligi va oziq-ovqat xavfsizligini oshiradi. Qishloq xo'jaligi sharoitlarida parvarishlanadigan asalari oilalarining mavjudligi changlanish tezligini oshirishi va ekinlarning sifati va hosildorligini oshirishi mumkin. Asalarichilar ko'pincha changlatish xizmatlarini maksimal darajada oshirish uchun asalari oilalarini bog'larda, dalalarda va yaylovlarda strategik ravishda joylashtiradilar. Ekinlarni changlatishni kuchaytirish orqali asalarichilik nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kuchaytiradi, balki kimyoviy periparatlar va o'g'itlarga bo'lgan ishonchni kamaytiradi, barqaror dehqonchilik amaliyotini targ'ib qiladi va atrof-muhitga ta'sirini minimallashtiradi.

2. Tabiatni saqlash

Asalarichilik klasterlari asalarilar yordamida o'simliklarni changlatuvchilar asalari oilalari uchun asalari qutilar bilan ta'minlash orqali yashash joylarini saqlashga hissa qo'shishi mumkin. Asalarichilar ko'pincha asalari oilalarini tabiiy ekotizimlar bilan uyg'unlikda parvarishlaydilar va yil davomida turli xil gul resurslari mavjudligini ta'minlaydilar. Shunday qilib, asalarichilar mahalliy o'simlik turlarini qo'llab-quvvatlash va changlatuvchilar, qushlar va boshqa yovvoyi tabiat uchun yashash joylarini ta'minlash orqali biologik xilma-xillik va ekotizimning barqarorligini targ'ib qiladilar. Bundan tashqari, asalarichilik gullar xilma-xilligiga boy tabiiy joylarni va landshaftlarni saqlashni rag'batlantirishi mumkin. Asalarichilar yovvoyi gulli dalalar kabi asalarichilar uchun qulay sharoitli joylarini yaratish uchun yer egalari, tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari va davlat idoralari bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Ushbu harakatlar nafaqat asalarilarga foyda keltiradi, balki tabiatni muhofaza qilishning keng maqsadlariga, shu jumladan suv havzalarini muhofaza qilish, tuproq eroziyasini nazorat qilish va iqlim o'zgarishini yumshatishga yordam beradi.

3. Barqaror yer boshqaruvi

Asalarichilik ekotizim salomatligi va tabiiy resurslarni tejashga ustuvor ahamiyat beradigan barqaror yerni boshqarish amaliyotini targ'ib qiladi. Asalarichilar ko'pincha sintetik kirishlar foydalanishni kamaytirish va qishloq xo'jaligi landshaftlar bioxilma-xillikni targ'ib agroekologik yondashuvlarni qabul qilish. Asalarichilar kimyoviy zaharlanishlardan qochish va asalarilar uchun yashash muhitini ta'minlash kabi organik asalarichilik usullarini (3-rasm) qo'llash orqali tuproq unumdorligi, suv sifati va ekotizimning umumiy yaxlitligini saqlashga hissa qo'shadilar.



3-rasm. Tabiiy asalarichilik amaliyoti

Bundan tashqari, asalarichilik o'rmon xo'jaligi, dehqonchilik va qishloq xo'jaligi kabi boshqa barqaror yer boshqaruvi tashabbuslarini to'ldirishi mumkin. O'z ichiga olgan o'rmonchilik tizimlari asalari uchun qulay daraxt turlari asalarilar uchun qo'shimcha asal manbai va asalari oilalarini ko'payishi bilan ta'minlaydi, shu bilan birga tuproq unumdorligini, suvni ushlab turishni yaxshilaydi. Asalarichilikni ko'p tarmoqli dehqonchilik tizimlari bilan birlashtirish orqali qishloq xo'jaligi ko'plab ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga, shu jumladan iqlimga chidamlilik va tirikchilik xavfsizligiga erishishlari mumkin.

4. Iqlimga chidamlilik

Asalarichilik klasterlari qishloq xo'jaligi sharoitlarida bioxilma-xillik, ekotizim xizmatlari va keng imkoniyatlarni rivojlantirish orqali iqlimga chidamliligini oshiradi. Asalarilar changlatuvchi sifatida o'simlik populyatsiyalarining genetik xilma-xilligini saqlashda, ularning iqlim o'zgarishi, zararkunandalar va kasalliklar kabi ekologik stresslarga chidamliligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, yashash muhitini saqlash va agroekologik tamoyillarga ustuvor ahamiyat beradigan asalarichilik amaliyoti tuproq unumdorligi, suvni tejash targ'ib qilish orqali iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, asalarichilik iqlim

o'zgaruvchanligi va ekstremal ob-havo hodisalaridan ta'sirlangan asalari klasterlari uchun muqobil yashash imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin. Qurg'oqchilik, suv toshqini yoki harorat o'zgarishiga moyil bo'lgan hududlarda asalarichilik an'anaviy qishloq xo'jaligiga qaraganda iqlim bilan bog'liq xavflarga kamroq sezgir bo'lgan barqaror daromad manbasini taklif etadi. Asalarichilik turmush tarzi strategiyasini diversifikatsiya qilish va moslashish qobiliyatini oshirish orqali iqlim o'zgarishi sharoitida qishloqlarning barqarorligi va barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

XULOSA


Asalarichilik klasterining iqtisodiy salohiyatidan foydalangan holda, aholi turmush tarzini yaxshilashi, kambag'allikni qisqartirishi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishi mumkin. Biroq, ushbu imtiyozlarni amalga oshirish uchun qo'llab-quvvatlovchi siyosat, o'qitish va infratuzilmaga sarmoyalar va bozorlarga kirish, texnik bilimlar va iqlim o'zgarishiga moslashish kabi muammolarni hal qilish bo'yicha birgalikda harakatlar talab etiladi. Strategik aralashuvlar va hamkorlikdagi sheriklik orqali asalarichilik qishloq joylarda iqtisodiy farovonlik va barqarorlikni ta'minlash uchun kuchli vositaga aylanishi mumkin. Asalarichilik klaster qishloqlarni rivojlantirish strategiyalariga qo'shish iqtisodiy diversifikatsiya, daromad olish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirish kabi bir qator afzalliklarni taklif etadi. Biroq, asalarichilik bilan bog'liq muammolarni hal qilish asalarichilar uchun texnik yordam, resurslardan foydalanish, zararkunandalar va kasalliklarni bartaraf etish, bozorga kirish va qiymatni qo'shish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha birgalikda harakatlarni talab qiladi. Hamkorlikdagi harakatlar va maqsadli aralashuvlar orqali asalarichilik butun dunyo bo'ylab qishloqlarning rivojlanishi, barqarorligi va farovonligini oshirishning kuchli vositasiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dini, Cecilia Beatriz (compiladora), Garcia, Norberto (compilador), "Manual of good beekeeping practices in artificial feeding of bees: a contribution to the quality of Argentine honey.", 2023
2. Enzama, W. (Wilson), "Quest for economic development in agrarian localities", 2008
3. Qulmurotov S.J., Iskandarov S.U. "ЗНАЧЕНИЕ ПЧЕЛОВОДСТВА В СЕЛСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ РЕГИОНА" International journal of scientific researchers. Germaniya – 2024.
4. Qulmurotov S.J., Iskandarov S.U. "IMPORTANCE OF THE BEEKEEPING SECTOR IN REGIONAL AGRICULTURE" American journal of Business Management, Economics and Banking. AQSH – 2024.
5. Isamuhamedov A.I. Nikadamboev X.K. "Asalarichilikni rivojlantirish asoslari". Toshkent. "Sharq" nashriyoti, 2013
6. <http://galwaybeekeepers.com/history-of-beekeeping/>
7. <https://www.powerblanket.com/blog/the-evolution-of-beekeeping/>
<https://www.mrwasp.co.uk/the-history-of-beekeeping-and-bee-control>

BARKAMOL AVLODDA BOLALAR QAMROVINI KUCHAYTIRISH VA TO'GARAKLAR ORASIDA LOGIKA, O'YINLI MATEMATIKA TO'GARAGINI MUHIMLIGI

Farida Urakbaeva Xasan qizi
Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani
"Barkamol avlod" bolalar maktabi "
Logika o'yinli matematika"to'garagi raxbari



Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim muassasalarida matematika va mantiq fani elementlaridan foydalanishning ahamiyati haqida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: matematik tushunchalar, matematika, to'garaklar, logika, mantiq.

Dunyo miqyosida umumta'lim maktablarida ta'lim oluvchilarining bilim, ko'nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, matematik qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, uni insonparvarlashtirish, uzluksizligi va uzviyligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta'minlash, ularning ijodkorligini oshirish vazifalari yetakchilik qilmoqda. Xususan, bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil qilishda innovatsion ta'lim muhiti sharoitida yetakchi ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning matematik qobiliyatlarini o'stirishga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Matematika to'garagida o'rganiladigan materialning mazmuni va hajmini chegaralab qo'yish qiyin. Bunda maktab sharoiti va o'qituvchilarning tayyorligiga qarab to'garakda turli xil tarixiy, nazariy va amaliy materiallarni o'rganish mumkin. To'garak byurosini (sardor, uning yordamchisi, redaktor) birinchi mashg'ulotda emas, balki keyingi mashg'ulotlarda - to'garak ishini yaxshi olib borish uchun shunday rahbarlik organiga zarurat tug'dirib, keyin saylash maqsadga muvofiqdir. To'garakning butun ish faoliyatini starostaning yordamchisi to'garakning kundalik daftoriga yozib boradi. Matematika to'garagining muvaffaqiyatli ishlashida o'quvchilarni to'garak ishiga jalb qilishda, qiziqtirishda dastlabki mashg'ulotlarning roli katta. Bugungi kunda tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni hal qilish va ongli qarorlar qabul qilish qobiliyati har qachongidan ham muhimroqdir. Matematika asosiy fan sifatida ushbu muhim ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bolalarning yoshligidan boshlab matematika bilimini mustahkamlashga e'tibor qaratish, ularning kelajak vazifalariga yaxshi moslashishini ta'minlash zarur. Bundan tashqari, mantiqiy va o'yinli matematikani ta'lim amaliyotiga integratsiyalash bolalarning kognitiv qobiliyatlarini oshirishi, o'rganishga bo'lgan muhabbatini oshirishi va matematik

tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bolalikda qo'yilgan matematik bilimlarning poydevori keyingi yillarda ilg'or bilim olish uchun asos bo'ladi. Bolalarga matematik tushunchalar haqida har tomonlama tushuncha berish orqali o'qituvchilar ularga murakkab muammolarni ishonchli va aniqlik bilan hal qilish imkoniyatini berishlari mumkin. Bolalarning matematik qamrovini mustahkamlash hisob, geometriya va algebra kabi asosiy matematik tamoyillarni tuzilgan va qiziqarli tarzda joriy etishni nazarda tutadi. Amaliy mashg'ulotlar, interfaol darslar va elektron ilovalari orqali bolalar o'zlarining akademik va professional sayohatlari davomida ularga yaxshi xizmat qiladigan mustahkam matematik asosni rivojlantirishlari mumkin. Mantiq va o'ynoqi matematika bolalarga matematik tushunchalarni qiziqarli va qiziqarli tarzda o'rganish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Mantiqqa asoslangan boshqotirmalar, o'yinlar va mashg'ulotlar nafaqat tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rag'batlantiradi, balki ijodkorlik va innovatsiyalarni ham rag'batlantiradi. O'quv dasturiga o'yinli matematikani kiritish orqali o'qituvchilar o'rganishni matematik qobiliyatlaridan qat'i nazar, barcha o'quvchilar uchun qiziqarli va qulay qilishlari mumkin. O'yinli matematika mashg'ulotlari hamkorlik, muloqot va chidamlilikni rivojlantiradi, o'rganishga ijobiy munosabatni rivojlantiradi va matematikaga umrbod muhabbat uyg'otadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalarning matematik qamrovini kuchaytirish, mantiqiy va o'yinli matematikani ta'lim amaliyotiga integratsiyalashning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi. Kelajak avlodlarni muvaffaqiyatga tayyorlashga intilar ekanmiz, ta'limga yaxlit yondashuv orqali matematik savodxonlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ustuvor ahamiyat berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бикбаева Н.И., Левенберг Л.Ш. "2-синфда математика" Т-"Укитувчи" 1988-й 343- бетлар
2. Бабанский Ю.К "Хозирги замон умумий таълим мактабида укитиш методлари" Т-Укитувчи 1990 й. 227 бет
3. Jumayev M. va b.q. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Т-2005-у. 312 b
4. М.Х. Turdiqulova "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning zamonaviy tarzda amalga oshirish imkoniyatlari" Наука XXI века №8 2018

ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISHI YO‘LLARI VA OQIBATLARI*Lutfullayeva Nargiza Boxodirovna**Toshkent davlatchinika universiteti**“Ekologiya va atrof muhitni muhofazasi” kafedrasikatta o‘qituvchisi**Ma'rufjonov Diyorbek G'ulomjon o'g'li**Toshkent davlatchinika universiteti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundayeryuzida global muammolardan bo'lib borayotgan atmosfera havosining ifloslanish va uning salbiy oqibatlarini arihaqidagi tushunchalar yoritilib berilgan.

Kalitso'zlar: sanoat, savdo, transport manbalar, tutun, atmosfera, gidrometeorologiya.

Kirish Ifloslantiruvchi moddalar atmosfera gaturli xil sanoat, savdo, tabiiy va transport manbalaridan tashlanadi. Ayrim manbalarnuqtalimanbalar deyiladi. Chunki ular aniqlikda chiqarish yoki ventilyatsion quvurlari hosil qilgan manbalardir. Uyushtirilmagan manbalar esa ochiq maydonlarda, ya'ni dalalar, yo'llar, qurilmaydonchalari yoki karyerlar hamda tutun quvuri yoki aniqlikda amalga oshirilayotgan faoliyat natijasida hosil bo'lgan chiqindilarni ajratib chiqaruvchi manbalardir. Transport manbalarini o'z ichiga yo'l transport vositalarini, hamda boshqa, shu jumladan, poyezd va samolyotlarni kabi transport vositalarini olgan. Ifloslantiruvchi moddalarning kriteriyalari, qoida bo'yicha, sanoat, savdo, tabiiy va transport manbalarining butun spektri bo'yicha joylashgan ko'pgina manbalarnuqtalar uchun olingan ma'lumotlar asosida ishlab chiqiladi. [1]

Tabiat uchun atmosfera havosining ahamiyati juda katta. Atmosfera havosini faqat kislorod, fotosintez uchun karbonat gidrid manbaidir. Sayyorada suv bug'larini tashuvchi hisoblanib, tirik organizmlar uchun mikroelementlarni taqdim etadi. Havoi iklimni idora etadi, havoni yuvuvchi organizmlar uchun muhit bo'lib, tuproqni yumshatish va tuproqni quriganlikdan qutqaradi, bir qancha kimyoviy jarayonlarni o'z ichiga olib oladi.

Inson va boshqa tirik organizmlar uchun atmosfera havosining freonlar bilan ifloslanishini hijirdi salbiy oqibatlarga olib keladi. Ulardan sovutgich qurilmalarida, yarimo'tkazgichlar va aerozol balonchalari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Freonlar ozon qatlami gata'siriyetadi. Ular qisqartirilgan ultrabinafshanurlarni siridaparchalanadigan natijada xlor, ftorlarga ajraladi. Natijada xlor va ftorlar ozon bilan o'zarota'siriyetadi.

Havoningifloslanishinatijasidainsonlardadarmonsizlanish, ishqobiliyatini pasayishi, yo‘tal, bosh aylanishi, ovozbaylamlarining siqilishi, o‘pka, ko‘z bilan bog‘liq har xil kasalliklar, organizmning umumiy zaharlanishi, kasallikka qarshi kurashishning susayishi kabi holatlarni kelib chiqadi. [2]

Atmosfera havosini asosan ifloslantiruvchi manbalar bugungi kunda tobora rivojlanib borayotgan insonning sanoat ishlab chiqarishidagi va avtotransportlarning rivojlanishidir. Havogako‘pmiqdordakarbonsizlota, uglevodorodlarni oksidlash, sulfid angidrid va boshqa moddalarni chiqarilib, ulartabiiy muhitga va odamlarga juda katta zarar yetkazmoqda. Bu holat ayniqsa yirik shaharlarda ko‘zga tashlanadi.

Atmosfera havosini ifloslanish muammasi barcha insoniyatni tashvishlantirmoqda. Insonning hayot faoliyati uchun eng muhim mahsulot havohisoblanadi. Odamovqatsiz 5 hafta, suvsiz 5 kun, havosiz 5 daqiqayash mumkin. Insonlar normal yashashlari uchun nafoqat havo, balki uning tozaligi ham muhim hisoblanadi. Havoning ifloslanishi odamning salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda atmosfera qo‘zg‘atuvchi moddalarning miqdori keyingi yillarda ikki marta oshib ketgan, ya‘ni bir kishiga 90 kg nitro oksid berilgan. Ifloslantiruvchi moddalarning umumiy miqdori nisbatan 51, 9% -SO₂, 16% -NO₂, 17, 9% -N₂S lar, 8, 9% -SO₂, 6, 1% -qattiq moddalar va 0, 2% boshqa maxsus zararli moddalarga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga yirik shaharlarda ifloslanishning sanitariya-gigienik normadan ortiqlik kuzatilmoqda. Masalan Olmaliq, Navoiy, Samarqand, Toshkent kabi shaharlarda changlar, Olmaliqda SO, Navoiy, Farg‘ona, Marg‘ilon, Termezlarda, Angren, Navoiy, Farg‘onada fenol; Andijon, Navoiy, Chirchiq, Toshkentda ammiak bilan ifloslanadi. [3]

O‘zbekiston Respublikasida Bosh gidrometeorologiya va tabiiy muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi tomonidan atmosfera havosi va uning ifloslantiruvchi manbalarini nazorat qilinishi Bosh gidrometeorologiya va tabiiy muhofaza qilish Davlat qo‘mitasining 39 aholi punktlarida kuzatib boriladi. 16 turdagi gazlar (chiqindilar) va 6 turdagi o‘g‘ir metallar ham dazirani nazorat ostidadir. Tabiiy muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi tomonidan respublikamizning 136 aholi punktlarida sanoat korxonalarini va harakatdagi avtotransportlarni nazorat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini to‘g‘ri ushlab tutish to‘g‘risida» Qonuni bilan atmosfera havosini holatini va uning ta‘sirini o‘lchov uchun davlat nazorati, ya‘ni tabiiy muhitni nazorat tizimida olib boriladi.

Xulosa Xulosa qilib aytish mumkin ki tadqiqotlar atmosfera havosini ifloslanish natijasida insonlarga bo‘layotgan ta‘sirini ko‘rsatdiki, astma va surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (KOAH) rivojlanish xavfining ortishi

transport bilan bog'liq havo ifloslanishigata sirqiladi. KOAH
surunkali bronxit va amfizem kabi kasalliklarni o'z ichiga oladi.
Havoning ifloslanishidankelib chiqqano'pkakasalliklarixavfi quyidagi odamlar guruhlari
uchun eng yuqori sanaladi: chaqaloqlar va yosh bolalar, ularning normal
nafas olishi kattaroq bolalar va kattalarni kiga qaraganda tezroq; qariyalar;
tashqarida ishlaydigan yoki ko'p vaqtini tashqarida o'tkazadiganlar;
vayurak hamda o'pkakasalligi gachalanganlar.
Atmosfera havosini ifloslanish natijasida insonlarga bo'layotgan ta'siri hozirgi kunda engd
olzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Sanoatekologiyasi (Atrof muhit muhofazasi) [Matn]: darslik /
Sh.A.Mutalov, T.T.Tursunov, M.M.Niyazova [vaboshq.]. - Toshkent:
«O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi,
2020. - 50 b.
2. Ekologiyavi tabiatni muhofaza qilish / o'quv
qo'llanma: O'.E.Xo'janazarov, Sh.Yakubjonova.: «Barkamol fayz media» nashriyoti,
2018-yil - 208 bet.
3. Узбекистон Республикаси Кизил Китоби. Том I. Усимликлар, "Chinor
ENK",

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Mavlonov Otabek Anvarovich
Alfraganus University Fakultetlararo
chet tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini o'qitish manzarasini o'zgartirib, o'rganish tajribasini oshirish uchun innovatsion vositalar va resurslarni taklif qildi. Til o'rganish uchun interfaol ilovalardan tortib virtual sinflargacha texnologiya ingliz tilini o'rgatish va o'rganish usulini inqilob qildi. Ushbu maqolada biz ingliz tilini o'qitishni osonlashtirish, uni barcha darajadagi talabalar uchun yanada qiziqarli, ochiq va samarali qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning turli usullarini o'rganamiz.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, axborot texnologiyalari, ingliz tili, interfaol usullar, samarali muloqot usullari.

Bugungi raqamli texnologiyalarga asrda zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi ta'lim sohasida, xususan, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda inqilob qildi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan o'qituvchilar til o'rganishni yaxshilaydigan, talabalarni jalb qiladigan va interfaol va shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini targ'ib qiluvchi keng ko'lamli vositalar va resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega. Zamonaviy texnologiyalarning ingliz tilidagi ta'limni o'zgartirishdagi muhim roli va ularning o'qituvchilar va talabalar uchun keltiradigan afzalliklarini o'rganadi. Ingliz tili ta'limidagi zamonaviy texnologiyalarning asosiy afzalliklaridan biri bu interfaol ta'lim platformalarining mavjudligidir. Onlayn platformalar va ilovalar turli xil o'rganish usullari va afzalliklariga mos keladigan turli xil qiziqarli mashg'ulotlar, o'yinlar va mashqlarni taklif qiladi. Bu platformalar o'quvchilarga o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarini qiziqarli va interaktiv tarzda mashq qilish imkoniyatini beradi, bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Virtual sinflar ingliz tili ta'limida, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasidan so'ng tobora ommalashib bormoqda. Video konferentsiya vositalari va onlayn hamkorlik platformalari orqali o'qituvchilar dunyoning istalgan nuqtasidan talabalar bilan jonli darslar, interfaol muhokamalar va guruh faoliyatini o'tkazishlari mumkin. Virtual sinflar global muloqot, madaniy almashinuv va hamkorlikni rivojlantiradi, bu esa talabalarga geografik chegaralardan tashqarida tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilish imkonini beradi. Til o'rganishga bag'ishlangan mobil ilovalar o'quvchilarning ingliz tilini o'rganish usullarini o'zgartirdi. Ushbu ilovalar lug'atni rivojlantirish mashqlari, grammatika darslari, talaffuz amaliyoti va real vaqtda fikr-mulohazalarni taklif qiladi. Talabalar o'z

tezligida o'rganishlari, muvaffaqiyatlarini kuzatishlari va natijalariga qarab shaxsiy tavsiyalar olishlari mumkin. Til o'rganish ilovalari ingliz tilidagi ta'limni barcha yoshdagi o'quvchilar uchun yanada qulay, qulay va qiziqarli qiladi. Til o'rgatishda sun'iy intellektning integratsiyasi shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasi uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Sun'iy intellekt asosidagi til o'rganish platformalari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilishi, yaxshilash kerak bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashi hamda maqsadli fikr-mulohazalar va tavsiyalar berishi mumkin. AI o'qituvchilari har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini qondiradigan moslashtirilgan o'rganish yo'llarini taklif qilib, individual o'rganish uslublari, afzalliklari va tezligiga moslasha oladi. Onlayn manbalar va multimedia kontenti: Onlayn manbalar va multimedia kontentining ko'pligi videolar, podkastlar, maqolalar va interaktiv simulyatsiyalar kabi keng assortimentdagi haqiqiy materiallarga kirishni ta'minlash orqali ingliz tili ta'limini boyitdi. O'qituvchilar tushunish, so'z boyligini o'zlashtirish va madaniy xabardorlikni oshirish uchun o'z darslariga multimedia kontentini kiritishlari mumkin. Multimedia resurslari o'rganishni yanada qiziqarli, dinamik va real dunyo kontekstlariga moslashtiradi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi an'anaviy til ta'limi usullarini o'zgartirdi va interaktiv, shaxsiylashtirilgan va qiziqarli o'rganish tajribasi uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Interfaol ta'lim platformalari, virtual sinf xonalari, til o'rganish ilovalari, sun'iy intellekt va multimedia resurslaridan foydalangan holda o'qituvchilar talabalarning turli ehtiyojlari va xohishlariga javob beradigan dinamik va samarali ingliz tili dasturlarini yaratishi mumkin. Ingliz tili ta'limida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash nafaqat tilni bilish darajasini oshiradi, balki XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va global muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pasenkova N.M. Methodological recommendations for teaching staff of educational institutions on organizing work with children with disabilities in the context of inclusive education. - Stavropol: SKIRO PC and PRO, 2012. - 46 p.
2. Sharafutdinova T.M. Educational games for English lessons. // Foreign languages at school.-2005, No. 8. (pp. 46-50)
3. Bekmuratova U. B. Abstract on "Using innovative technologies in teaching English". Tashkent - 2012
4. Bekmuratova U. B. Abstract on "The use of innovative technologies in teaching English." Tashkent - 2012
5. M. Kholdorova, N. Fayziyeva, F. Rikhsitilayeva. "USE OF HELPING TOOLS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE" Tashkent: TDPU named after Nizomi, 2005

p -ADIK SONLAR MAYDONIDA 1-LIPSHITS FUNKSIYALARI VA ULARNING DINAMIKASI

Toshkent davlat transport universiteti
Oliy matematika kafedra assistenti
Pardayev Shohzod Akmal o'g'li
shohzodmath@gmail.com

Ushbu maqola ishi noarximed maydondagi funksiyalar xususan 1-Lipshits funksiyalarining xossalari va ularning dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan. Maqola ishida xozirgacha o'rganilgan p -adik 1-Lipshits funksiyalarning xossalari va dinamik sistemalar referativ tahlil qilingan va yangi ko'rinishidagi p -adik 1-Lipshits funksiya dinamik sistemaning qo'zg'almas nuqtalari va trayektoriyalari o'rganilgan. p -adik sonlar maydoni, p -adik norma, p -adik 1-Lipshits funksiyalari tadqiqotning ob'yekti hisoblanadi.

P-ADIK 1-LIPSHITS FUNKSIYALAR DINAMIKASI

1-ta'rif Agar f funksiya $f : \mathbb{Z}_p \rightarrow \mathbb{Z}_p$ bo'lib, quyidagi shartni qanoatlantirsa

$$|f(x) - f(y)|_p \leq p^\alpha |x - y|_p, \quad \forall x, y \in \mathbb{Z}_p$$

bu funksiya p^α -Lipshits funksiyasi deyiladi. Xususan $\alpha = 0$ bo'lganda

$$|f(x) - f(y)|_p \leq |x - y|_p, \quad \forall x, y \in \mathbb{Z}_p \quad (1)$$

bo'lib, f funksiya 1-Lipshits funksiyasi deyiladi.

1-Lipshits shartining bir necha ekvivalent shartlari mavjuddir:

- i) $|f(x+y) - f(x)|_p \leq |y|_p$, barcha $x, y \in \mathbb{Z}_p$ lar uchun;
- ii) $|\frac{1}{y}(f(x+y) - f(x))|_p \leq 1$, barcha $x \in \mathbb{Z}_p$ va barcha $y \neq 0 \in \mathbb{Z}_p$ lar

uchun;

- ii) $f(x + p^n \mathbb{Z}_p) \subset f(x) + p^n \mathbb{Z}_p$, barcha $x \in \mathbb{Z}_p, n \geq 1$ uchun;
- iv) $f(x) \equiv f(y) \pmod{p^n}$, barcha $n \geq 1$ uchun $x \equiv y \pmod{p^n}$ bo'lganda.

1-Lipshits funksiyasi \mathbb{Z}_p da uzluksizdir.

1-lemma Aytaylik $f : \mathbb{Z}_p \rightarrow \mathbb{Z}_p$ bo'lsin. Agar f funksiya ko'rsatkichlari p -adik butun sonlar bo'lgan polinom bo'lsa, u holda bu funksiya 1-Lipshits funksiyasi bo'ladi.

$Q - p$ maydonda ratsional funksiyalar va polinomlar uchun biz ikki xil turdagi dinamik sistemani qarashimiz mumkin quyi tizimlarni topishimiz mumkin. butunlay

boshqacha dinamik xatti-harakatlarni namoyon qiladi. Ulardan biri 1-Lipschitz dinamik tizimlari va ikkinchisi p-adik repellors.

[23] da darajasi 2 va undan kichik bo'lgan polinomlar o'rganilgan.

Aytaylik $f : \mathbb{Q}_p \rightarrow \mathbb{Q}_p$ akslantirishni aniqlaydigan

$$f_{a,k}(x) = \left(\frac{ax+1}{x+a} \right)^k, a \in \mathbb{Z}_p \quad (2)$$

funksiya berilgan bo'lsin.

2-lemma (2) funksiya $k=2$ va $k=3$ uchun ixtiyoriy $x \in \mathbb{Z}_p^*$ da 1-Lipshits funksiyasi bo'ladi.

Isbot. Avval (2) funksiyani $k=2$ uchun ko'rib chiqamiz:

$$f_{a,2}(x) = \left(\frac{ax+1}{x+a} \right)^2.$$

$f_{a,2}(x)$ funksiyani (1) shartga tekshiramiz.

$$|f_{a,2}(x) - f_{a,2}(y)|_p = \left| \frac{2axy + (a^2 + 1)(x + y) + 2a}{(x + a)(y + a)} \cdot \frac{a^2 - 1}{(x + a)(y + a)} \right|_p \cdot |x - y|_p$$

$f_{a,2}(x)$ funksiya (1) shartni qanoatlantirishi uchun

$$\left| \frac{2axy + (a^2 + 1)(x + y) + 2a}{(x + a)(y + a)} \cdot \frac{a^2 - 1}{(x + a)(y + a)} \right|_p \leq 1 \quad (3)$$

bo'lishi lozim. Funksiya \mathbb{Z}_p^* to'plamda qaralganligi uchun bu to'plamdan olingan ixtiyoriy x da $|x|_p = 1$ bo'ladi. a esa butun sonlar to'plamidan bo'lganligi sababli $|a|_p \leq 1$ bo'ladi. Bunga va 1.1.5-tasdiqga ko'ra (3) tengsizlik bajarilishi kelib chiqadi.

$k=3$ bo'lgan holat ham xuddi shunga o'xshash isbot qilinadi.

Demak $f_{a,2}(x)$ va $f_{a,3}(x)$ funksiyalar \mathbb{Z}_p^* to'plamda 1-Lipshits funksiyasi bo'lar ekan.

Aytaylik bizga $D \subset \mathbb{Q}_p$ to'plam va $f : D \rightarrow \mathbb{Q}_p$ funksiya berilgan bo'lsin. (

f, D) dinamik sistemani o'rganish bu ixtiyoriy $x_0 \in D$ nuqta uchun $x_n = f^n(x_0)$, $n = 1, 2, 3, \dots$ ketma-ketlik limitini o'rganishdir. Quyidagi asosiy tushunchalarni kiritamiz.

2-ta'rif Agar $x_0 \in D$ nuqta uchun $f(x_0) = x_0$ bo'lsa, u holda x_0 nuqta (f, D) dinamik sistemaning qo'zg'almas nuqtasi deyiladi.

3-ta'rif x_0 qo'zg'almas nuqta bo'lsin. Agar uning shunday $U_r(x_0)$ atrofi topilib, ixtiyoriy $x \in U_r(x_0)$ uchun $\lim_{n \rightarrow \infty} f^n(x) = x_0$ tenglik bajarilsa, u holda x_0 nuqta tortuvchi nuqta deyiladi va

$$A(x_0) = \{x \in D : \lim_{n \rightarrow \infty} f^n(x) = x_0\}$$

to'plamni esa x_0 nuqtaning tortilish to'plami yoki atraktori deyiladi.

4-ta'rif Agar x_0 qo'zg'almas nuqta bo'lib, uning shunday $U_r(x_0)$ atrofi topilsaki, ixtiyoriy $x \in U_r(x_0)$ nuqta uchun $|x - x_0| < |f(x) - x_0|_p$ o'rinli bo'lsa, u holda x_0 nuqta itaruvchi deyiladi.

5-ta'rif x_0 nuqta $f(x)$ funksiyaning qo'zg'almas nuqtasi bo'lsin. Agar

- $|f'(x_0)|_p < 1$ bo'lsa, x_0 nuqta tortuvchi,
- $|f'(x_0)|_p = 1$ bo'lsa, x_0 nuqta betaraf,
- $|f'(x_0)|_p > 1$ bo'lsa, x_0 nuqta itaruvchi

deyiladi.

Endi (2) ko'rinishida berilgan

$$f_{a,k}(x) = \left(\frac{ax+1}{x+a}\right)^k, a \in \mathbb{Z}_p$$

funksiyaning dinamikasini $p = 2$ va $k = 2$ bo'lib $a = 1 + 2 + 2^{2n-2}, n \geq 4$ bo'lganda o'rganamiz. Bunda funksiyaning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi

$$f_{a,2}(x) = \left(\frac{ax+1}{x+a}\right)^2, a = 1 + 2 + 2^{2n-2}, n \geq 4. \quad (4)$$

Bu yerda $|a-1|_2 = \frac{1}{2}$ ekanligini aniqlaymiz. Funksiya qo'zg'almas nuqtalari esa $x_0 = 1$ va

$$x_1 = \frac{(a-1)^2 - 2 + (a-1)\sqrt{(a-1)^2 - 4}}{2} \quad (5)$$

$$x_2 = \frac{(a-1)^2 - 2 - (a-1)\sqrt{(a-1)^2 - 4}}{2} \quad (6)$$

ko'rinishda bo'ladi.

1-teorema (4) funksiyaning x_0, x_1, x_2 qo'zg'almas nuqtalar betaraf qo'zg'almas nuqtalardir.

Isbot. Aytaylik (4) funksiyaning qo'zg'almas nuqtalari x_i bo'lsin. U holda biz quyidagiga ega bo'lamiz:

$$f'_{a,2}(x_i) = \frac{2(ax_i+1)(a^2-1)}{(x_i+a)^3}. \quad (7)$$

1-hol (7) ga ko'ra biz

$$f'_{a,2}(x_0) = \frac{2(a-1)}{(a+1)}$$

ekanligini aniqlaymiz.

Endi

$$|a-1|_2 = \frac{1}{2} \text{ va } |a+1|_2 = \frac{1}{4} \text{ ekanligidan}$$

$$|f'_{a,2}(x_0)|_2 = \left| \frac{2(a-1)}{(a+1)} \right|_2 = 1$$

bo'lishi kelib chiqadi. Demak x_0 nuqta betaraf nuqta ekan.

2-hol (5) va (6) lardan foydalanib quyidagilarni hisoblab olamiz:

$$|ax_{1,2}+1|_2 = \frac{1}{4}, \quad |x_{1,2}+a|_2 = \frac{1}{4}, \quad |a-1|_2 = \frac{1}{2}, \quad |a+1|_2 = \frac{1}{4}.$$

Bu hisoblangan qiymatlarni (7) ga qo'yib

$$|f'_{a,2}(x_{1,2})|_2 = \left| \frac{2(ax_{1,2}+1)(a^2-1)}{(x_{1,2}+a)^3} \right|_2 = 1$$

bo'lishini topamiz. Bundan x_1 va x_2 nuqtalar ham betaraf nuqtalar ekanligi kelib chiqadi.

1-natija Agar $r = |2^n(a-1)|_2$ bo'lsa, u holda

$$B_r(x_1) \cap B_r(x_2) \neq \emptyset$$

bo'ladi.

Isbot. Buni isbotlash uchun $x \in B_r(x_2)$ bo'lishini ko'rsatish yetarli. (5) va (6) ga ko'ra

$$|x_1 - x_2|_2 = \left| (a-1)\sqrt{(a-1)^2 - 4} \right|_2 \leq r$$

bo'ladi. Bundan $x \in B_r(x_2)$ bo'lishi kelib chiqadi.

Endi (2) funksiyaning dinamikasini $p = 2$ va $k = 3$ bo'lganda o'rganamiz. Bu holatda (2) funksiya quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$f_{a,3}(x) = \left(\frac{ax+1}{x+a} \right)^3$$

Qo'zg'almas nuqtani topish uchun $f_{a,3}(x) = x$ tenglamani yechib: $x_1 = 1$, $x_2 = -1$ va

$$x_3 = \frac{a^3 - 3a + (a^2 - 1)\sqrt{a^2 - 4}}{2},$$

$$x_4 = \frac{a^3 - 3a - (a^2 - 1)\sqrt{a^2 - 4}}{2}$$

larga ega bo‘lamiz. x_3 va x_4 qo‘zg‘almas nuqtalar mavjud bo‘lishi uchun $a^2 - 4$ dan ildiz chiqishi lozim. 3-lemmaga ko‘ra $a^2 - 4$ dan ildiz chiqmaydi va $x_{3,4}$ nuqtalar mavjud bo‘lmaydi.

2-teorema Agar x_i ($i = \overline{1,4}$) lar $f_{a,3}(x)$ funksiyaning qo‘zg‘almas nuqtalari bo‘lsa, u holda quyidagilar o‘rinli:

(i) $x_1 = 1$ uchun $a \in 2Z_2$ da tortuvchi, $a \in Z_2^*$ da betaraf,

(ii) $x_2 = -1$ uchun $a \in 2Z_2$ da tortuvchi, $a \in Z_2^*$ da itaruvchi.

Isbot. $f'_{a,3}(x) = \frac{3(a^2 - 1)(ax + 1)^2}{(x + a)^4}$ bo‘lishini topib olamiz. Berilgan sonlar

to‘plami uchun quyidagilarni aniqlaymiz:

(i) $a \in 2Z_2$ da, $|a|_2 \leq \frac{1}{2}$, $|a - 1|_2 = 1$, $|a + 1|_2 = 1$ bo‘ladi, (8)

(ii) $a \in Z_2^*$ da, $|a|_2 = 1$, $|a - 1|_2 \leq \frac{1}{2}$, $|a + 1|_2 \leq \frac{1}{2}$ bo‘ladi.

1-hol. $x_1 = 1$ uchun $f'_{a,3}(1) = \frac{3a(a - 1)}{(a + 1)^2}$ bo‘ladi. $a \in 2Z_2$ da (8) ga ko‘ra

$$|f'_{a,3}(1)|_2 = \left| \frac{3a(a - 1)}{(a + 1)^2} \right|_2 < 1$$

bo‘lishi kelib chiqadi. $a \in Z_2^*$ da esa

$$|f'_{a,3}(1)|_2 = \left| \frac{3a(a - 1)}{(a + 1)^2} \right|_2 = 1$$

bo‘ladi.

2-hol. $x_1 = -1$ uchun $f'_{a,3}(-1) = \frac{3a}{a - 1}$ bo‘ladi. $a \in 2Z_2$ da (8) ga ko‘ra

$$|f'_{a,3}(-1)|_2 = \left| \frac{3a}{a - 1} \right|_2 < 1$$

bo‘lishi kelib chiqadi. $a \in Z_2^*$ da esa

$$|f'_{a,3}(-1)|_2 = \left| \frac{3a}{a - 1} \right|_2 > 1$$

bo‘ladi.

Aytaylik,

$$f_{a,b,k}(x) = \left(\frac{ax + 1}{x + b} \right)^k, \quad a, b \in Q_2. \quad (9)$$

bo‘lsin.

$f_{a,b,k}(x)$ funksiyaning "barcha maxsus nuqtalari to'plamini" quyidagicha belgilaymiz:

$$P(f_{a,b,k}) = \bigcup_{n \geq 1} f_{a,b,k}^{-n}(-b).$$

3-teorema Aytaylik, $a, b \in B_{\frac{1}{2}}(1)$ va $f_{a,b,k}(x)$ funksiya (9) ko'rinishida aniqlangan bo'lsin. U holda quyidagilar o'rinli:

(i) agar $x \notin Z_2^* \setminus B_{\frac{1}{2}}(1)$ bo'lsa, u holda $f_{a,b,k}(x) \in B_{\frac{1}{2}}(1)$ bo'ladi;

(ii) agar k juft va $x \neq -b$ bo'lsa, u holda $f_{a,b,k}^2(x) \in B_{\frac{1}{2}}(1)$ bo'ladi;

(iii) agar k toq va $x \notin K \cup \{-b\}$ bo'lsa, unda $f_{a,b,k}^2(x) \in B_{\frac{1}{2}}(1)$ bo'ladi, bu yerda

$$K = 3 + 4Z_2^*$$

Natija Aytaylik, $a, b \in B_{\frac{1}{2}}(1)$ va $f_{a,b,k}(x)$ funksiya (9) ko'rinishida aniqlangan bo'lsin. U holda

$$P(f_{a,b,k}) \subset \begin{cases} \emptyset, & \text{agar } k \text{ juft,} \\ K, & \text{agar } k \text{ toq} \end{cases}$$

bo'ladi. Bu yerda $K = 3 + 4Z_2^*$.

4-teorema Agar $a, b \in B_{\frac{1}{2}}(1)$ va $f_{a,b,k}(x)$ funksiya (9) ko'rinishida aniqlangan bo'lsin. U holda quyidagilar o'rinli:

(i) agar k juft va $x \neq -b$ bo'lsa, u holda $\lim_{n \rightarrow \infty} f_{a,b,k}^n(x) = 1$ bo'ladi,

(ii) agar k toq va $x \notin K \cup \{-b\}$ bo'lsa, u holda $\lim_{n \rightarrow \infty} f_{a,b,k}^n(x) = 1$ bo'ladi.

Xulosa

p -Adik dinamik sistemalar nazariyasi dinamik sistemalar, nazariy fizika, sonlar nazariyasi, algebraik geometriya va noarximed analizlar chegaralarida intensiv rivojlanayotgan yangi yo'nalish hisoblanadi. Odatiy dinamik sistemalarni haqiqiy sonlar maydoni va kompleks sonlar maydoni ustida o'rganilgan. Bunda avval dinamik sistemalar chekli maydonlarda o'rganilgan va bu izlanishlarda sonlar nazariyasidan keng qo'llanilgan. p -Adik dinamika mavjud dinamikani xuddi qoldiqning modul sinflari maydoni ga tabiiy umumlashmasi sifatida kengaytirilgan. Algebraik geometriyada haqiqiy va kompleks sonlar maydoni hal qiluvchi rolni o'ynamaydi. Barcha geometrik strukturalar xuddi shunday noarximed maydonlar ustida ham bajarilishi mumkin: ya'ni kuchli uchburchak tengsizligi bajariladigan maydonlar uchun. p -Adik sonlar maydoni ham noarximed bo'lishini takidlab o'tamiz. Shuning

uchun algebraik geometrika bilan shug'ullanayotganlar uchun ba'zi matematik strukturalarni noarximed holatlariga umumlashtirishga urinishini tabiiy hol sifatida ko'rish mumkin. Ba'zan bajarilayotgan kengaytirishlar algebraik geometriya maydoni strukturalaridan chiqib ketishi ham mumkin. Masalan, noarximed maydonidagi dinamika.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ayupov Sh.A., Turgunbayev R.M. p-Adik analizga kirish. Toshkent-2019
2. O.N.Hakimov, I.A.Sattorov p-Adik analiz asoslari. Toshkent-2020
3. W. H. Schikhof, Ultrametric calculus. An introduction to p-adic analysis, Cambridge Stud. Adv. Math., vol. 4, Cambridge Univ. Press, Cambridge 1984.
4. N. Koblitz, p-adic numbers, p-adic analysis, and zeta-functions, Mir, Moscow 1982; English transl., Grad. Texts in Math., vol. 58, Springer-Verlag, New York–Heidelberg 1977.

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВА УНИНГ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Суюнов Беҳзод Баходирович

Мустақил тадқиқотчи bbbsuyunov93@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада сунъий интеллект тушунчаси, унинг ривожланиш даврлари, асосий тамойиллари шунингдек, сунъий интеллект ва сиёсий жараёнлар ўртасидаги боғлиқлик ҳамда қўллаш йўналишлари таҳлил этилган. Шунингдек, давлат сиёсатининг муҳим қисми сифатида сиёсий жараёнларда сунъий интеллект технологияларидан фойдаланиш йўналишлари ўрганилган.

Бундан ташқари, мақолада сиёсатшуносликда хусусан, сиёсий жараёнларда сунъий интеллектни қўллашга оид мулоҳазалар илмий жиҳатдан етарли даражада ўрганилмаганлиги ўз навбатида, ушбу мавзуга оид тадқиқот ишларининг кўпайишига хизмат қилиши келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: Интеллект, эксперт тизими, чат-бот, машинавий ўқитиш, чуқур ўрганиш, робототехника, гуманоид, сайлов компанияси, манипуляция, дезинформация.

КИРИШ

Сўнги 20 йилликда жаҳон мамлакатлари ўртасида илм-фан жадал ва шиддат билан ривожланиб сунъий интеллект асосида юқори техник ҳамда технологик “қуролланиш” ортиб бормоқда. Тадқиқотлар, таҳлилий маълумотларга кўра, ахборот технологиялари ва сунъий интеллект яқин келгуси йилларда глобал иқтисодий ўсишнинг асосий “ёқилғиси” ҳамда дунё ялпи ички маҳсулотининг асосий қисмини ташкил этишини кўрсатмоқда.

Инсоният сунъий интеллект ёрдамида ХХІ аср глобал муаммоларига ҳамда илм-фанда янги имкониятларни кашф этиши орқали ижобий ечимлар топиши билан бир қаторда ҳаёт тарзининг давлат бошқаруви, тиббиёт, таълим, энергетика, қишлоқ хўжалиги, шаҳарсозлик ва бошқа барча соҳаларда сифатли хизмат кўрсатиш имкониятларига эришади.

Сунъий интеллект атамасининг кўплаб таърифлари мавжуд бўлиб, умумлаштирган холда, уни инсоннинг мантикий ва ижодий функцияларини бажарувчи интеллектуал сунъий тизим деб аташ мумкин.

Дунёнинг етакчи мамлакатлари сунъий интеллект технологияларини катта ҳажмдаги маълумотларни таҳлил қилиш, воқеа – ҳодисаларни олдиндан башорат қилиш ва ташқи сиёсат стратегиясини белгилаш билан боғлиқ сиёсий фаолиятнинг турли соҳаларида қўллашни бошлаганлар. Сунъий интеллект

технологияларидан ижобий мақсадларда фойдаланиш давлат бошқаруви самарадорлигини сезиларли даражада оширишга ҳамда мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланишга ёрдам беради.

АСОСИЙ ҚИСМ

Компьютерлар ихтиро қилинган, уларнинг турли хил вазифаларни бажариш қобилияти сезиларли даражада кенгайди. Жумладан, нутқни тинглаш, тушуниш, матнни ўқиш, чизмалар ва видеофайллардаги нарсаларни таниб олиш, ҳайдовчисиз транспорт воситаларини бошқариш, шеърлар яратиш, мусиқа ёзиш, одамларнинг ҳис-туйғуларини таниб олиш каби мураккаб вазифалар компьютерга ўтказилди. “Сунъий интеллект” атамаси аслида илмий ва амалий тадқиқотларнинг кенг қамровли соҳасини тавсифлаш учун ишлатилади. Ушбу соҳадаги изланишлар кўпроқ ақлли роботлар ёки фикрлайдиган компьютерлар билан боғлиқ бўлиб, улар ҳақидаги тасаввурлар илмий-фантастик асарларда тасвирланган.

Инсон ер юзидаги энг мураккаб объект бўлиб, унинг асосий хусусияти фикрлаш қобилияти ҳисобланади.

Сунъий интеллект – инсон хусусиятларини ўрганиш ва моделлаштиришга қаратилган фан, яъни инсон онги билан бевосита боғлиқ тизимдир (тилни тушуниш, ўрганиш, фикрлаш қобилияти, муаммоларни ҳал қилиш ва бошқалар)¹.

Инсон ақлига хос нарсани яратиш ва ундан мураккаб ишларда фойдаланиш мақсади қадимдан кишиларни ўйлантириб келган. Тарихда инсон онгини моделлаштириш орқали ускуна яратишга бўлган биринчи уриниш XIV асрда яшаган испан шоири Раймонд Лулл номи билан боғлиқ. XVIII асрда яшаган Г.Лейбниц ва Р.Декарт бир-биридан мустақил ҳолда ҳамма фанлар бўйича универсал тил таклиф этишган. Ушбу таклифлар кейинчалик сунъий интеллект ривожига асос бўлган.

Инсон мияси ҳақидаги умумий фикр шундан иборатки, у ниҳоятда мураккаб бўлиб, кўп қисми ҳали ҳам олимлар ва тадқиқотчиларнинг тушунчасидан четда қолмоқда. Ақл ва билиш, идрок этиш каби мавзулар ҳар бир инсонда турлича намоён бўлганлиги сабабли, уни тушуниш ва аниқлашда турли қийинчиликларни келтириб чиқаради. Интеллектнинг турли хил таърифлари мавжуд масалан, интернет маълумотларига кўра, интеллект – маълумотларни қабул қилиш, идрок этиш, қайта ишлаш ёки тақдим этиш, шунингдек уни атроф-муҳит билан ўзаро муносабатда фойдаланиш учун билим шаклида сақлаш қобилияти деб таърифланади.

¹ Ясницкий Л.Н. “Введение в искусственный интеллект” учебное пособие // Москва – 2010. – 6 с.

Интеллект бўйича берилган ушбу таъриф маълум муҳит мавжудлигини англатади. Инсон ақл-идрокини кўриб чиқадиган бўлсак, биз одатда муҳит сифатида жамиятни тушунамиз. Инсон яшаётган жамиятнинг бошқа аъзолари томонидан қабул қилиниши ҳамда жамият яратган муҳитда гуллаб-яшнаши учун нимани ва уни қандай бажариши муҳим ҳисобланади.

Юқоридагиларни инобатга олиб, **сунъий интеллект** (artificial intelligence) – инсоннинг билим ва кўникмаларига тақлид қилиш имконини берувчи (мустақил равишда ўрганиш ва ечимларни излаш) ва аниқ вазифаларни бажаришда инсон интеллектуал фаолияти натижалари билан таққосланадиган натижаларни олиш имконини берадиган технологик ечимлар мажмуи ҳисобланади.

Замонавий дунёда сунъий интеллект тобора муҳим ва кенг қамровли бўлиб бормоқда. У тиббиёт ва транспортдан тортиб, молия, бошқарув, сиёсат ва шу каби ҳаётимизнинг барча соҳаларига кириб келмоқда.

Сунъий интеллектнинг фан йўналиши сифатида ривожланиши электрон ҳисоблаш машиналари пайдо бўлганидан кейинги даврга тўғри келади (XX асрнинг 40-йиллари). Қуйида сунъий интеллектнинг ривожланиш босқичларини кўриб чиқамиз:

1) Сунъий интеллект ҳақида дастлабки тасаввурларнинг юзага келиши (1943-1952 йй):

- 1943 йилда Уоррен Маккуллох ва Валтер Питс дастлабки сунъий интеллектга доир изланишлар олиб борди ҳамда сунъий нейронларнинг модели яратилди;

- 1949 йилда Доналд Хэбб томонидан нейронлар орасидаги алоқа кучини ўзгартириш орқали ушбу модел такомиллаштирилди ҳамда “Hebbian learning” деб номланди;

- 1950 йилда инглиз математиги Алан Тюринг “ҳисоблаш машинаси ва интеллект” мақоласини нашр этди. Бунда олим машинанинг инсон интеллектига тенг хатти-ҳаракатларини намойиш қилиш қобилиятини текшира оладиган тестни таклиф қилди. Ушбу тест тарихда “Turing” тести номини олган.

2) Сунъий интеллектнинг яратилиши (1952-1956 йй):

- 1955 йил Аллен Хевелл ва Герберт Симон томонидан “мантик назариётчиси” деб ном олган биринчи сунъий интеллект дастури яратилди. Ушбу дастур 52 та математика теоремаларидан 38 тасини исботлаган ва баъзи теоремаларга янги далилларни топган;

- 1956 йил АҚШда ўтказилган Дартмут конференциясида “сунъий интеллект” атамаси биринчи марта америкалик олим Джон Маккарти томонидан қўлланган. Шу йили сунъий интеллект соҳаси фан йўналиши сифатида пайдо бўлган;

Шунингдек, “FORTRAN”, “LISP” ва “COBOL” каби юқори даражадаги компьютер тиллари яратилган ҳамда бу соҳага бўлган қизиқиш юқори бўлган.

3) Сунъий интеллект ривожланишининг дастлабки йиллари (1956-1974 йй):

- 1966 йил тадқиқотчилар томонидан асосий эътибор математик вазифаларни еча оладиган алгоритмларга қаратилди. Шу йили америкалик олим Жозеф Вайзенбаум томонидан “ELIZA” деб номланган биринчи виртуал суҳбатдош “Chatbot” яратилди;

- 1972 йил Япониянинг Васэда университетида юкларни кўтаришга мўлжалланган “WABOT-1” номли биринчи гуманоид робот яратилган. У юкларни олиб юриш билан бир вақтда, япон тилида мулоқот қилиши, масофани ҳисоблаш, ҳаракат йўналишини танлаш қобилиятига эга бўлган.

4) Сунъий интеллект ривожланишидаги пасайиш йиллари (1974-1980 йй, 1987-1993йй):

1974 йилдан - 1980 йилгача бўлган вақтда сунъий интеллект соҳасидаги тадқиқот ишларида пасайиш кузатилди. Бунга асосий сабаблардан бири сифатида, давлатлар томонидан молиявий маблағларнинг кам миқдорда ажратилганлиги ёки умуман ажратилмаганлиги бўлган;

1987 йилдан - 1993 йилгача бўлган вақтда сунъий интеллект соҳасидаги тадқиқот ишларида яна пасайиш кузатилди. Сунъий интеллект соҳасидаги тадқиқот ишлари юқори харажат талаб этиши ҳамда кутилган натижани бермаганлиги сабабли, давлатлар молиялаштиришни яна тўхтатган.

5) Сунъий интеллект ривожланишининг юқори даражаси (1980-1987 йй):

- 1980 йилда АҚШнинг Стенфорд университетида Америка сунъий интеллект Ассоциациясининг биринчи миллий конференцияси бўлиб ўтди.

Шу йили сунъий интеллект соҳасида муаммоли вазиятни ҳал қилишда мутахассисни қисман алмаштириши мумкин бўлган “эксперт тизимлари” яратилди. “Эксперт тизими”нинг энг муҳим қисми мавжуд билим базалари асосида мантиқий хулоса ва қарор қабул қилиш жараёни, бошқача қилиб айтганда, мантиқий хулоса чиқариш учун маълум соҳадаги фактлар ва қоидалар тўпламидир.

7) Ақлли агентларнинг пайдо бўлиши (1993-2011 йй):

- 1997 йилда “IBM Deep Blue” суперкомпьютери шахмат бўйича жаҳон чемпиони Гарри Каспаровни мағлуб этди ҳамда жаҳон чемпионини мағлубятга учратган биринчи суперкомпьютер бўлди;

- 2002 йилда АҚШнинг Массачусет технология институти томонидан хонадонларни тозалашга мўлжалланган ақлли робот чангютгич “Roomba” яратилди;

Шунингдек, сунъий интеллект бизнес оламига кириб келди. “Facebook”, “Твиттер” ва “Netflix” каби компаниялар сунъий интеллектдан фойдаланишни бошладилар.

8) Чуқур ўрганиш, катта ҳажмдаги маълумотлар билан ишлаш ва сунъий умумий интеллект (2011 йилдан ҳозирги вақтгача)

- 2011 йилда “IBM” компаниясининг “Watson” компютери “Jeopardy” ўйин викторинасида (*иштирокчилар умумий саволларга жавоб беришади, бунда ҳар бир савол маълум бир мавзу бўйича баёноат шаклида тақдим этилади ва иштирокчи ўз жавобини керакли объектни номлаб, савол шаклида бериши талаб этилади*) да қийин саволлар ва топишмоқларга жавоб бериб, ғолиб чиқди. Компютер табиий тилни тушунишини ва қийин саволларни тезда идрок қила олишини исботлади.

- 2012 йилда “Google” компанияси “Android” операцион тизими учун фойдаланувчига башорат шаклида маълумот бериши мумкин бўлган “Google now” иловасини ишга туширди;

- 2013 йилда расмларни саралаш бўйича тадқиқотлар амалга оширилди. Олимлар ўз-ўзини ўрганиш тизими яратишди, яъни компьютерга миллионлаб тасвирларни тақдим этиш орқали ушбу расмлар нимани англатиши бўйича изоҳларни олиш имкониятига эга бўлдилар.

- 2014 йилда Россияда яратилган “Юджин Густман” номли “Chatbot” “Turing” тестида юқори натижани қўлга киритди;

- 2018 йилда “OpenAI” компанияси томонидан реал вақт режимида ишлай оладиган ҳамда табиий тилларда берилган матнли ва овозли сўровларни қайта ишлаш ҳамда диалог форматида жавоб бериш имконига эга бўлган GPT-1 моделини яратди. *Бугунги кунгача ушбу компания томонидан катта ҳажмдаги ёки мураккабликдаги матнли ва овозли маълумотларни 26 тилларда қайта ишлаш қобилиятига эга 2019 йилда GPT-2, 2020 йилда GPT-3 ҳамда 2023 йилда GPT-4 моделлари яратилган.*

- 2020 йилда “IBM” компаниясининг реал вақт режимида инсонлар билан мураккаб мавзуларда мунозаралар ўтказиш қобилиятига эга бўлган сунъий интеллект тизими “Project Debater” лойиҳаси яратилди ҳамда юқори натижаларни кўрсатди.

Юқордидагилардан келиб чиқиб, куйидагича хулоса қилишимиз мумкин, бугунги кунда сунъий интеллектнинг учта тури мавжуд: заиф (Narrow AI), кучли (Strong AI or AGI) ва супер (Super AI).

Заиф турдагилари деярли барча соҳаларда қўлланилади (масалан, овозли ёрдамчилар, ижтимоий тармоқлардаги рекламалар, юзни аниқлаш, мобил иловаларда ва ҳ.к). Заиф сунъий интеллект бугунги кунда мавжуд бўлган ягона тизимдир.

Кучли турдагилари инглиз математики Алан Тюрингнинг классик таърифига кўра, инсон қобилиятларини кўпроқ ўзлаштирган ва ўз-ўзини англаган бўлиши келтириб ўтилган.

Бундан ташқари, мутахассислар кучли (Strong AI or AGI) турдаги сунъий интеллект технологиялари тахминан 2070 йилгача шаклланишни башорат қилганлар.

Супер турдагилари нафақат инсон қобилиятларини кўпроқ ўзлаштириши, балки барча соҳаларда инсон онгидан устун бўлиши мумкин.

Шунингдек, сунъий интеллект технологияси ўзини қайта дастурлаши, такомиллаштиришда давом этиши ҳамда ўз-ўзига янги тизимлар ва алгоритмларни ишлаб чиқиши мумкин.

Мавжуд манбаларда сунъий интеллектнинг турли хил ишлаш тамойиллари берилган²:

➤ **Машинавий ўқитиш** – компьютер тизимлари самарадорлигини ошириш мақсадида, маълумотлар ва тажрибага асосланган ҳолда ўқитиладиган усул. У компьютерларга аниқ дастурлаштирилган алгоритмлар асосида ишлашдан кўра, маълумотларни ўрганиш ва тажриба орқали яхшилашни ўргатиш учун мўлжалланган. Регрессия, таснифлаш, кластерлаш ва нейрон тармоқлари каби турли хил машинавий ўқитиш алгоритмлари мавжуд.

Машинавий ўқитиш жараёнида алгоритмлар катта маълумотлар тўпламида қонуният ва ўзаро боғлиқликни топишни ўрганади шунингдек, оптимал қарорлар қабул қилади ва таҳлиллар асосида прогнозлар яратади. Машинавий ўқитиш дастурлари кўп фойдаланилиб, маълумотлар ҳажми ошган тақдирда, бу дастур яхши натижа беради;

➤ **Чуқур ўрганиш (Deep learning)** – маълумотларни қайта ишлаш учун кўп сонли қатламларга эга нейрон тармоқларидан фойдаланадиган машинавий ўқитиш. Чуқур ўрганиш компьютерларга тасвирларни таниб олиш, табиий тилни қайта ишлаш ва бошқа мураккаб вазифаларни бажариш имконини беради. Катта ҳажмдаги маълумотлар бўйича ўқитиш нейрон тармоғида нейронларни ўрнатиш мумкин. Натижада, янги маълумотларни қайта ишлай оладиган чуқур ўрганиш модели шаклланади. Чуқур ўрганиш моделлари турли манбалардан маълумот олади ва бу маълумотларни инсон аралашувисиз реал вақтда таҳлил қилади. Чуқур ўрганиш тасвирлардан маълумот олишда, таржима қилишда, аудио ёзувлар ва инсон нутқини таниб олишда қўлланилади;

➤ **Эксперт тизимлари** – қарор қабул қилиш учун маълум бир соҳадаги мутахассисларнинг билимларидан фойдаланадиган дастурлар. Улар маълум қоидалар ва мантиққа асосланган бўлади. “Эксперт тизими”нинг энг муҳим

² Искусственный интеллект: определение, принципы и влияние на общество // Научные Статьи.Ру — портал для студентов и аспирантов. — 2023г. C:/Users/Professional/Desktop/1.1

қисми мавжуд билим базалари асосида мантиқий хулоса ва қарор қабул қилиш жараёни, бошқача қилиб айтганда, мантиқий хулоса чиқариш учун маълум соҳадаги фактлар ва қоидалар тўпламидир;

➤ **Табиий тилни қайта ишлаш (Natural Language Processing, NLP)** – инсоннинг табиий тилини таҳлил қилиш, тушуниш ва яратиш билан шуғулланадиган сунъий интеллект соҳаси. Бунга нутқни аниқлаш, таржима қилиш ва матнни таҳлил қилиш каби вазифалар киради. Табиий тилни қайта ишлаш фан сифатида компьютер лингвистикаси ва машинавий ўқитиш технологияси кесишган жойларида юзага келади. Табиий тилни қайта ишлаш ёрдамида компьютерларга суҳбат ўтказиш, саволларга жавоб бериш, матнни турли тилларга таржима қилиш ёки уларни қайта яратиш вазифалари ўтказилади;

➤ **Робототехника** – роботларни яратиш ва дастурлаш билан шуғулланадиган сунъий интеллект соҳаси. Роботлар атроф-муҳит билан ўзаро алоқада бўлишга ва турли вазифаларни бажаришга имкон берадиган сенсорлар ва дастурий таъминот билан жиҳозланади. Роботлар олдиндан ўрнатилган дастурларга мувофиқ ҳаракат қилиб, сенсорлар, камералар (тирик организмлар сезги органларининг аналоглари) ёрдамида ташқи дунё ҳақида маълумот олади ҳамда одатда инсонлар (ёки ҳайвонлар) томонидан бажариладиган ишларни мустақил равишда бажаради. Бундай ҳолда, роботлар оператор билан алоқа ўрнатиши (ундан буйруқлар олиши) ёки мустақил ҳаракат қилиши мумкин.

Ушбу тамойиллар сунъий интеллектга вазифани англашдан тортиб қарор қабул қилиш жараёнларини автоматлаштиришгача бўлган турли вазифаларни бажаришга имкон беради.

Сиёсий жараён ва сунъий интеллект ўртасидаги ўзаро боғлиқлик замонавий сиёсат ривожланишининг муҳим жиҳати сифатида қаралади. Сунъий интеллект сиёсий жараёнларнинг табиати ва самарадорлигини кўп жиҳатдан ўзгартириш имкониятига эга.

Сиёсий жараёнлар – жамиятнинг сиёсий ҳаётида турли хилдаги воқеа - ҳодисаларнинг рўй бериб туриши, уларнинг объектив қонуниятлар ҳаракати асосида давом этиши ва шу асосда жамиятнинг сиёсий жиҳатдан ривожланиб боришидир.

Сиёсий жараёнларнинг турли давр олимлари томонидан берилган ҳар хил таърифлари мавжуд. Аммо унинг моҳияти ягона, яъни сиёсий жараёнлар жамият ва сиёсат ёки шахс ва сиёсат муносабатидир. Кенг маънода эса сиёсий жараёнлар жамиятнинг сиёсий фаолиятидир. Жамиятнинг сиёсий ҳаётида содир бўладиган барча ҳаракатлар оқими яхлит жараёндир.

Сиёсий жараёнлар таркибини қуйидагича кўришимиз мумкин:

1) Сиёсий муносабатлар – субъектларнинг ҳокимият доирасидаги сиёсий манфаатларини бошқариш ва мувофиқлаштириш борасидаги алоқалари. Сиёсий


муносабатларнинг амалга ошиши натижасида сиёсий жараённинг янгилиниши, сиёсий ғоялар, билимлар, тажриба, қадриятлар, ахборот ва ҳ.к., шунингдек, сиёсий фаолият шакллари ва усулларининг тўпланиши ва узатилиши рўй беради;

2) Сиёсий жараён субъектлари(иштирокчилари)га шахслар, қатламлар, этнослар, конфессионал ва демографик гуруҳлар (ижтимоий) ва сиёсий институтлар киради. Иккита муҳим жиҳатни бирлаштиради:

Онглилик ва фаоллик;

3) Сиёсий хулқ-атвор – шахс ижтимоий гуруҳларнинг сиёсий ҳокимиятни амалга оширишда, ўз сиёсий манфаатларини ҳимоя қилишда иштирок этиш шакли. Сиёсат субъектларининг сиёсий муносабатларга жалб қилинганлиги.

Сиёсий жараёнларнинг асосий хусусияти шундаки, уларни яхлит бир тизим ҳолида ўрганиб бўлмайди. Сиёсий жараёнлар ўз характериға кўра икки гуруҳга бўлинади:



Сиёсий жараёнларнинг бу икки гуруҳи нафақат ўзининг таъсир доираси ва унда қатнашувчилар кўлами билан, балки шаклланиш моҳияти, мақсад ва вазибалари ҳамда натижалари билан фарқланади.

Умумий сиёсий жараёнлар бутун жамиятни қамраб олади ва жамиятда мавжуд сиёсий тизимнинг ўзгаришига олиб келади. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, умумий сиёсий жараёнлар хусусий сиёсий жараёнларнинг йиғиндиси эмас. У хусусий сиёсий жараёнлардан нафақат таъсир доираси ва кўлами билан, балки ўз мазмун-моҳияти ва шаклиға кўра ҳам фарқ қилади.

Эволюцион шакл – сиёсий жараёнларни аста-секин, босқичма-босқич амалга оширишдан иборат бўлиб, сиёсий жараёнларнинг энг асосий ва нисбатан кенг тарқалган шакли ҳисобланади. Ушбу ўзгаришлар маълум давр шароитида жамиятда сиёсий жараёнларнинг амалга оширилишида сиёсат субъектлари ва фуқаролар ўртасида кескин фарқларни вужудға келтирмайди.

Сиёсий тизимнинг миқдор ва сифат ўзгаришида эволюцион жараёнлар энг маъқул йўлни танлашда ва барқарор ривожланишни таъминлашда катта

аҳамиятга эга. Сиёсий жараёнларнинг эволюцион даврида аҳоли барча қатламларининг манфаатлари ҳисобга олинади, мавжуд муаммоларни имкон даражада ҳал этиш устувор ва мақбул усул ҳисобланади.

Сиёсий жараёнларнинг революцион шаклида ривожланиши жамият ҳаётини тубдан ва кескин ўзгартиришга, яъни давлат тўнтарилишига олиб келиши мумкин. Сиёсий инқилобда куч ишлатиш, қурол йўли билан давлат ҳокимиятини ўзгартириш каби кескин хатти-ҳаракатлар амалга оширилади. Натижада, мавжуд барча сиёсий органлар фаолияти тўхтатилади.

Тарихий тажрибадан маълумки, инқилобий шаклда ривожланган сиёсий жараёнларда, кўпинча эришилган ютуқлардан кўра жамиятнинг зарар кўрган ҳолатлари ва йўқотишлар кўпроқ учраб туради.

Сиёсий жараённинг учинчи шакли сиёсий инқироз бўлиб, унинг асосий кўрсаткичи – қарама-қаршилик, келишмовчилик, тўқнашув ва зиддиятлар натижасида ҳокимият структурасини назорат қилишнинг йўқолишидир. Сиёсий жараённинг бундай шароитида сиёсий институтлар ўртасида мутаносиблик бузилади, натижада, аҳолининг амалга оширилаётган сиёсий жараёнлардан норозилиги кучаяди.

Сиёсий жараёнларнинг инқилобий ва инқироз ҳолатларининг вужудга келишига аниқ сабаблар ва омиллар ўз таъсирини кўрсатади. Инқирознинг негизи иқтисодий ва ижтимоий соҳада намоён бўлади.

Шунинг учун ислохотларни амалга ошириш чоғида барча соҳаларни эътиборга олиш тақозо этилади. Албатта, иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий соҳалардаги ўзгаришлар сиёсий жараёнларга ёки ижобий ёки салбий таъсир этиши мумкин.

Хусусий сиёсий жараёнлар жамиятда муаммо ва қарама-қаршиликларнинг пайдо бўлиши ва уларнинг ўз ечимларини талаб қилишлари натижасида пайдо бўлади. Масалан, бирон-бир давлатнинг солиқ тизимидаги норозилик қонунчилик фаолиятига ўз таъсирини кўрсатади. Бундай муаммолар кичик бир гуруҳ ёки кенг жамоатчиликнинг фикрини, манфаатларини ифода этиши мумкин.

Хусусий сиёсий жараёнларнинг объектлари деганда сиёсий жараёнларни ривожлантирадиган муаммолар назарда тутилади. Улар турли соҳадаги муаммолар бўлиши мумкин: 1) бирор-бир сиёсий (мақсадларнинг) манфаатларнинг пайдо бўлиши ва уларни амалга оширишнинг зарурлиги; 2) янги сиёсий институтлар, партиялар, ташкилотлар, ҳаракатлар, блоклар ташкил этиш; 3) ҳокимият таркибини қайта ташкил этиш, ҳокимият тизимидаги сиёсий ўзгаришлар, ҳукумат таркибининг қайта тузилиши; 4) мавжуд сиёсий ҳокимиятни қўллаб-қувватлаш, қайта ташкил этиш ва бошқалар.

Юқоридаги жараёнларнинг моҳиятини тушуниш учун сиёсий жараёнларда қатнашадиган субъектларнинг мақсад ва вазифаларини билиш лозим. Айтиш жоизки, хусусий сиёсий жараёнлар фақатгина сиёсий соҳага тегишли эмас. У жамиятнинг ҳар қандай иқтисодий, сиёсий, маънавий ва маданий соҳаларида ҳам пайдо бўлиши ва ривожланиши мумкин (масалан, иқтисодий ёки ижтимоий муаммонинг сиёсий муаммога айланиб кетиши).

Умуман олганда, сиёсий жараёнлар жамиятда сиёсий тизимни шакллантириш, амалга ошириш ва ўзгартиришга йўналтирилган бўлади. Сиёсий жараёнлар жамиятдаги турли хил ижтимоий гуруҳлар (сиёсатнинг микро ва макроактёрлари)нинг ўз манфаатларини амалга оширишга бўлган ҳаракатлари натижасида ривожланади. Жамиятдаги жуда кўп омилларга боғлиқ равишда сиёсий жараёнлар ривожланиб боради.

Сиёсий жараёнларда сунъий интеллектдан фойдаланиш сиёсий қарорлар қабул қилиш, сиёсий коммуникацияни самарали амалга ошириш, мақсадли стратегиялар ишлаб чиқиш ва жамият ривожланиши тенденцияларини башорат қилишда самарадорликни ошишига хизмат қилади. Ўрганиш натижаларига кўра, сиёсий жараёнларга сунъий интеллект технологияларини жорий этиш орқали самарали натижага эришиш мумкин бўлган йўналишлар қуйидагилар:

▪ **Сайлов компанияларида** – асосан ижтимоий тармоқлар ва бошқа манбаларни, шунингдек сайловчиларнинг овозларини таҳлил қилиш орқали уларни яхшироқ тушуниш ва мақсадли стратегияларни ишлаб чиқиш учун;

▪ **Сайлов натижаларини башорат қилиш** – сайловчиларни ҳоҳиш-истаклари, жамоатчилик фикри ва бошқа маълумотларни таҳлил қилиш асосида сайлов натижаларини башорат қилиш учун;

Бундан ташқари, сиёсий ривожланиш тенденциялар, сайлов натижалари ва турли сиёсий воқеаларга жамиятнинг муносабатини башорат қилиши мумкин. Машинавий ўқитиш алгоритмлари ўтмишни экстраполяция қилиш орқали сиёсий сценарийлар ишлаб чиқиш ёки унинг ривожланишини башорат қилиш учун;

▪ **Жамоатчилик фикрини ўрганиш ва таҳлил қилиш** – ижтимоий тармоқлар, янгиликлар манбалари ва оммавий сўровлардан олинган катта ҳажмдаги маълумотларни таҳлил қилиш орқали турли сиёсий масалалар бўйича жамиятнинг фикрлари ва ҳис-туйғуларини билиш учун;

▪ **Сиёсий қарор қабул қилиш** – сиёсий раҳбарга оптимал ечимларни аниқлаш, шунингдек турли сценарийлар ва уларнинг оқибатларини моделлаштириш учун;

Бу эса ўз навбатида, сиёсатчиларга асосли ва ишончли қарорлар қабул қилишда ёрдам беради.

▪ **Дезинформация (ёлгон хабарлар билан чалгитиш)**га қарши кураш – сунъий интеллект алгоритмлари сохта (фейк) янгиликлар, дезинформация ва манипуляцияни аниқлаш учун;

Ушбу орқали, сифатли ахборот муҳитини яратиш, уни сақлаш ва асосли маълумотлар орқали қарор қабул қилишга эришилади.

Шу билан бирга, сиёсий жараёнда сунъий интеллект технологияларидан фойдаланиш шаффофлик, этика ва маълумотлар хавфсизлиги масалаларини тартибга солишни назарда тутаяди, бу эса ушбу технологиядан адолатли ва самарали фойдаланишни таъминлашга жиддий эътибор қаратишни талаб қилади.

ХУЛОСА

Сунъий интеллект ўз ичига алгоритмлар, усуллар, техникалар ва моделларни қамраб оладиган мураккаб ва кўп қиррали соҳадир. Ушбу жиҳатларни тушуниш сунъий интеллектни янада ривожлантириш ва уни инсон фаолиятининг турли соҳаларида қўллаш учун калит ҳисобланади. Бу соҳадаги тадқиқотлар инсон ҳаётининг турли жабҳаларидаги муаммоларни ҳал қилиш учун сунъий интеллектдан фойдаланишнинг янги истиқболларини очаяди.

Сунъий интеллектнинг сиёсий жараёнларга таъсири ижобий, ўз навбатида, қарор қабул қилиш ва бошқарув сифатини яхшилашга, шунингдек салбий, сохта маълумотлар яратиш, манипуляция ва жамоатчилик фикрига таъсир қилишда кўринади. Ушбу технологиялардан ижобий мақсадларда фойдаланиш учун давлат томонидан маълум тартиб ва қоидалар белгиланиши ҳамда назоратга олиниши мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1) Ясницкий Л.Н. “Введение в искусственный интеллект” учебное пособие // Москва – 2010
- 2) Научные Статьи.Ру — портал для студентов и аспирантов // Искусственный интеллект: определение, принципы и влияние на общество — 2023г.
- 3) <https://regulation.gov.uz>
- 4) https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt

O'ZBEKISTON YOSHLARI – KELAJAGIMIZ POYDEVORI

Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi
Namangan davlat univesiteti, O'qituvchi.
Abdulazizova Mahliyo Obidjon qizi
Namangan davlat universiteti,
Jahon tillar (ingliz tili) fakulteti,
4-bosqich talabasi
E-mail: muniraraxmatova67@gmail.com
+998940273282

Anotatsiya: O'zbekiston haqiqiy ma'noda yoshlar mamlakati. Bu yurtda ulg'ayotgan yigit-qizlarning orzulari va o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bisyor.

Ushbu maqolada mamlakatimizda yoshlarga berilyotgan imkoniyatlar, bilimli yoshlar – kelajak poydevori ekanligi tadqiq etilgan .

Kalit so'zlar: Yoshlar, ma'naviyat, innovatsiya, ta'lim samaradorligi, ta'lim-tarbiya, omillar.

Аннотация: Узбекистан – это по-настоящему молодежная в нашей страна. У юношей и девушек, растущих в этой стране, есть свои мечты и цели.

В статье исследуются возможности, предоставляемые молодежи в нашей стране, образованная молодежь – основа будущего.

Ключевые слова: Молодежь, духовность, инноваций, образовательная эффективность, образование-воспитание.

Annotation: Uzbekistan is a truly a youth country in our country, boys and girls growing up in this country have their own dreams and goals. The article explores the opportunities provided to youth in our country, educated youth are the basis of the future activation.

Key words: Youth, spirituality, innovation, educational efficiency, education and training.

Yangi O'zbekistonning kelajagi hisoblangan
bunday fidoyi, bilimli, zukko va vatanparvar
o'gil - qizlarimiz barchaga namuna bo'lishi kerak.
Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat – ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va

dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, Ona Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yoshlar dunyo aholisining tez ko'payib borayotgan qismini tashkil etadi. Hozir yer shari aholisi umumiy sonining 18% ularning hissasiga to'g'ri keladi. Yoshlar mamlakat miqiyosida rivojlanish jarayonini jadallashtirish uchun innovatsion g'oyalarni yaratishga qodir qudratli resurs, ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bunyodkorlik g'oyalarini hayotga tadbiq etadigan katta kuchdir.

Bugun yurtimizda yoshlarning zamonaviy ilm fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinayotgani, xususan, Prezident va ijod maktablari tashkil etilyotgani zaminida katta ma'no mujassam. Hozir biz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha shart-sharoitlarga ega o'quv binolarida ta'lim olayotgan yoshlarning yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlana olamiz.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim – tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Binobarin, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat davlat taraqqiyotiga inson aql zakovati bilan erishiladi. Insonning aqliy taraqqiyotini tadqiq qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmasdan, balki bu muammo qadimdan mutafakkirlar olimlar diqqati markazida bo'lib kelgan. Hatto mazkur muammo antic dunyoda yashab ijod etgan faylasuf olimlar diqqatini o'ziga jalb etgan. Ular dunyoni bilishning asosi aql ekanligini takidlaganlar.

Inson aqlining o'sishi jamiyat taraqqiyoti bilan ham bog'liqdir. Yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or innovatsion shart-sharoitlar yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda chunki yosh avlodni har tomonlama qollab quvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

- Fa
olyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);
- Ki
ritilgan o'zgarishlarning tasnifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan);

- O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli);
- Kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki va tashqaridan olingan).

Innovatsion ta'lim – shunday innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlariki, undan pedagog innovatsion faolyati natijasi bo'lib, o'qiyotganlar innovatsion g'oyalarni yaratuvchisi hisoblanadi. Innovatsion loyiha – bu loyiha maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnik, tashkiliy, rejaviy, va hisoblash – moliyaviy hujjatlarning yig'indisidir. O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kitlaganidek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayotmamot masalasiga aylanib bormoqda. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida yoshlar siyosati mamlakat ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijodiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. //http://www/gazeta.uz/uz/2017/07/01/nutq/(10.07.2017)
2. J. hasanboyev va boshqalar. Pedagogika. Darslik. Toshkent,2004.
3. Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning yig'ma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan nutqi.// xalq so'zi, 186-son.2020
4. O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning BMT bosh assambleyasining 75-sonli sessiyasidagi nutqi. <https://prizident.uz/uz/lists/view/3851>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyevning Oliy majlisga murojatnomasi. 2020yil 29- dekabr <https://www.youtube.com>

TIL SATHIDAGI YOT SO‘ZLAR VA ULARGA TENG KELUVCHI MUQOBIL IFODALARNI TOPISH MASALASINING O‘RGANILGANLIGI

Nurjahon Abdullayeva

TDSHU turkshunoslik fakulteti

2-bosqich magistranti

nurjahonabdullayeva@gmail.com

+998900055788

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilini yot so‘zlardan tozalash va til sofligini saqlash masalasining istiqboli hamda muammolari qisqacha tahlil qilinadi. O‘zlashmalarning til taraqqiyoti va rivojlanishi sohasidagi ahamiyati, xususan, o‘zbek tilining yaqin tarixdagi leksik tarkibi, unda o‘zlashgan qatlam so‘zlarining ulushi hamda mos ravishda o‘zgarib borishi misollar yordamida o‘rganilib, o‘zbek tilini yot so‘zlardan tozalash, tilning sofligini saqlashga bo‘lgan turli davrlardagi harakat va urinishlar qisman tahlil qilinadi, bu yo‘ldagi yutuq va kamchiliklar hamda bularga sabab bo‘lgan omillar haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Абстракт

В данной статье кратко анализируются перспективы и проблемы очищения узбекского языка от иностранных слов и сохранения чистоты языка. На примерах изучается значение приобретений в области развития языка, в частности, лексический состав узбекского языка в новейшей истории, доля в нем слов ассимилированного слоя и соответствующие его изменения. Частично анализируются усилия и попытки в разные эпохи очистить язык и сохранить чистоту языка, обсуждаются достижения и недостатки на этом пути и факторы, их вызвавшие.

Abstract

This article briefly analyzes the prospects and problems of clearing the Uzbek language of foreign words and preserving the purity of the language. Using examples, the significance of acquisitions in the field of development of language is studied, in particular, the lexical composition of the Uzbek language in recent history, the proportion of words of the assimilated layer in it and its corresponding changes. Efforts and attempts in different eras to purify the language and preserve the purity of the language are partially analyzed, achievements and shortcomings along this path and the factors that caused them are discussed.

Kalit so‘zlar: O‘zlashma so‘zlar, tilning lug‘at sathi, lisoniy xilma-xillik, variativlik, til sofligi, ichki va tashqi manbalar, rus-internatsional so‘zlar, neytral

leksika, tilni milliylashtirish, muqobil soʻzlar (alternativalar), atamashunoslik qoʻmitasi, til genofondi.

Ключевые слова: Заимствованные слова, словарный запас языка, языковое разнообразие, вариативность, чистота языка, внутренние и внешние источники, русско-международные слова, нейтральная лексика, национализация языка, альтернативные слова (альтернативы), терминологический комитет, языковой генофонд.

Keywords: Borrowed words, language vocabulary, linguistic diversity, variability, purity of language, internal and external sources, Russian-international words, neutral vocabulary, nationalization of language, alternative words (alternatives), terminology committee, language gene pool.

Har bir til oʻz taraqqiyoti davomida turli tillardan soʻz oladi, ichki va tashqi manbalarga koʻra boyiydi, lugʻat sathi tadrijiy ravishda kengayib, takomillashadi va shunga koʻra oʻz isteʼmolchisiga lisoniy xilma-xillik va variativlikni taqdim qilish salohiyatiga ega boʻlib boradi. Va bu har qanday rivojlanayotgan til uchun normal holatdir.

Bugun oʻzbek tili ham aynan shu jarayonni boshidan kechirmoqda. Shitob bilan kechib borayotgan globallashuv sharoitida, zamonaviy texnologiyalar tobora kunimizning, hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, oʻzi bilan yangidan-yangi tushuncha va hodisa nomlarini lisoniy sathimizga olib kirayotgan bir davrda bu jarayon yana-da shiddatli tus olayotgani ayni haqiqat. Hattoki, shu sabab boʻlsa kerak, ayrim til muhofazakorlari “oʻzbek tili oʻz milliyligini yoʻqotish arafasida” degan xavotirli farazlarni ham oʻrtaga tashlamoqda. Xoʻsh, shu oʻrinda savol tugʻiladi, tilning ijtimoiylashuvini sunʼiy ravishda toʻxtatish yoki nazorat qilish, uni majburiy bir tarzda milliylashtirish, kirib kelayotgan begona soʻzlar oʻrnini ichki manbalar orqali muqobillashtirish mumkinmi? Va bu qanchalar istiqbolli? Bu yoʻlda qanday muammolar mavjud? Mazkur maqolada aks etadigan fikr, tahlil va xulosalarimiz orqali ushbu savollarga javob topishga harakat qilib koʻramiz.

Dastlab, oʻzbek tilining turli yillardagi lugʻat boyligi tarkibida yot soʻzlar ulushi miqdoriga nazar solsak. Maʼlumotlarga koʻra, eski adabiy tilimiz leksikasida arabcha soʻzlarning ulushi XX asrning boshlarida 33-35 foizni tashkil qilgan boʻlsa, Sovet hokimiyati yillarida bu foiz sezilarli darajada pasayib, arab va fors-tojik soʻzlari oʻrnini nisbatan rus soʻzlari egallaganligining guvohi boʻlamiz.

Masalan, 20-yillarning oʻrtalarida A.K. Borovkov oʻtkazgan tahlil natijasiga koʻra, “vaqtlili matbuot leksikasida arab soʻzlari 32,1 foizni, tojik soʻzlari 5,5 foizni, internatsional (xalqaro) soʻzlar 2 foizni, oʻzbek soʻzlari 60 foizni tashkil qilgan”¹

¹ Боровков А. К. Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит на основе русской графики. –Известия УзФАН, 1940, № 7. – С. 25-68

bo'lsa, K.K. Yudaxin tomonidan tuzilgan lug'atga sarf etilgan so'zlar tahlil etilganda, "lug'atdagi so'zlarning 28,6 foizi arabcha, 16,9 foizi tojikcha, 4,7 foizi rus-internatsional, 50,3 foizi asli o'zbek so'zlaridan iborat bo'lgan (33-bet)"²ligini ko'rish mumkin. Professor Fattoh Abdullayevning "Til qanday rivojlanadi?" nomli risolasida esa o'zbek tili lug'at tarkibida yillar o'tgani sari ruscha so'zlar hissasi ortib borgani aniq hisob-kitoblar orqali dalillab berilganligining guvohi bo'lish mumkin. Unga ko'ra, "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1944-yil 1-yanvar soniga joylashtirilgan materiallarining leksik tarkibi quyidagicha ko'rinishda bo'lgan: "Gazetaning ushbu sonida hammasi bo'lib, 7310 so'z bor, shundan o'zbekcha so'zlar 53,6, arabcha so'zlar 21,1, tojikcha so'zlar 11,2, sovet-internatsional so'zlar 13,9 foizni tashkil qiladi"³.

Ushbu jarayon, ya'ni tilimizda rus so'zlari va u orqali kirgan internatsional so'zlar ulushining ortishi bu bilan to'xtab qolmay, vaqt o'tgani sayin yana-da jadallashib, fan, sanoat, ishlab chiqarish va shu kabi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy sohadagi yangiliklar, o'zgarishlar sabab yana-da til sathimizda mustahkam o'rin egallab boraverdi. Ushbu davrda gazeta, jurnal, stol, stul, ruchka, tok, avtobus, trolleybus, tramvay, teatr, roman, epopeya, epilog, programma, syujet, konsert, assambleya, assistent, geometriya, asteroid, kometa, bakteriya, semantika, generator, kompyuter, kaloriya, sistema, struktura, kvadrat, texnika, texnologiya, mashina, atom, yadro, fizika, matematika, traktor, kombayn, raketa, avtomat, armiya, propozitsiya, sinonimiya, omonimiya, leksema, grammatika, morfema, spiral, stadion, infeksiya, inflyatsiya, punkt, parlament, palata va shu kabi o'zbekcha muqobilini topish va topganda ham bu muqobillarni faol qo'llaniluvchi lisoniy sathga kiritish deyarli mumkin bo'lmagan rus-internatsional so'zlar qabul qilindi va ular neytral leksika maqomini oldi.

Faqatgina 90-yillarning boshiga kelib, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va sovet hokimiyati parchalanib, mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganligi sabab tilimizda rus so'zlari o'z ta'sirini birozga bo'lsa-da, yo'qota boshladi. Xususan, o'z paytida juda faol qo'llangan rayon (tuman), oblast (viloyat), redaktor (muharrir), redaksiya (tahririyat), adres (manzil), spravka (ma'lumotnoma), snoska (havola), spravochnik (qo'llanma), broshyura (risola), jyuri (hakam), injiner (muhandis), kalendar (taqvim), konferensiya (anjuman), leksiya (ma'ruza)⁴ va h.k. kabi so'zlar muqobillariga muvaffaqiyatli tarzda almashtirildi. Lekin bu bilan ushbu so'zlar milliylashtirildi, o'zbekcha muqobillariga almashtirildi, degan mulohaza, bizningcha, katta so'roq ostida turibdi. Chunki aksariyat muqobillarni arab so'zlari tashkil etdi.

² Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi?. Risola. – Toshkent: "Fan". 1972, 33-b.

³ Abdullayev F. "Til qanday rivojlanadi?". Risola. – Toshkent: "Fan". 1972, 33-b.

⁴ Abdurahmonov G'. "Muammolar hali ko'p". Maqola. "Sovet O'zbekistoni gazetasi". – Toshkent: 1990-yil 4-dekabr, 277-son.

Endilikda, rus soʻzlari taʼsiri kamayganligi barobarida, davrga mutanosib ravishda ingliz soʻzlari “fathi” tilimiz milliyligiga rahna sola boshladi. Dunyoning yetakchi mamlakatlari tili, umuman, bugun fan-texnologiya tili boʻlib qolgan ingliz tili tilimizga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmadi. Va bu taʼsir yaqin oʻn yilliklarda sezilarli darajada oshishi kutilmoqda.

Tahlillarga koʻra, “Eski nashrdagi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ga 80 ga yaqin inglizcha oʻzlashmalar kiritilgan boʻlsa, yangi nashrdagi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da 500 dan ortiq inglizcha oʻzlashma soʻzlar izohlangan. Shuningdek, Oʻzbek tiliga oʻzlashgan inglizcha soʻzlarning izohli lugʻatida 350 dan ortiq soʻz, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qoʻllanilayotgan neologizmlar, “Ingliz – oʻzbek – rus axborot texnologiyalari va internetga oid qisqacha atamalar lugʻati”dagi inglizcha oʻzlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksemalar qoʻshilgan⁵ligining guvohi boʻlish mumkin.

Oʻzbek tili leksik tarkibi sofligining davrlarga koʻra bundayin oʻzgarib turishi, yod soʻzlarning tilimiz sofligiga boʻlgan bundayin “xuruj”lari koʻrib turganimizdek, har doim boʻlgan. Shu oʻrinda “til sofligi” degan tushunchaning oʻzi ham biroz eʼtirozli tushuncha ekanligini aytib oʻtishimiz lozim. Chunki dunyoda biror til yoʻqki, boshqa tillardan soʻz olmagan, oʻzlashmalar hisobiga oʻz lugʻat sathini boyitmagan va mutlaq sofligini saqlab qola olgan boʻlsa. Shu sababdan til sofligini saqlash, uni yot soʻzlardan himoya qilish kerak, degan fikr-mulohazalar biroz konservativ ruh kasb etadi, bizningcha va bu amalda ilojisiz ham. Tarixdan bilamizki, bundayin harakatlar, yaʼni tilni begona soʻzlardan tozalash, uni milliylashtirishga urinishlar bizda azaldan turlicha koʻrinish va tamoyillar asosida boʻlsa-da, boʻlib kelgan.

Xususan, professor Fattoh Abdullayev bu haqida oʻz mulohazalarini bildirib oʻtar ekan, “hayotda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar, qayta qurish jarayoni, tabiiy juda koʻp va xilma-xil tushunchalarni vujudga keltirdi. Adabiy til leksikasi ana shu yangidan-yangi tushunchalarni, albatta, ifoda etib berishi kerak edi” deydi va bu oʻz tilimizdan tashqari, boshqa tillarning lugʻat boyligidan keng miqyosda foydalanishni taqozo qilishini taʼkidlaydi. Shuningdek, bu yoʻlda oʻz ichki imkoniyatlarimizdan foydalanish borasida baʼzan ortiqcha xatti-harakat natijasida sunʼiylikka yoʻl qoʻyilganligini ham taʼkidlab oʻtadi: “Koʻplab darsliklar muallifi va shoir Elbek bir vaqtlar 550 tacha soʻz-terminlarni toʻplab, avval “Turkiston” gazetasida (1923, 168-198), soʻngroq “Inqilob” jurnalida eʼlon qilgan edi. Lugʻatning kirish qismida muallif quyidagilarni yozgan edi: “Bu lugʻatni tuzishdan maqsad barcha chet soʻzlarni tilimizdan haydab chiqarish va haqiqiy oʻzbek atamalarini (terminologiyasini) yaratishdir. Lugʻatni tuzishda biz jonli tilda qoʻllanilayotgan soʻzlardan foydalandik, hozirgi tilimizda boʻlmagan soʻzlarni eski tilda yozilgan asarlardan oldik, qiyinchilik tugʻiladigan boʻlsa, biz bunday

⁵ Yoʻlchiyeva M., Abduxamidova S., Omonova M. Ingliz tilidan oʻzbek tiliga kirib kelgan bir necha neologizmlar tahlili. Maqola. CARJIS. Volume 2, Issue 1/ 2022. 441-b.

so‘zlarni o‘zimiz sun‘iy yasadik”. “Chig‘atoy gurungi” deb atalgan guruh vakillarining terminologiya yaratish haqidagi tasavvurlari ana shunday edi, – deydi olim va o‘zbek tili leksikasini “tozalashga” urinish, hech shubhasiz, tilning umumiy rivojlanish tendensiyasini, taraqqiyot qonunlarini yaxshi tushunmaslikdan kelib chiqqan xatti-harakat edi⁶” deya baholaydi.

Olimning ushbu fikrlarida jadidlarning oydinlanma harakatiga nisbatan mavjud hukmron davr keltirib chiqargan biroz noxolislik kayfiyati sezilib tursa-da, ammo ilmiy asos yo‘q edi, deb ayta olmaymiz. Negaki, bu maqsad milliyat nuqtayi nazaridan qanchalar xayrli va ezgu bo‘lib ko‘rinmasin, ilmiy-lisoniy nuqtayi nazardan olib qaraganda tilning rivojlanish, taraqqiyot qonunlarini mensimaslik va uni zo‘rma-zo‘raki, majburiy bir tarzda muayyan bir qolipga tushirish bo‘lib ko‘rinaveradi. Sun‘iy ravishda “burab” chiqarilgan bunday “milliy hosilalar” jamiyat, til foydalanuvchilari tomonidan aksar hollarda mutlaqo qabul qilinmasligi esa, afsuski, hech kimga sir emas.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1989-yil 26-dekabrdagi farmoyishi bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida tuzilgan va 2003-yilgacha o‘z faoliyatini olib borgan Respublika atamashunoslik qo‘mitasi⁷ va uning faoliyatini eslab o‘tish o‘rinli. Ushbu qo‘mita atamalarini milliylashtirishni maqsad qilgani holda bir nechta muqobilliklarni ishlab chiqib, jamoatchilikka taklif etgan edi. Jumladan: “radio – ovoznigor; samolyot – tayyora, uchoq; jurnal – oynoma, oybitik; gazeta – ro‘znoma, jarida; kafedra – minbargoh; avtobus – ko‘pkursi; respublika – jumhuriyat, direktor – boshqon, mikrofon – ovoznigor; telefon – durovoz⁸” kabi so‘zlar uydurildi, ammo yakunda ushbu so‘zlarning “Atamalarini milliylashtirish harakati”ga hech qanday aloqasi yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi. Chunki, birinchidan, bular majburlab hosil qilingan kompozitsion yasalmalar edi va eng muhimi, bularning o‘zi ham begona bir tilga mansub so‘zlar edi. Shunchaki, bir begona tildan kirgan so‘zni ikkinchi begona tilga almashtirishdek biroz mantiqsiz harakat esa tabiiyki, tilni milliylashtirish siyosatida o‘zini oqlamasdi, til iste‘molchilari tomonidan qabul qilinmasdi va amalda shunday bo‘ldi ham.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamalar komissiyasi qayta tashkil etildi. Komissiya oldidagi asosiy vazifalar etib:

- ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarini rasmiy iste‘molga kiritish;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalaridagi tushuncha va atamalarning turlicha izohlash ehtimolini istisno etadigan tarzda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma‘nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlash;

⁶ Abdullayev F. “Til qanday rivojlanadi?”. Risola. – Toshkent: “Fan”. 1972, 24-b.

⁷ Abdurahmonov G‘. “Muammolar hali ko‘p”. Maqola. “Sovet O‘zbekistoni gazetasi”. – Toshkent: 1990-yil 4-dekabr, 277-son.

⁸ Nurmonov A., A. Sobirov A., N. Qosimova N. va b. qa.. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Darslik. – Toshkent: “Ilm-ziyo”. 2013, 202-b.

- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida adabiy til qoidalari va normalariga, shuningdek, yuridik, texnik va boshqa maxsus qoidalarga rioya etilishini ta'minlash;
- boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni normativ-huquqiy hujjatlar normalariga ziyon yetkazmagan holda tahrir qilish;
- o'zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarni qonunchilik hujjatlariga joriy etish va amalda qo'llashning huquqiy muammolarini o'rganish, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash;⁹ kabilar belgilandi.

Ushbu komissiya faoliyati to'g'risida xulosa berishga hali erta bo'lsa-da, biroq komissiyaning oldida turgan vazifalar g'oyat dolzarb va mas'uliyatli ekanligini aytib o'tishimiz lozim. Ushbu komissiya faoliyatiga xolis bir kuzatuvchi mutaxassis sifatida quyidagicha taklif va tavsiyalar berishni istardik:

- avvalo, o'zlashgan (chet tillaridan qabul qilingan) atamalarning yangi imlo va izohli lug'atlarini ishlab chiqish lozim. Bu bilan ushbu atamalarning qo'llanilishidagi turli ma'noviy va imloviy tafovut hamda xatoliklarga barham berilishini ta'minlash mumkin.

- Ikkinchidan, ushbu chet tilidan qabul qilingan atamalarga o'zbekcha muqobillarni (alternaturalarni) ishlab chiqish bo'yicha muayyan ishchi guruhi tashkil etilishi va ularning faoliyati jamoatchilik orasida yoritib borilishi maqsadga muvofiq. Bunda ushbu ishchi guruh tomonidan taklif etiladigan muqobillarning talaffuz va tushunarlilik jihatlariga ko'ra afzallik darajasi baholab borilishi (so'rovnom, anketa va sh.k. shakllarda) til foydalanuvchilarining bevosita ushbu jarayonga bo'lgan munosabatlarini tahlil qilishga, tegishli xulosalar chiqarish va jarayonning istiqbollik darajasini aniqlab borishga yordam beradi.

- Shuningdek, til sathiga kirib kelayotgan yangi tushuncha va atama nomlarini tilning ichki imkoniyatlari asosida qayta nomlashda sobiq atamashunoslik qo'mitasi yo'l qo'ygan xatolardan xulosa chiqargan holda, iste'molchi qabul qilishi qiyin bo'lgan mujmal yasalmalardan xoli tarzda yangi so'zlar hosil qilish va tilga oson singuvchi bunday muqobillar topishda jamoatchilik takliflarini so'rash, bu boradagi tashabbus va harakatlarni rag'batlantirib borish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi mulohazalarimiz bilan tilni milliyashtirish mutlaqo imkonsiz va yoki istiqboli so'roq ostida turgan bir harakat deyish fikridan yiroqmiz. Shunchaki, tilni milliyashtirish uni majburiy bir tarzda izolyatsiyalash, uning o'z foydalanuvchilariga lisoniy xilma-xillik va variativlikni taqdim eta olish salohiyatidan mahrum qilish evaziga bo'lmasligi kerak deb hisoblaymiz.

⁹ Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi 40-son qaroriga 2-ILOVA. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi to'g'risida NIZOM. <https://lex.uz/ru/docs/-4717157>

Ya'ni til genofondi qanchalik boy va turli-tuman bo'lmasin, u muayyan vaqtlardan so'ng til foydalanuvchilari tomonidan mazkur qo'llanilayotgan til elementi sifatida, o'sha tilga davrlar mobaynida turli tamoyillar asosida kirib, o'rnashib qolgan, o'z qatlamga aylanishga ulgurgan leksika sifatida qo'llanila boshlashini (60 foizdan oshiqroq so'zlari, aslida, boshqa tillarga mansub bo'lgan ingliz tili¹⁰ hamda qariyb teng yarmi arab va fors-tojik tillariga mansub, yoki mazkur tildagi unsurlar, qo'shimcha va shu kabi boshqa quruvchi konstruksiyalar asosida shakllangan o'zbek tili bunga yorqin misoldir) hisobga olgan holda, bu tabiiy jarayonga sun'iy ravishda aralashishni, uni zo'rma-zo'raki, "burab chiqarilgan" va o'sha mavjud tushunchani to'laqonli ifodalab ham bera olmaydigan mujmal yasalmalar orqali milliylashtirishni u qadar to'g'ri harakat deb hisoblay olmaymiz.

Qaytaga tilimizning lug'at boyligini o'zlashgan so'zlar hisobiga yana-da kengaytirishni, faqatgina bu yo'lda "qanday bo'lsa, shunday olib qo'ya qoladigan tayyor iste'molchi" yo'ldan borishni emas, balki aniq qoida va tamoyillar asosida, keyinchalik imloda turli ikkilanish va farqliliklar keltirib chiqarmaydigan holatda o'zlashtirishni tilimizning rivoji hamda taraqqiyoti uchun to'g'ri va manfaatli jarayon deb hisoblaymiz. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, bu mulohaza tilda mutlaq muqobili mavjud bo'lgan, o'sha tushuncha yoki holatni to'laligicha ifodalab bera oladigan muqobillik (alternativlik) ka ega o'zlashmalarga taalluqli emas.

Fikrlarimiz yakuni o'laroq shuni aytmoqchimizki, tilni milliylashtirish bor so'zlarga qanoat qilib, tildagi yot so'zlarni majburan siqib chiqarish, ularning kirib kelishini sun'iy ravishda to'xtatish va yoki nazorat qilish hisobiga emas, balki muqobil ifodalarning mantiqli va to'g'ri shakllantirilishi hisobiga ro'y beradi. Chunki har qancha jon kuydirilmasin, minglab so'zlar uydirilmasin, ular iste'mol qilinmas ekan, yot so'zlardan tushunilish va talaffuzga ko'ra afzal ko'rilmas ekan, harakat nolga tengligicha qolaveradi. Iste'molchida u yoki bu so'zni tanlash huquqi doimo bo'lishi lozim. Shuningdek, rivojlangan til har qaysi holatda ham o'z foydalanuvchisiga xilma-xil variantlarni taqdim qilish salohiyatiga ega lug'at boyligiga ega bo'lishi kerak. So'zlarni qo'llashda milliylik yoki zamonaga mos qulaylikni tanlash esa har bir iste'molchining o'z shaxsiy tanlovi, yana ham to'g'rirog'i, tafakkur saviyasi belgilab beradigan jihat bo'lib qolaveradi.

¹⁰ Ruzmetova G. "O'zbek tilidagi inglizcha o'zlashmali iboralar". BMI. – Urganch: 2015, 20-b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Боровков А. К., Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит на основе русской графики. Известия УзФАН, № 7 1940.
2. Abdullayev F. “Til qanday rivojlanadi?”. Risola. – Toshkent: “Fan”. 1972, 24-33-b.
3. Yo‘lchiyeva M., Abduxamidova S., Omonova M. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan bir necha neologizmlar tahlili. Maqola. CARJIS. Volume 2, Issue 1/ 2022. 441-b.
4. Abdurahmonov G‘. “Muammolar hali ko‘p”. Maqola. “Sovet O‘zbekistoni gazetasi”. – Toshkent: 1990-yil 4-dekabr, 277-son.
5. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. va boshqalar. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Darslik. – Toshkent: “Ilm-ziyo”. 2013, 202-b.
6. G. Ruzmetova. “O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmali iboralar”. BMI. – Urganch: 2015, 20-b.
7. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi 40-son qaroriga 2-ILOVA. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi to‘g‘risida NIZOM. <https://lex.uz/ru/docs/-4717157>

XALQARO TILLARDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR VA ULARNING O‘ZLASHTIRILISH PRINSIPLARI

Nurjahon Abdullayeva

TDSHU turkshunoslik fakulteti

2-bosqich magistranti

nurjahonabdullayeva@gmail.com

+998900055788

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalqaro tillardagi o‘zlashma so‘zlar va ularning o‘zlashish tamoyillari atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro tillar hisoblanuvchi ingliz va rus tillari leksik sathidagi o‘zlashma so‘zlar, ularning tilga kirib kelish va singish jarayonlari tadqiq ostiga olinadi. O‘zlashmalarning ushbu tillar taraqqiyoti va rivojlanishi borasidagi ahamiyati, ijobiy va salbiy jihatlari atroflicha misollar orqali o‘rganiladi, tahlil qilinadi, shuningdek, til sofligini saqlash borasida ham mazkur tillardagi tajribalar o‘rganilib, fikr va mulohazalar bildiriladi va tegishli xulosalar olinadi.

Kalit so‘zlar: *O‘zlashma so‘zlar, tilning lug‘at sathi, muloqot fenomenlari, til sofligi, ichki va tashqi manbalar, qarz so‘zlar, yangi realiya, muqobil so‘zlar (alternativalar), til genofondi, tillarning irsiy va strukturaviy yaqinlik darajasi.*

Bugun biz kundalik hayotimizda va odamlar bilan o‘zaro muloqotimiz jarayonida juda ko‘plab, zamonaviy fan kashfiyotlar va texnologiyalar nomlaridan foydalanamiz. Tabiiyki, bu texnologiyalarning aksariyatini chet tili so‘zlari tashkil qiladi. Bu paytda esa biz albatta o‘zlashma so‘zlarni qo‘llashga majbur bo‘lamiz. Ma’lumki, har bir tilning lug‘at tarkibi boyib borishining bir qancha yo‘llari mavjud. Ana shunday yo‘llarning biri bu boshqa tillardan so‘zlar o‘zlashishidir. Bugungi kunda bu jarayonni boshidan o‘tkazmagan, faqat ichki imkoniyatlari bilan rivojlangan til mavjud emas. Ma’lum bir tilning hozirgi davr rivojida avvalo boshqa davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar, fan-texnika taraqqiyoti asosida boshqa bir tilga tegishli bo‘lgan so‘zlar o‘zlashishi kuzatilmoqda. Har bir tilning o‘z rivojlanish tarixi mavjud va bu jarayonda boshqa tillardan so‘zlarning kirib kelishi kuzatilgan. Mana shunday jarayonlarda jahon tillariga yangi so‘zlarning kirib kelishi o‘sha tillarning lug‘ati tarkibi boyishidan dalolat beradi. Jahon tilshunosligida tilning lug‘at tarkibining boyib borishining bir qancha yo‘llari mavjud.

1. Yangi so‘zlar yasalihi orqali (*So‘z yasalihi*)
2. Boshqa tillardan so‘z kirib kelishi orqali (*o‘zlashmalar*)
3. Mavjud so‘zlarning ma’nosi o‘zgarishi orqali (*ma’no ko‘chishi*)

4. Frazeologik birikmalarning yasalishi orqali (frazeologizmlar) Bundan ko‘rinib turibdiki, so‘zlarning boshqa tillardan kirib kelishi lug‘at tarkibini boyishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zlashmalar shunday jarayonni anglatadiki, unda so‘zlarning bir qismlari yoki butun fraza bo‘lgan so‘zlar o‘zi boshqa tildan boshqasiga ko‘chib o‘tadi. Bunday so‘zlarning tilshunoslikda uchrashi bir tomondan “muloqot fenomenlarida”, ya’ni biron bir xalqning uzoq vaqtlar davomida til va madaniy aloqalarida ko‘rinsa ikkinchi tomondan avlodlarning davomiy muhim iqtisodiy va madaniy guruhlariga qarab intilishida yoki ularning hududiy chegarada ikki yoki ko‘p tilligida ko‘rinadi.

Ingliz tilida so‘z o‘zlashuvi xususiyati. XV asrda ingliz tili qo‘lyozmalarida uni boshqa bir necha tillar xususan, lotin tili, fransuz va eski skandinavian tillari bilan aloqada bo‘lganligi haqida yozilagan. Bu manbalardan so‘z qo‘shilishi bir necha tarixiy sabablardan dalolat beradi. Rim sivilizatsiyasining katta ta’siri tufayli lotin tili Angliyada ta’lim va din tili sifatida uzoq vaqt foydalanilgan. Eski skandinavian tili IX-X va XI asrning birinchi yarmida mahalliy aholiga tezda singishib ketgan, shuningdek, o‘zlari bilan ilg‘or feodalizm ya’ni yuqori ijtimoiy tizim haqidagi yangi tushunchalarni olib kelgan mustamlakachilar tili edi.

Boshqa mustamlakachilarning tili bo‘lgan fransuz tili XI asrning o‘rtalaridan XIV asrning oxirigacha yuqori tabaqa vakillari, maktab ta’limi va rasmiy hujjatlarning asosiy tili edi. Ingliz tilida o‘zlashma elementlarni o‘rganishda asosiy urg‘u o‘rta asrlar ingliz davrida mavjud bo‘lgan qoidaga asoslandi. Keyingi davrlarda o‘zlashmalar faqat yaqin yillardagi tadqiqotlarning maqsadi bo‘ldi. O‘zlashmalar oqimi uzluksiz va davomli bo‘ldi. O‘zlashmalarning eng katta miqdori fransuz tilidan kirib kelgan. Ular ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy hayotdagi turli sohalarni tasvirlaydi.

O‘zlashmalarning katta qismi ilmiy va texnik atamalardir. Ko‘pchilik o‘zlashma so‘zlar odamlar o‘rtasidagi aloqalar va ularning madaniyat darajasi haqida bizga aytadi. U shunga sabab bo‘ladiki, o‘zlashmalar tez-tez tarixning muhim hodisasi deb nomlanadi. Agar biz ingliz tilidagi o‘zlashmalar ro‘yxatini tekshirsak, ular ma’nosiga qarab guruhlanadi, shunda biz Angliyaning boshqa millatlar bilan aloqasi haqida ko‘pgina qimmatli ma’lumotlarni qo‘lga kirita olamiz. Ba’zi bir o‘zlashmalar aniq tarixiy holatlarning to‘g‘ri ta’sirini tushuntirib bera olmaydi, ular yangi narsa va g‘oya bo‘la olmaydi. Masalan, *air – havo, place – joy, brave – jasur* so‘zlari fransuz tilidan o‘zlashgan. Shuni ta’kidlash kerakki, sof lingistik xususiyatlarni ahamiyatli darajalari bilan o‘rganilgan turli tillardan o‘zlashmani umumiy tarixiy sabablari haligacha tadqiq qilinmoqda.

Ko‘pgina o‘zlashmalar faqat tarixiy hodisaga bog‘liq emas, balki aloqamunosabatlarni xarakteri davomiyligi, shuningdek tillarning irsiy va strukturaviy yaqinlik darajasiga aloqador. Tillar qanchalik yaqin va aniq bo‘lsa ta’sir shunchalik chuqur bo‘ladi. Ingliz tilida skandinavian va fransuz tili o‘rtasidagi ta’sirni taqqoslash yaxshi baholangan. Eski ingliz tiliga yaqindan bog‘langan skandinavian tillarini ta’siri

ostida ba'zi guruh so'zlari bog'langan yoki bog'lanmagan tillardan o'zlashgan (*they, their, them* kabi olmoshlar); bir qancha skandinavian o'zlashmalari milliy so'zlardan yasalgandek tuyuladi (ularning o'zaki bir xil bo'lganligi uchun ular o'rtasidagi bog'liqlik osonlik bilan ko'rinadi), masalan, *drop - drip (scand), true - tryst (scand)*; Ingliz tilining grammatik tuzilishining rivojlanishida skandinavian so'zlarining ta'sir darajasi tezlashdi.

O'zlashmalar tilga ikki yo'l orqali kirib keladi: og'zaki nutq orqali (odamlar o'rtasidagi tez aloqa orqali) va yozma nutq orqali (kitoblar orasidagi bilvosita aloqa orqali). Og'zaki o'zlashmalar asosan tarixning dastlabki davrlarida sodir bo'lgan. Yaqin yillarda yozma o'zlashmalar muhim ahamiyat kasb etdi og'zaki o'zlashgan so'zlar, odatda, qisqa bo'ladi (*inch, mill, street*) va ular foydalanish jarayonida katta o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Yozma o'zlashmalar o'zlarining talaffuzi, tovush shakllarining ba'zi xususiyatlarini saqlab qoladi va ularning assimilatsiyasi uzoq va qiyin jarayondir¹.

Rus tilida so'z o'zlashuvi xususiyati.

